следующий смысл: да и какое отношение имеет здесь король? Да и вообще кто он такой чтобы я отчитывался перед ним то есть, сказал бы ему где я спрятал труп. Вносить ясность хотя, и не адекватным способом, в неопределённые и тёмные места ТО это свойственный стиль перевода Б. Пастернака. Рационализация такого рода нашла своё отражение и в посредственном узбекском переводе М. Шайхзады: “Хўш, энди, қиролнинг бу ишга нима даҳли бор?”

В своём непосредственном переводе Ж. Камал остаётся верным оригиналу и переводит это место так: выражение “The king is a thing “ - “Қирол шундай нарсаки...” (дословный перевод – Корольтакая вещь...) Если исходить из коннотации узбекского слова “нарса” (вещь) то использование такого рода определения относительно человека выражает унижение и оскарбление. Перевод Ж. Камала с английского намного ближе духом к оригиналу.

Чтобы привести в сознание и отвлечь опешевших (Потому что друзья считали Гамлета сумасшедшим а такие слова принца доказывают его вменяемость. Друзья - шпионы не знали о проделках Клавдия и думали что такое поведение Гамлета было причиной его отстранения от власти и донесли бы все его слова) Гильдестерна и Розенкранца и, чтобы не выдать себя принц сразу же опять надевает маску безумца и отговаривается сказав следующее: “Of nothing...” Гамлет осознавал что лучше иметь умного врага чем невежественного друга и поэтому он вынужден бороться со злом под маской безумца. Конечно, такое обращение удивило друзей принца и когда Гильдестерн спросил: “Король, милорд?” и готов был к мятежу но остроумный Гамлет ответил:

Гамлет

Не более чем ноль. (перевод Б. Пастернака)

Русский переводчик смог сохранить аллитирацию в речи Гамлета относительно короля Клавдия из ТО “a thing — Of nothing” в виде “роль – ноль”. В переводе Б. Пастернака заметно что Гамлет без всякого страха называет короля как “ноль”. Такая же интерпритация наблюдается и в опосредственном переводе М. Шайхзады: “Қиролнинг булмағур, пуч нарса – вассалом.” (дословный перевод – Ваш кароль нестоящая, пустая вещь – вот и всё.) Здесь узбекский переводчик использует способ перевода экспликации и одно слово из ТО “Of nothing” на узбекский язык переведено в виде пяти слов. И этом переводе “спасательная маска” Гамлета пропадает. Из приведённых анализов можно увидеть что в русском и узбекском посредственном переводах хотя дух ТО сохранён но идея несколько изменена.

**Заключение:** Из вышеприведённых анализов можно сделать вывод о том что при переводе знание языка дело не только желательное а, настоящее.

При опосредственном переводе часто допускаются значительные искажения идеи, духа и оригинальных свойств исходного текста. Главная же задача переводчика, чутко осмыслить передачу через яркие образы, выразить их поэтическими средствами языка, многообразием красок и сохранить идею и дух оригинала.

#### **Список литературы :**

1. Essays of John Dryden / Ed. by W.P. Ker. Oxford, 1926. Vol. 1-2.
2. Tytler A.F. Essay on the Principles of Translation, London, 1791.
3. [http://www.literaturepage.com/read/shakespeare\\_hamlet.html](http://www.literaturepage.com/read/shakespeare_hamlet.html)
4. [http://www.theatre-library.ru/files/sh/shakespeare/shakespeare\\_20.html](http://www.theatre-library.ru/files/sh/shakespeare/shakespeare_20.html)  
Вильям Шекспир. Гамлет, принц датский (пер.Б.Пастернак)
5. Жаҳон адабиёти дурдоналари. Вильям Шекспир. Отелло.Инглиз тилидан Жамол Камол таржимаси. –Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.- Б. 784. 9,20. б.
6. Вильям Шекспир. Танланган асарлар.Беш жилдилик.Учинчи жилд. Ҳамлет. Мақсуд Шайхзода таржимаси. – Т,: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б. 640. 18 с.

## ОМОН МАТЖОН SHE'RLARIDA QUSHLAR TIMSOLI

*Nasiba Norova,  
BuxDU o'qituvchisi,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Mustafoyeva Nigina,  
BuxDU filologiya fakulteti 1 bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'tgan asr she'riyatining eng yorqin vakillaridan biri Omon Matjon ijodi haqida so'z boradi. Unda shoirning "Qush yo'li", "Haqqush qichqirig'i" she'riy to'plamlaridagi ba'zi she'rlar tahlilga tortilgan. Qushlar timsolida ifodalangan ramziy va majoziy ma'no qatlamlari ochishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** Badiiy adabiyot, she'riyat, ramz, timsol, qush, quzg'un, qaldirg'och, kapalak, qarg'a.

Badiiy adabiyotda juda ko'p ramziy obrazlardan foydalanamiz. Bu hol, adabiyotimizning eng faol turi bo'lgan she'riyatda, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. She'riyatni ramzsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki she'r razm, majoz bilan jozibali va navqironidir. Ular she'riyatga yangicha ma'no va mohiyat bag'ishlash bilan bir qatorda so'zning jilo topishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda, qushlar timsoli mumtoz adabiyotda ham, zamonaviy adabiyotda ham uchraydi. Alisher Navoiy Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asariga javob tariqasida yozgan "Lison ut-tayr" dostonining 14-bobi qushlar majlisiga bag'ishlangan. Bu dostonidagi ramziy obrazlarning asosini qushlar obrazi tashkil etadi. Va bu obrazlar qadimdan adabiyotimizda qo'llanilib kelinadi. Bizga ma'lumki, qushlar bilan bog'liq ramziy obrazlar ham she'riyatda yo'q emas. Zamonaviy she'riyatimizda ham qushlar timsolining folklor va yozma adabiyot namunalari asosida shakllanganligini ko'rishimiz mumkin.

"Qushlar jahon xalqlari mifologiyasida katta ahamiyatga ega bo'lib, voqealar jarayonida birdaniga paydo bo'luvchi, qahramonlarga yordam beruvchi va vaziyatni keskin o'zgartiruvchi unsur sifatida e'tirof etiladi. Ular asosan, ilohiyot bilan odamlarning o'rtasidagi ko'priq sifatida, yuksaklik va osmon ramzi timsolida talqin qilingan. Qushlar timsoli boshqa ko'pgina xalqlardagi singari turkiy xalqlar mifologiyasida ham ilohiy olam bilan muloqot qiluvchi vosita sifatida ifodalangan. Odam o'lganidan keyin yoki uyqusida ruhi qushga aylanib uchib ketishi haqidagi tasavvurlar xalq odatlari va folklorda, xususan, ertaklarda o'z aksini topgan". [1,2]

Zamonaviy she'riyatda ham bu timsollar nisbatan qo'llanilganda yo ijobiy yo salbiy ma'no kasb etadi. Biz ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri Omon Matjon she'rlaridagi qushlar timsolini tahlilga tortamiz. Omon Matjon

haqida gap ketganda, uning lirikasi shakl va mazmun jihatdan, g`oya va ifodasi, usuliga ko`ra ham o`ziga xosdir. Omon Matjon ijodga alohida e`tibor bilan qarovchi shoir sanaladi. Ijodkor yozgan har bir she`rida chuqur falsafiy ma`nolar ijtimoiy hayot bilan uyg'un holda berilgani kishini zavqqa to`ldiradi. Shoirning “Qush yo`li”, “Haqqush qichqirig`i” kabi she`riy to`plamida aynan qushlar timsoli o`ziga xos usulda talqin etiladi. Masalan, uning “Ona degan so`z” she`riga e`tibor qarataylik:

*Kapalak rang, bulbullar ohang  
Kashfi bilan mast bo`lgan lahza,  
Ona so`zi qavatiga man  
Yozib qo`ydim BAHOR deb asta... [4,116]*

Satrlardagi har bir poetik ifoda sharhi ko`pgina sahifalarga yetadi. Ushbu she`rda ona degan birgina so`zni yozish uchun uning yoniga Maysa, Bahor, Dunyo kabi kalomlar hamroh bo`lishini yozish kerak, deydi shoir. Misralarda urush fojealari, butun boshli dahshati onaning rangi kapalakning rangiga, ovozi bulbulning nolishiga qiyoslanadi.

Odatda, kapalak-jon ramzi. Qadimgi Yunonistonda Paxeya- jon mujassami- kapalak yoki kapalak qanotli qiz ko`rinishida tasvirlangan (Yunon tilidan tarjima qilinganda “paxe” so`zi bir vaqtning o`zida “jon”, “nafas olish” va “kapalak” ma`nosini anglatadi). Inson vafot etgach, uning joni- kapalakka aylanadi va narigi dunyoga yo`l oladi, deb o`ylashgan. Bir- biriga intiq jon- Amur va Paxeya sevgisi haqidagi qissaning ramziy ma`nosi ana shunday; antik san`atda Amur mash`al sifatida tasvirlanib, uning oloviga Paxeya intiladi. Kapalak- hayot va baxtning uzoq davom etmasligi, qisqaligining ham ramzi. Olov sari uchuvchi kapalak- halokatli, biroq qaytarib bo`lmaydigan mushtolik ramzi”. [2,96] Demak, shu o`rinda, kapalak jon ramzi bo`lishiga qaramay, undagi rang-baranglik insonni maftun etadi.

Bulbul esa o`zbek xalq ertaklarida uchraydigan mifologik qush obrazi sanaladi. Biroq, bu timsol umum adabiyotda ham ko`p qo`llanilib kelmoqda. Shoir bulbul timsoli orqali misrada yashiringan g`oyani nozik ishora orqali yuzaga chiqarmoqchi bo`ladi. Kapalak va bulbul timsollari orqali urushga ketayotgan farzandi intizor kutayotgan onaning holatini chizishga harakat qiladi, shoir.

Shu o`rinda xulosa qilishimiz mumkinki, qushlar timsoli jahondagi barcha xalqlarning adabiyoti va she`riyatida mavjuddir. Shuning bilan birga, hayotda mavjud qushlar obrazi dastavval folklorda paydo bo`lgan, keyinchalik bu yozma adabiyotga ham ko`chgan. Va bunda ularning mazmun- mohiyati saqlanib qolganligiga guvoh bo`lamiz.

*Mana daftarlarim- nursiz, surursiz,  
Qishki dalalardek yaltiroq yobon.  
She`rimga kirardi qaldirg`och, yalpipiz,  
Sen kirib ohista qo`l berganing on.*

Omon Matjon she`rlaridagi qush bilan bog`liq ramziy obrazlar ijtimoiy hayotdan tanlangan bo`lib, undagi ramziy obrazlarda bevosita hayotimizda ro`y bergan voqeliklar bilan bog`liqligini ko`ramiz. Zero, Gyote ta`kidlaganidek, har bir she`rning hayotiy prototipi mavjuddir. Bizga ma`lumki, qaldirg`och bahor darakchisi hisoblanadi.

Qaldirg`och-bahor, tong, tiklanish,umid, shuningdek,do`stlik va sadoqat ramzi. Xitoyda bahor va hosildorlik tajassumi sifatida e`zozlangan.Qaldirg`och- ma`budlar elchisi, ba`zan ikki dunyo o`rtasida vositachi hamdir( chunki u dengiz ortidan uchib keladi).Biroq qaldirg`och bilan yomon alomatlar ham bog`lanadi va u dunyoviy shakllarning ishonchsizligi va xavf ramzi sifatida qarala boshlandi. Uy tomlari ostiga in solgan qaldirg`ochlar xonadon o`chog`i va shinamlik ramziga aylangan [2,104]. Shoirning “Bugun oy botganda seni sog`indim” misralari bilan boshlanuvchi she`rida qaldirg`och timsoli ijobiy ma`noda qo`llanilgan. Uning ushbu she`rida yorga murojaati tasvirlangan. Oy botganda uni sog`inishi, yoridan ayrilgani, agar sevgilisi yonida bo`lganida kulfatni birgalikda yengishi va hattoki, she`rlari ham mazmunsiz,surursiz ekanligini aytib o`tadi. Agar yori uning hayotiga kirib kelgan onda she`rlariga go`yoki qaldirg`ochdek nur, ma`no-mazmun kiradi, ya`ni yanada go`zallashadi demoqchi bo`ladi.

Xalqimizda qaldirg`och bahor darakchisi, baxt va ezgulik xabarchisi deb ta`riflanadi. Bu qushga boshqa xalqlar ham e`tiqod bilan munosabat bildiradi. Chunki qaldirg`och juda ko`p xalqlarning qushlarga oid poetik tafakkuri tizimida keng ramziy ma`no kasb etgan qushlar sirasiga kiradi. Ko`pgina xalqlar e`tiqodida, jumladan, o`zbek xalqi e`tiqodida ham qaldirg`och ezgulik, insoniylik, mehr-oqibat kabi timsollarda gavdalanadi [3,111]. Shoir she`rida ham bu timsol orqali ijobiy ma`no ifodalangan.

*Bugun yurt ufqida bir nur ko`rindi,  
Beklarni kengashga chorlang,hazratim  
Qo`sh boshli quzg`unning qanoti sindi,  
Beklarni kengashga chorlang, hazratim*

Shoir ijodidagi ushbu she`rda yovga qarshi kurash holatini ko`rishimiz mumkin. Va quzg`un timsoli orqali dushmanga ishora qilyapti.Dushmanni yengish uchun beklarni kengashga chorlashi, biroq yovning hiyla-yu aldovlari ko`p. Agar birlasholsak hammadan qudratliroq bo`lishin aytadi. Quzg`un timsoli ikki jihat: uning qora tusi va qattiq qag`illashi bilan shartlangan. Masalan, Shimoliy Amerika hindulari asotirlarida quzg`un ilohiy kuch va madaniy qaharamon hisoblanadi. “Quzg`un o`lik hayvonlar bilan ovqatlanishi bois uni o`liklar saltanati va yer bilan, biroq ayni vaqtda osmon (qushlarning umumiy ramzlariga ko`ra) bilan ham bog`lanadi. Shu sababli quzg`unga uchta olam o`rtasida vositachi vazifasi yuklanadi va unga donolik, bashorat qilish qobiliyati beriladi.Uni xtonik mavjudot sifatida baxtsizlik va o`lim bilan bog`lashadi.

Shu tariqa, bashoratchi quzg`un- asosan baxtsizliklar, o`lim xabarchisi. U bashoratchi va badniyat qush hisoblangan”. [2,105]

Chinakam shoir o`zining kayfiyatini, kechinmalarini o`zgalarga yuqtira oladi. Haqiqiy she`r hamisha yolg`ondan yiroq bo`lgan chin insoniy tuyg`ularni aks ettiradi. Omon Matjonning biz o`rganib chiqqan she`rlarida ayni shu holat yaqqol seziladi. Har uch she`rni o`qiganimizda o`zimiz sezib yo sezmay, shoir ifoda qilayotgan tuyg`ular ta`siriga tushib qolamiz. Chunki shoir she`rxonning ruhiy holatini, dunyosini yaxshi biladi. Biz xalqning qudrati, uning buyukligi, uning hayotini yaxshilash zarurligi haqida juda ko`p gaplar aytilganini bilamiz. Ammo xalq oddiy odamlardan iborat ekanligini, uning orasida oliyjanob-u buyuklar ham borligini, shu bois xalqni muqaddaslashtirish o`rniga uning ma`naviy darajasini ko`tarish kerakligini shoir she`rlarida yorqin ifodalangan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Mamadaliyeva Z. Ikki maqola // Sharq yulduzi. jurnali, – Toshkent, 2013. – №6. – B. 5.
2. Mingboyeva D. Timsollar tilsimi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – B.96.
3. Jumayev A. O`zbek va nemis ertaklarida qushlar obrazi tipologiyasi hamda spesifikasi. Filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, – Buxoro, 2021. – B.55.
4. Omon Matjon. Karvon qo`ng`irog`i. – Toshkent: Adabiyot va san`at nashriyoti, 1973, B. –116.
5. Internet saytlari: ziyo.uz kutubxonasi

## СЕСТРИНСКИЙ ПРОЦЕСС.

*Мингабаева Саидахон Рустамбековна,  
Андижанский техникум общественного  
здравоохранения имени Абу Али Ибн Сины,  
преподаватель кафедры Сестринского дела.*

### Аннотация

В настоящее время сестринский процесс является сердцевиной сестринского образования и создает теоретическую научную базу сестринской помощи в Узбекистане.

**Ключевые слова:** сестринский процесс.

Сестринский процесс — это научно обоснованная технология ухода в сестринском деле. В первой половине 50-х гг. XX в. в США впервые появилось понятие «сестринский процесс». В 1955 г. в журнале «Новости общественного здравоохранения» была опубликована статья Лидии Холл «Качество сестринского ухода», в которой исследовательница привела свое описание сестринского процесса. Предложенное ею толкование не встретило всеобщего одобрения медицинских сестёр, и в специальной литературе все чаще стали появляться его новые трактовки.

Цели сестринского процесса:

1. Обеспечение приемлемого качества жизни пациента в зависимости от его состояния.
2. Предупреждение, облегчение, сведение до минимума проблем пациента.
3. Помощь пациенту и его семье по поводу дезадаптации, связанной с заболеванием или травмой.
4. Поддержка или восстановление независимости пациента в удовлетворении основных потребностей или в обеспечении спокойной смерти.

Преимущество использования сестринского процесса:

1. Индивидуальность, учёт клинических, личностных и социальных потребностей пациента.
2. Возможность широкого использования стандартов сестринского ухода.
3. Соучастие пациента и его семьи в планировании и обеспечении ухода.

На данном этапе медицинская сестра собирает и оформляет данные о пациенте. В ходе обследования между сестрой и пациентом должен быть установлен психологический контакт. Пациент должен доверять медицинскому работнику, ощущать уверенность, что о нём позаботятся должным образом и на уровне соответствующем достижениям современной медицины. Обследование

бывает двух видов: субъективное (жалобы пациента) и объективное (контроль АД, ЭКГ и т.д.).

На данном этапе медсестра выявляет реальные и потенциальные проблемы пациента, которые она должна устранить в силу своей профессиональной компетенции. Настоящие проблемы – это те проблемы, которые беспокоят пациента в настоящее время. Потенциальные – те, которые еще не существуют, но могут возникнуть с течением времени. Установив оба вида проблем, сестра определяет факторы, способствующие или вызывающие развитие этих проблем, В других странах этот этап называется сестринский диагноз, что не может быть оправдано в России, поскольку диагностикой и лечением занимается врач.

На третьем этапе сестринского процесса медсестра составляет план сестринского ухода с мотивацией своих действий. При этом медицинская сестра должна руководствоваться стандартами сестринской практики, которые рассчитаны на работу в типичной ситуации, а не с отдельным пациентом. От медсестры требуется умение гибко применять стандарт в реальной ситуации. Она имеет право аргументировано дополнять план действий.

Цель медицинской сестры на данном этапе обеспечить соответствующий уход за пациентом, провести обучение и консультирование по необходимым вопросам. Медицинская сестра должна помнить, что все сестринские вмешательства основаны:

1. На знании цели.
2. На индивидуальном подходе и безопасности.
3. Уважении к личности.
4. Поощрения пациента к самостоятельности.

Существует три категории сестринского вмешательства. Выбор категории определяется нуждами пациентов, предписаний врача и под его наблюдением. Независимое сестринское вмешательство предусматривает действия, осуществляемые медсестрой по собственной инициативе, руководствуясь собственными соображениями, без прямого требования со стороны врача. Например, обучение пациента гигиеническим навыкам, организация досуга пациента и др. Взаимозависимое сестринское вмешательство предусматривает совместную деятельность сестры с врачом, а также с другими специалистами. Зависимое сестринское вмешательство, такие как выполнение назначений врача. При всех типах взаимодействия ответственность сестры исключительно велика.

### Литература:

1. С. И. Двойникова, Л. А. Карасева «Организация сестринского процесса у больных с хирургическими заболеваниями» Мед. Помощь 2011 №3 С. 17-19.



2. Иванова Л. Ф. с соавторами «Сестринский процесс в геронтологии и гериатрии» г. Чебоксары 2009-2012гг.
3. С. А. Мухина, И. И. Тарковская «Теоретические основы сестринского дела» часть I - II 2010г., Москва
4. В. М. Кузнецов «Сестринское дело в хирургии», Ростов-на-Дону, Феникс, 2010г.
5. Веб сай <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

## TIL O'RGANISH VA O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYANING ROLI

*Mamadaliyeva Gulbaxor Arabjanovna*

*Andijon mashinasozlik instituti, Akademik litseyi ingliz tili fani o'qituvchisi.*

**Annontatsiya:** Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari, akademik litseylari va kasb-hunar texnikumlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda.

**Kalit so'zlari:** Chet tili, (CEFR), o'quvchi, zamonaviy axborot texnologiyalari, o'yin texnologiyasi.

Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innavatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy taxnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir.

Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan: — kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin; — chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; — ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish; — CD pleyerlardan foydalanish mumkin.

Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi [1]. Bugungi kunda maktablarda interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi. O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rnini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zamirida umumiy qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va bemalol faoliyat ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avallo, o'qitishning bir usulidir.

O'quvchilar o'yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali o'quvchiga ta'lim-tarbiya ham beradi. O'quvchi inglizcha o'yin o'ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi [2]. Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Statlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda: – —Muammoli vaziyat yechimil (Creative Problem Solving) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi; – —Quvnoq topishmoqlar (Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar; – —Tezkor javobl (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi; – —Chigil yozdil (—Warm-up exercises) o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish [3]; – —Pantomimal (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi; – —Hikoya zanjiril (a chain story) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda yordam beradi; – —Rolli o'yinlar (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Creative Problem Solving" 2020
2. "chet tilini o'rganish" 2016
3. "Muammoli vaziyat yechimi" 1994

## МАТЕМАТИКА DARSLARIDA KREATIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING MUXIM JIXATLARI

*Qunaqulova Flura Abdullayevna*

*Andijon mashinasozlik instituti, Akademik litseyi matematika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada matematika fanini o'rgatish jarayonida kreativ texnologiyalar, didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Darslarning qay darajada tashkillanishi bu o'qituvchining ijodkorlik qobiliyatiga ham bog'liqdir. Matematik o'yinlar, rasmi topishmoqlar kundalik darslarga joziba bag'ishlaydi. Didaktik o'yinlar darsda ishni individuallashtirish, har bir o'quvchining kuchiga mos topshiriq berish, uning qobiliyatlarini maksimal o'stirish imkoniyatini beradi. O'yin orqali o'quvchilar darsdan olgan bilimlarini mustahkamlaydilar, ularni hayotga tadbiiq eta olishga tayyorlanadilar.

**Kalit so'zlar:** kreativ texnologiyalar, innovatsion texnologiya, "Juft-juft muloqot" usuli, pazl metodi, "Matematik bozor" o'yini.

Shiddatli axborotlashuv jarayoni amalga oshib borayotgan hozirgi davrda har bir soha kishisi zamon bilan hamnafas ravishda innovatsion texnologiyalarga, innovatsion vositalarga murojaat qilishiga to'g'ri kelmoqda. Shu jumladan, matematika fani ham bunday oqimdan chetda qolayotgani yo'q. O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlarga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega.

Hozirgi paytda an'anaviy ta'lim bo'yicha katta tajriba to'plangan va an'anaviy ta'lim usulini takomillashtirish sohasida izlanishlar davom etmoqda, lekin uning obyektiv imkoniyatlari cheklangan. Amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar, tez sur'atda rivojlanayotgan fan-texnika talablari ta'lim usuli bilan jamiyatning raqobatbardosh yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga, barkamol avlodni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoji tafovudni vujudga keltirdi. Uni ta'limda boshqa yondashuvlarni qo'llash yo'li bilan hal etish lozim.

Mutaxassislarining ta'kidlashlaricha, matematikani yaxshi o'zlashtirgan o'quvchining tahliliy va mantiqiy fikrlash darajasi yuqori bo'ladi. U nafaqat misol va masalalar yechishda, balki hayotdagi turli vaziyatlarda ham tezkorlik bilan qaror qabul qilish, muhokama va muzokara olib borish, ishlarni bosqichma-bosqich bajarish qobiliyatlarini o'zida shakllantiradi. Shuningdek, matematiklarga xos fikrlash uni kelajakda amalga oshirmoqchi bo'lgan ishlar, tevarak-atrofdan sodir bo'layotgan voqea-hodisalar rivojini bashorat qilish darajasiga olib chiqadi. Matematikaning hayotimizda tutgan beqiyos o'rni inobatga olingan holda mazkur fan birinchi sinfdanoq maktab darsliklariga kiritilgan bo'lib, yurtimizda barcha aniq fanlar qatori matematika ta'limini zamon talablari asosida takomillashtirib borish, uni o'qitishda eng so'nggi

pedagogik va innovatsion usullar, multimedia vositalari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Innovatsion texnologiyalarni amaliy mashg'ulot darslarida qo'llash ham o'qituvchidan katta mahorat va bilim talab qiladi. Innovatsion texnologiya o'z o'rnida qo'llansa qo'yilgan maqsadiga erishiladi. O'qituvchi dars davomida darsning mavzusiga qarab xususiy texnologiyalarni qo'llab ham yuqori natijalarga erishsa bo'ladi.

*Xususiy texnologiya bu - ta'lim-tarbiya mazmunining ayrim yo'nalishlarini amalga oshirish usullari va vositalari majmuini o'z ichiga oluvchi innovatsion tizimlarni qamrab oladi. Bunga ayrim fanlarni o'qitish texnologiyalari va o'qituvchining o'quvchi bilan ishlash texnologiyalari kiradi.*

*“Klassik juftliklar” (“Klassik uchliklar”) - bunda ishtirokchilarga ustiga o'zaro klassik yoki barchaga ma'lum bog'liqlikka ega bo'lgan tushunchalar, odamlar familiyalari, ertak va folklor qahramonlarining nomlari yozilgan (bosib chiqarilgan) kichik kartochkalar tarqatiladi.*

Masalan:

*Klassik juftliklar: Klassik uchliklar:*

Funksiya - jadval Quyosh - havo - suv

Parabola - giperbola Minus - plyus - modul

Elektron - proton Mediana - balandlik - bissektrisa

Kenglik - uzunlik .....

Bissektrisa - burchak Nyuton - olma

So'zlar tartibsiz ahvolda bir varaq qog'ozga yozilgan, masalan, plyus, parabola, uzunlik, burchak, mediana, minus, funksiya, giperbola, jadval va hokazo. O'quvchilar shu so'zlar orasida klassik juftlik yoki uchlikni topib, tuzishlari va ana shu og'liqlikni asoslab berishlari kerak. Mashq ham individual tartibda, ham kichik guruhlarda o'tkazilishi mumkin.

*“Juft-juft mulqot” usuli - Biror mavzu bo'yicha yonma-yon o'tirgan o'quvchilarga biror topshiriq (yoki alohida-alohida topshiriqlar) berish va ularni birgalikda topshiriqda keltirilgan muammo (masala) yechimini topishga chorlash, yechimlarni eshitish va baholash.*

Ba'zi hollarda o'quvchilar bir-birlariga navbatma-navbat savol (masala) bilan yuzlanishlari ham mumkin. Bunday holda savol javobi (masala yechimi) savol (masala) bergan o'quvchi tomonidan tinglanishi (tekshirilishi) va baholanishi lozim bo'ladi.

Juftlikda ishlash mavzusini tanlayotganda alohida ehtiyot bo'lish zarur. Bu mavzu ko'pchilik tomonidan o'zlashtirilgan bo'lishi lozim, aks holda juftlarda ish ketmasligi mumkin.

Topshiriqlardan namunalar:

a) Har bir o'quvchi 1 minut davomida "O'nli kasrlarni 10, 100, 1000 va hokazo sonlarga bo'lish" mavzusiga oid 3 ta misolni tuzsin va o'z partadoshi bilan almashsin. 3 minutdan keyin misollarga javobni qaytarib olsin va javoblarni 1 minut ichida tekshirib, baholasin.

b) Har bir o'quvchi 1 minut davomida "O'nli kasrlarni 10, 100, 1000 va hokazo sonlarga ko'paytirish" mavzusiga oid 3 ta misolni tuzsin va o'z partadoshi bilan almashsin. 3 minutdan keyin misollarga javobni qaytarib olsin va javoblarni 1 minut ichida tekshirib, baholasin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kun o'quvchisini bugungi zamonning talablari asosida o'qitish lozim. Zero, kreativ texnologiyalar zamonida dunyoga kelayotgan o'g'il-qizlar o'zining bir qator umumiy sifatleri bilan ajralib turadi. Turmush tarzimiz, qiziqish va xohish-istaklarimiz global makonda qariyb o'xshash tus olayotgan bir vaqtda kechagi o'qitish usullari bilan maqsadga erishib bo'lmaydi. Zamon bilan hamqadam rivojlanib borgandagina yuksak intellektual avlodni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiiq etish asosida ta'lim samaradorligini oshirish va ta'lim jarayoniga texnologik yondashish mumkin. Hamda bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Ta'limga kreativ yondashuv, innovatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadidagi ilmiy natijalarni o'rganish va nazariy ma'lumotlarni tayyorlash, o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otishga xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan bir qatorda yoshlarni olimpiadalarga tayyorlash mashg'ulotlarida kreativ texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanish ham maqsadga muvofiq. Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, mashg'ulotlar davomida matematikaning amaliyotga tadbiiqlariga bag'ishlangan ilmiy ishlar bo'yicha qisqacha ma'lumotlar berilishi, ularda fanga bo'lgan qiziqishni ortishi va dunyoqarashlarini kengayishiga hamda ilmiy ishlar chop qilishlariga sabab bo'lmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Умарова У.У. "Муносабатлар. Бинар муносабатлар" мавзуси бўйича маъруза ва амалий машғулотлари учун "Ажурли арра" ва "Домино" методлар // Scientific progress, 2:6 (2021), p. 982-988.
2. Умарова У.У. Мулоҳазалар устида мантикий амаллар мавзусини ўқитишда «Кичик гуруҳларда ишлаш» методи // Scientific progress, 2:6 (2021), p. 803-809.
3. "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori № 5
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf. 2010.
5. Tolipov O'. Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: "Fan". 2015.
6. Sherqulov. M . Ma'ruza matni dan, Toshkent: 2016.

## РУС ТИЛИНИНГ МАКТАБ КУРСИ: ЎҚИТИШНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*Шамсутдинова Мухтасар Икромовна*

*Андижон машинасозлик институти, академик лицейи рус тили fanii  
ўқитувчиси.*

**Annotatsiya:** Мақолада замонавий лингводидактиканинг долзарб муаммолари кўриб чиқилган бўлиб, XX аср охири – XXI аср бошларида рус тилини ўқитиш методикасининг ривожланишининг асосий йўналишлари акс эттирилган. Мақолада мактабда рус тилини ўқитиш технологиялари, мақсадлари, мазмуни, назарий англаниши ва назорат қилиш таълимдаги компетентли ёндашув билан боғланган.

**Калит сўзлар:** лингводидактика, ўқитиш концепцияси, тил шахси, компетенция, таълим технологиялари, якуний назорат.

**Аннотация:** В статье рассматриваются актуальные проблемы современной лингводидактики, основные направления развития методики обучения русскому языку в конце XX - начале XXI веков. В статье соединены технологии, цели, содержание, теоретическое понимание и контроль обучения русскому языку в школе с грамотным подходом к обучению.

**Ключевые слова:** лингводидактика, концепция обучения, языковая личность, компетенция, образовательные технологии, итоговый контроль.

**Abstract:** The article examines topical problems of modern linguodidactics, the main directions of the development of methods of teaching the Russian language in the late XX - early XXI centuries. The article combines technologies, goals, content, theoretical understanding and control of teaching the Russian language at school with a competent approach to teaching.

**Keywords:** linguodidactics, teaching concept, linguistic personality, competence, educational technologies, final control.

XX-XXI асрларда хорижий тилларни ўқитишнинг замонавий методикаларининг ривожланишини асосий йўналишлари шахс, давлат ва жамият эҳтиёжлари билан боғлиқ. Ушбу эҳтиёжлар давлатнинг демократик ва ҳуқуқий давлат сифатида шаклланиши жараёнида шаклланди, устуворликлар ўзгарди, бу илмий тадқиқотлар йўналишларида ҳам, ахборот технологиялари ривожланиши ва ютуқларида ҳам намоён бўлди. Ўқиётганларнинг таълим ва мақсадлари ҳам шу билан боғлиқ. Ўзбекистон таълимни модернизация қилиш, таълимнинг янги мазмуни, ўқув жараёнини ташкил этишнинг янги шакллари, замонавий таълим технологиялари ва таълим сифатини баҳолашнинг янги шакллари органик

бирлигига қаратилган рус тилини ўқитишнинг янги моделини қуришни назарда тутати [1].

Рус тилини ўқитиш ҳозирги вақтда унинг меъёрларини ўзгартириш шароитида олиб борилмоқда. Аҳолининг умумий ва нутқ маданияти пасайиб бормоқда. Рус тилини ўқитиш бу шароитда алоҳида ижтимоий аҳамиятга эга бўлиб, жамиятнинг нутқ маданиятининг ҳолати тилнинг ўзи ва унинг хорижий тил сифатида инсон ҳақидаги ғояларга асосланган хорижий тилни ўқитишни шакллантириш билан белгиланади.

Шуни таъкидлаш керакки, ўқувчилар хорижий тилни ўрганишга жудаям эътиборли бўлишмайди, чунки хорижий тилни билиш жамиятда етарли даражада обрўга эга эмас ва жамият хорижий тилни тушунишнинг юқори даражасига кўтарила олмайди, чунки хорижий тилда сўзлашувчиларнинг маданияти даражаси етарлича юқори эмас. Тўғри, вазиятни бир зумда ўзгартириб бўлмаслиги аниқ. Шу боис, мактабда рус тилини ўқув предмети сифатидаги ҳолатини таҳлил қилиш, яъни замонавий мактабда рус тилини ўқитишнинг мазмуни, мақсадлари, ўқитиш методикаси, ўқитишнинг дидактик воситалари, ўқитиш технологияси, ўқувчиларнинг тил билимлари, кўникмалари ва қобилиятлари, назоратларни ташкил қилиш каби масалалар моҳиятини очиб бериш зарур.

1903 йилда академик А.А. Шахматов шундай деб ёзган эди: “бу жуда муҳим масала... аввало, мактабда рус тилини ўрганиш керакми, зарурми ёки зарур эмаслигини ҳал қилиш керак. Бу савол ўз-ўзидан пайдо бўлади, чунки бизнинг мактабларда ўқитишнинг ҳозирги шакли рус тилини ўрганиш ортиқча деган фикрни келтириб чиқаради, албатта, имлони ўрганиш, фикрларни ёзма ифода этишни – *тилни ўрганиш* деб аташ мумкин эмас” [2].

Ўтган вақтлар мобайнида мактабда рус тилининг позицияси ўқув фани сифатида деярли ўзгармади. Замонавий мактаб ўқувчилари учун рус тили дарслари қийин ва қизиқарли эмаслиги сир эмас. Аввало, бу болалар рус тилини кундалик ҳаётдаги роли ва аҳамиятини тушунмаслиги билан боғлиқ. Уни ўрганишга маъно бериш, тўғри ва чиройли нутқ кадриятларини қайтариш учун эса мактабда рус тилини ўқитиш методикасига фаннинг замонавий лингводидактик долзарб муаммолари нуқтаи-назаридан қараш керак.

*Биринчи муаммо – мактабда рус тилини ўрганишнинг аҳамияти.* “Рус тили” фанининг таълим ва тарбиявий аҳамияти рус тилининг ижтимоий функциялари билан белгиланади, у алоқа ва таъсир воситаси, борлиқни англаш, билимларни сақлаш ва ўзлаштиришдан иборат. Бадиий адабиётнинг асосий элементи оғзаки санъат сифатида намоён бўлади. Бироқ, бу тушунчани замонавий ўқувчига етказиш осон эмас, шунинг учун ўқитишнинг



тамоийллари, воситалари, усуллари ва услубларини танлаш ўқитувчидан замонавий илмий ютуқларга мос билим ва кўникмаларни талаб қилади [5].

*Иккинчи муаммо* – мактабда рус тилини ўқитишнинг мақсад ва вазифаларига тақалади. Рус тили ривожланишини замонавий босқичи, яъни ўқитиш методикаси ўқув мақсадларини аниқлашнинг янги ёндашувларини тавсифлайди. “Компетенция” тушунчаси мактабда фойдаланишга киритилди. Рус тилини ўқитиш компетенцияси нутқ билан мулоқот қилиш ва ўқув жараёнида шакланган рус тили ҳақидаги билимларни ўзлаштиришни ўз ичига олади. Ўқув мақсадлари тил, лингвистик, коммуникатив ва маданий компетенциялар орқали белгиланади.

Пировард мақсад шу компетенцияларга эга бўлган лингвистик шахсни тарбиялашдир. Тил:

- тил ҳақидаги билимларни тизим сифатида эгаллаш, унинг хусусиятлари, қоидалари ва бу билимлардан амалиётда фойдаланиш;
- лингвистик компетенция – тилга ҳодиса сифатида қарашни шакллантириш, лингвистикани фан сифатида билиш;
- коммуникатив компетенция – ўзганинг нутқини тушуниш, нутқ вазиятини, нутқ ахлоқ-қоидаларини ҳисобга олган ҳолда оғзаки ва ёзма шаклда нутқдан эркин фойдаланиш;
- маданий компетенция – миллий маданиятни ифодалаш шаклини, тил ва халқ тарихи ўртасидаги муносабатларни, рус тили ва рус нутқининг миллий ва маданий хусусиятларини, дунёнинг лингвистик расмини шакллантиришни, миллий тамғага эга бўлган тил бирликларини, рус нутқ этикетини, миллатлараро мулоқот маданиятини англаш компетенцияларидан иборатдир.

Рус тилини ўқитиш назарияси ва амалиётига компетенция тушунчасини киритиш шунчаки модда эмас. Ушбу тушунчани киритилиши мактабда рус тилини ўқувчилар томонидан ўзлаштириш мезонлари, ўқитишнинг мақсадлари ва мазмунини назарий тушунишнинг табиий натижасидир. Ушбу мақсадларга эришиш учун таълим объекти ва таълим мазмунини мослаштириш керак. Шубҳасиз, мактабда умумхалқ тили тарихий ва маҳаллий турларида ўрганилиши керак, шунингдек оғзаки ва ёзма адабий нутқни нутқ маданияти, амалий стилистика каби жиҳатларига эга бўлиши керак. Янги дастурлар ва дарсликларни ишлаб чиқиш истиқболли ҳисобланади, уларнинг яратилишида уч тараф иштирок этиши керак: учта ёндашувни бирлаштириш учун тилшунос, методист ва ўқитувчи: қизиқишга асосланган илмий, тушунарли ва амалий йўналиш [3].

*Учинчи муаммо* – “Рус тили” мактабдаги ўқув фанининг мазмуни. Ҳозирги босқичда мактаб лингвистик таълимнинг асосий мазмунини одатдаги билим, кўникма ва малакалар мажмуи билан боғлашмайди. Мазмуни давлат дастурларида ўз аксини топган Ўзбекистон мактабларнинг таълим стандартлари

ўрта мактаб битирувчисига ягона талабларни белгилайди ва ўқув натижаларини баҳолашнинг янги шакли – компетенцияни таклиф этади.

Бугунги кунда таълимнинг мақсади бошқача тарзда шакллантирилади: бир авлоддан бошқа авлодга ижтимоий тажрибани, инсоният томонидан яратилган маданий қадриятларни, шахсий ривожланишни энг муҳим фаолиятни шакллантириш орқали намоён бўлади. Шу нуқтаи-назардан дидактикада таълим мазмуни инсониятнинг педагогик жиҳатдан мослаштирилган ижтимоий тажрибаси сифатида тушунилади. “Рус тили” фанининг мазмунини аниқлашнинг назарий шарти, бу фаолият ёндашуви амалга оширилган ҳолда тил ва нутқни фарқлашдир. “Рус тили” фанининг мазмуни билим ва фаолият таркибий қисмларидан ташкил топган.

Тилни билиш – бу тил, унинг тузилиши, фаолияти, тил тизимининг турли даражадаги бирликлари, рус адабиётининг таниқли вакиллари ҳақида умумий ва тизимли маълумотдир.

Нутқ ҳақидаги билимлар – бу нутқ фаолияти, нутқ фаолиятининг маҳсули сифатида матн, нутқ услублари ва турлари, нутқ жанрлари, нутқ тушунчалари ҳақидаги маълумотлардир. Ушбу билимларни ўзлаштириш ўқувчининг билим ва коммуникатив маданиятини шакллантириш учун зарур шартдир [4]. Шундай қилиб, мактаб битирувчилари умуман халқ ва ҳар бир шахс ҳаётида тилнинг ўрни ҳақида тасаввурга эга бўлмай туриб, мактаб грамматикаси доирасидаги имло даражасида фақат ёзма нутқни эгалласалар, тилнинг тақдири учун масъулиятни ҳис этмайдилар.

*Тўртинчи муаммо – рус тилини ўқитиш технологиялари.* Ўқитиш технологиясини танлаш ўқитувчининг синфда ўқитишнинг анъанавий усул ва воситаларидан янгиларига ўтишининг мураккаб жараёнидир. Шу билан бирга, анъанавий технология – ички, тизим ва ўқитувчи томонидан қабул қилинган, инновацион эса ташқи, жорий этилаётган, аммо ҳали қабул қилинмаган деб ҳисобланиши мумкин. Шундай қилиб, педагогик ўтиш жараёнларини барқарор ва янгиликнинг бирлиги сифатида қаралиши мумкин.

Таълим парадигмаларининг изчил ўзгариши ҳар доим таълим технологияларининг ўзгариши ёки уларни модернизация қилиш билан бирга амалга ошади. Одатдаги ўқитиш методларимиз таълим технологиялари томонидан сиқиб чиқарила бошлади. Ўқитиш методикаси – бу бир авлод тажрибасини бошқасига ўтказиш ва инсон фаолиятининг янги тажрибасини шакллантириш деб аталадиган педагогик қоидалар, методлар, усуллар ва воситалар мажмуидир. Ҳар қандай ўқитиш усули ҳар доим маълум бир таълим парадигмасига асосланган муайян ўқув фани билан боғлиқ. Яқин-яқингача ўқитувчиларимиз совет даврида ишлаб чиқилган болалар ва ёшларни коммунистик тарбиялаш ғояларига асосланган фанларни ўқитиш, тушунтириш

ва тасвирий таълимни ривожлантириш элементларига эга бўлган методлардан фойдаланишганди.

Ўқитиш технологияси, яъни таълим технологияси назарияни амалиётга ва амалиётни назарияга яқинлаштирувчи бир босқичдир. Унинг моҳияти вақт, жой, иштирокчиларнинг хусусиятлари ва бошқа ўзига хос шароитларни ҳисобга олган ҳолда ушбу қоидаларни (мақсадлар, вазифалар, принциплар, мазмун, методлар, таълим ва тарбия шакллари) ишлатиш учун тизимларни шакллантириб ўқитиш методикасини ишлаб чиқишдадир. Рус тили таълим технологиясининг мазмуни жамиятни ривожлантириш стратегияси, таълимни ривожлантириш стратегияси, таълим концепцияси, таълим мақсадлари, мазмуни, методлари, ташкилий шакллари, ўқитиш воситалари ва жамиятнинг эҳтиёжларини самарали акс эттириши керак.

*Бешинчи муаммо – якуний назорат шакллари, ўқувчиларнинг рус тили билим, кўникма ва қобилиятларини баҳолаш.* Мактаб амалиётига “компетенция” тушунчасини киритиш, ушбу фан бўйича мактаб ўқувчиларини тайёрлаш даражасини ошириш бўйича аниқ ориентирлар беради ва охир-оқибат ушбу даражани назорат қилиш, ҳисобга олиш ва баҳолашнинг бутун тизимини сезиларли даражада ўзгартиради. Тилни билиш даражасини баҳолаш тил ва лингвистик компетенцияни аниқлаш учун тестларни ўз ичига олади, коммуникатив компетенцияни баҳолаш эса нутқ фаолиятини эгаллаганлик даражасини текширишни ўз ичига олади. Ушбу ваколатлар мактабда ўқишнинг барча йиллари давомида 1-синфдан 11-синфгача шакллантирилиши, ҳар бир компетенциянинг мазмуни эса 5-синфдан 11-синфгача рус тили фанининг исталган босқичида якуний назорат материалларида акс эттирилиши керак. Бошқача айтганда, ҳар қайси синфда рус тили якуний назоратнинг таркибий тузилиши бир хил: якуний иш уч қисмдан иборат бўлиб, уларнинг ҳар бири ўқувчиларда муайян компетенцияни шаклланганлигини текширади [2].

Рус тили фанининг якуний назорат имтиҳонининг шакли шундай тузиладики, у 4 компетенцияларни ҳар бири ўрта мактаб битирувчиларида қай даражада шаклланганлигини текшириш имконини беради.

Якуний назоратда уч турдаги топшириқлар қўлланилади: жавоби танланадиган топшириқлар, қисқа жавобли топшириқлар, батафсил жавобли топшириқлар. Жавоби танланадаган вазифаларнинг аксарияти ўқувчиларнинг қуйидаги тил компетентлигини: сўз тўғри ёки нотўғри ёзилганлигини, тиниш белгилари жумлага тўғри қўйилганлигини, шунингдек, қандайдир нутқ бирлигини тил нормасига мослигини (ёки мос эмаслигини) аниқлаш қобилияти текширади.

Жавоби танланадиган бир нечта вазифалар лингвистик компетенцияни – тил бирликларини аниқлаш ва уларни таснифлаш қобилиятини – ва

коммуникатив компетенцияни – баёотни тушуниш ва мантиқан матнни куриш қобилиятини текширади. Умуман олганда, жавоби танланадиган вазифалар рус тили фанидан баъзавий даражада билимини текширади.

Қисқа жавобли очик турдаги вазифалар асосан синалувчиларнинг лингвистик компетентлигини текширишга қаратилади.

Таҳлил қилиш учун жавоби танланадиган вазифаларга қараганда мураккаброқ тил материаллари таклиф этилади ва у ажратилган тил мисоллари (сўзлар, иборалар, жумлалар) шаклида эмас, балки матн материалида тақдим этилади.

Батафсил жавобли очик турдаги вазифа – бу тақдим этилган матнга асосланган иншо. Топшириқ ўқувчиларнинг коммуникатив ва маънавий компетенцияларини шакилланганлигини текширади, яъни амалий нутқ кўникмаларини ва мактаб битирувчилари монолог нутқига эгаллигини, ўз нуқтаи-назарини асосли ва саводхонлик билан ифодадай олишини текширади, бу нафақат ўқув фаолиятини муваффақияти учун, балки битирувчининг кейинги касбий таълими учун ҳам муҳимдир.

Машҳур олим-психолог М.М. Рубинштейннинг адолатли фикрига кўра, “янги мактаб биринчи навбатда янги ўқитувчи”. Замоनावий шароитда, жамият янги мактаб яратиш заруратига дуч келганда, ўқитувчининг муаммоси икки баробар, уч баравар, эҳтимол ўн баробар ошади [3]. Биринчи навбатда бу сўзлар, рус тили маданиятини сақлаб қолиш ва унинг бойликларини янги авлодларга етказиш учун катта масъулият юклайдиган, рус тили ўқитувчисига тегишли.

### Хулоса

Рус тили ўқув фани сифатида юз йилдан ортиқ вақт давомида мавжуд. Ўша давр педагогик муаммолар бугунги кунгача ҳам ўз аҳамиятини йўқотмади. Улар замонавий тил вазиятига, лингводидактик фан ҳолатига мос келади. Рус тилини ўқитиш мақсадлари – лингвистик, коммуникатив ва маънавий компетенция орқали белгиланади. Пировард мақсад шу компетенцияларга эга бўлган лингвистик шахсни тарбиялашдир.

### Адабиётлар

1. Антонова Е.С. Методика преподавания русского языка: коммуникативно-деятельностный подход: учеб. пособие. М.: КНОРУС, 2007. 464 с.
2. Обучение русскому языку в школе: учебное пособие для студентов педагогических вузов / Под ред. Е. А. Быстровой. М., Дрофа, 2004. 240 с.
3. Полат Е.С. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования: учеб. пособие для студ. высш. учебных заведений. М.: Академия, 2008. 368 с.
4. Обучение русскому языку в школе: учеб. пособие для студентов педагогических вузов / Под ред. Е.А. Быстровой. М.: Дрофа, 2004. 240 с.
5. Концепция модернизации российского образования на период до 2010 года. М., 2001.

## DISCOURSE AND ITS PRIVILEGE IN TEXT FORMATION

*Botirov Abdumalik Rejabovich*

*Andijon mashinasozlik instituti, Akademik litseyi ingliz tili fani o'qituvchisi.*

**Abstract:** The following article discusses the term discourse in deeper sense by emphasizing the advantages of this concept in construction of text. There is given the thoughts of different linguists whose majoring field lay around this topic. Authors also points out some discursive markers that help the communication be quite natural.

**Key words:** discourse, pragmalinguistics, concept, instantaneous, compiler, active, written, oral, speech.

The term "discourse" is one of the basic concepts of pragmalinguistics. What is the difference between pragmalinguistic discourse and the concept of speech, which is widely used in formal and structural (including substantial) linguistics? There are different views in linguistics in the interpretation of discourse. Most linguists try to explain discourse (French discourse, English discourse, Latin discursus - movement, continuous exchange, conversation) in terms of the process of speech activity and the style of speech [1].

Valuable ideas about the discourse were expressed by cognitive linguist Sh. Safarov. Regarding the problems of text and discourse, the scholar wrote: "If both text and discourse are the result of human linguistic activity, I doubt that it is possible to distinguish them only by the adjectives "oral" and "written" on the basis of appearance. Similarly, it is difficult to imagine one of them as a material phenomenon and the other as a phenomenon without this feature. After all, if both of these are the result of productive activity, then the achieved result must have a material appearance" [1].

We try to understand the discourse in a broader, but simpler way, based on the opinion of A. Kibrik, V. Plungyan, Sh. Safarov, "discourse is both a process and product of linguistic activity". Discourse, in our view, is a phenomenon that encompasses the process of written and oral speech, the system of communication or, in short, the speech activity of man. After all, "the text begins to be created as soon as the discursive activity takes place". If discourse is a certain type or series of human conscious activity, the text is a manifestation of it.

Hence, discourse is the process by which the speaker and the listener use the linguistic and non- linguistic means in the form and type in order to exchange ideas and influence each other. Discourse is a process, a type

of human activity. it is the occurrence of linguistic and hundreds of non-linguistic factors in a common way towards a unique goal. This is how discourse differs from the traditional notion of speech - under the notion of traditional discourse, usually, only the simple forms of the linguistic unit are understood [2].

- 1.Z.Nishonova B.Abdullayeva G.Boyqusinova "O‘smirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiya" Toshkent 2015.
- 2.Международный научный журнал 1«Новости образования: исследование в XXI веке» "Oilada ota ona va bola munosabatlar tizimi".
- 3."ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА УЗЛУКСИЗ КАСБИЙ РИВОЖЛАНИШ ЖАРАЁНИНИНГ ИЖТИМОЙ ВА ПЕДОГОГИК ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ" маколалар тупламидан.
- 4.Internet ma'lumotlari.

## BOLA TARBIYASIDA SINIF RAHBARINING ROLI.

*Shomurodov Mahkam Nizom o'g'li*  
*Samarqand viloyati Urgut timani 32-*  
*umumiy o'rta ta'lim maktabining Biologiya*  
*fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bola tarbiyasida e'tibor beriladigan jihatlar, muhitning ahamiyati, tarbiyada qadriyatlarning o'rnini, ota-onalarning tarbiyadagi ma'suliyati, sharq mutaffakirlarining tarbiya haqidagi fikrlari keltirilgan

**Kalit so'zlar:** tarbiya, muhit, bola, axloq, jamiyat, faoliyat, rivoj, ma'lumot, ta'lim, farzand, shaxs, avlod, qadriyat, dunyoqarash.

Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat yo-falokat masalasidir. ( Abdulla Avloniy )

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yigindisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qad. va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam vajamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning fakat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy ma'naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi. Yomon bola yoki bolalar bo'lmaydi. Lekin yomon o'qituvchi yoki yomon ota va ona bo'ladi. Farzand dunyoga kelar ekan undan beg'ubor inson bo'lmaydi. Xalq tilida "farishtadek beg'ubor" iborasi bejiz aytilmagan. Ana shu beg'ubor farishta umrini oxirigacha ana shunday qolsachi, yo'q unda hayotning mazmuni bo'lmaydi. Har bir ota-ona farzandini kamolini ko'rishni hohlaydi. Avallo tezroq ko'z qilishi, gapirishi, bog'chaga borishini, so'ngra maktabga bo'rishini, besh baho olishini, ustozdan rag'bat olishini xullas aytaversam adog'i yo'q. Har bir ota-ona farzandim hech kimdan kam bo'lmasin deb harakat qiladi. Lekin ota onalar bir xil bo'lmaganidek bolalar ham bir xil bo'lmaydi. Chunki bolalar o'sib ulg'ayish chog'ida ularni o'zlari yashab turgan muhit tarbiya qiladi. Ularni qanday yoki kim bo'lib voyaga yetishlarida ular yashagan muhit tarbiyachi vazifasini bajaradi. Tarbiyachilar yaxshi va yomon tarbiyachi bo'lganidek, muhit ham yaxshi va yomon muhitga bo'linadi. Yaxshi muhitda

yaxshi insonlar yetishib chiqadi,yomon muhitda yomon insonlar yetishib chiqadi degan fikrga odatlanib qolganmiz.To'g'ri muhit bolaga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.Lekin bolani muhit tarbiyaqiladi degan fikrga har doim ham qo'shilib bo'lmaydi. Qanday inson bo'lib shakllanish har kimni o'zigagina bog'liq.

Mirzo Ulug'bekning oila muhiti sog'lom avlodni yetishtirish haqidagi fikrlari shundan iboratki, alloma uqtirishicha, bolaning bilim olishga bo'lgan qiziqish, havasni oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o'rinni egallaydi. Oilada ota-onalar ayniqsa o'qimishli ota-onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishlariga alohida e'tibor berishlari lozim.Yaxshi oilada yetishib chiqqan yomon farzandlarni uchratganimizda hayron bo'lamiz. "Unga nima yetishmaydi ?"degan savol berib qo'yamiz ichimizda. Hech bir inson borib undan,hattoki ota-onasi, yaqinlari ham "Senga nima yetishmaydi?" degan savolni bermaydi.So'raganlari ham savolni noto'g'ri berishadi"Senga nima kerak, sen uchun hamma narsani muhayo qilib qo'ygan bo'lsam."degan ta'nalarni qilishadi. Bu ta'nalarni eshitgan bolada norozilik uyg'onadi, hayotga bo'lgan qiziqishi so'nadi.Ibn Sino bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarni bildirgan. Ibn sino bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida bolaning kamchiliklarini tuzatishga qodir ota-onadir. Axloqiy tarbiyada eng muhim vositalar bolaning nafsoniyatiga, gururiga tegmagan holda, yakkama-yakka suhbatda bo'lish unga nasihat qilishdir.Niholni parvarishlashda bog'bon unga qanchalik mehr va e'tibor ko'rsatsa, farzand tarbiyasida ham ana shunday ma'suliyat ta'lab etiladi. Yosh niholni parvarishlar ekansiz, uning vaqtida suvini, o'g'itini, yorug'ligini berish bilan birga zarur hollarda keraksiz shohlarini ham olib turishga to'g'ri keladi. Agar shunday qilmasangiz siz parvarishlayotgan niholdan siz kutgan natijani ololmaysiz.Men ish faoliyatim davomida har hil muhitda tarbiyalangan bolalarni ko'rdim. Lekin ularni yaxshi va yomonga ajratib emas, aksincha bir xil tarbiyalashga harakat qildim. Hozirda men qo'llagan usuldan tarbiya topgan bolalarni hayotda o'z o'rniga egaliklarini ko'rib xursand bo'lib ketaman. To'g'ri ular biror korxonani rahbari yoki oliy ma'lumotli bo'lib yetishmasliklari mumkin, muhimi jamiyatga foydasi tegadigan yaxshi insonlar bo'lib yetishsalar kifoya. Boshlang'ich sinfdan yuqori sinfga o'tganlaridan so'ng, ular orasida" a'lochi va ikkichi o'quvchi" degan tushuncha bo'ladi. Men birinchi o'rinda o'quvchilar ongidan ana shu tushunchani olib tashlashga harakat qilaman. Chunki a'lochi degani bu hamma narsani to'liq biladi hech qanday kamchiligi yo'q degani emas. Ikkichi degani hech narsani bilmaydi, umuman yaxshi tomoni yo'q desak adashamiz. Bizning vazifamiz har bir bolaga shaxs sifatida qaray olishimizda.Ular orasida ko'p maqtov eshitgan, tinimsiz rag'bat olib turgan o'quvchilar, har doim dakki eshitgan,o'rtoqlari e'tiboridan chetda qolgan o'quvchilar bilan tenglashtirilsa boshida xafa bo'lganlarini ochiqdan ochiq ko'rsatishadi. Bunday hollarda tarbiyachidan cheksiz sabr talab etiladi. Ko'proq e'tibordan chetdagi o'quvchilarni arzimagan yutug'ini yuqorilarga ko'tarib tez tez

maqtab turlsa , ularning hayotga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirgan bo'lamiz. Ular hech kimdan ko'rmagan e'tiborlarini sizdan ko'rganliklari bois siz ular uchun ideal insonga aylanasiz. Yaxshi o'quvchilar endi bunday "nohaqlikni" avval boshdan to'g'ri qabul qila olishmaydi. Lekin bunday vaziyatda siz mehr va e'tiboringizni to'g'ri taqsimlay olsangiz, siz albatta maqsadga erishasiz. Ular endi faqat maqtovlar eshitishga emas, balki o'z kamchiliklari xaqida ham bilishga ko'nikishlari zarur. Har bir sinfda bo'lganidek to'polonchi bolalarga dakki berishga shoshilmang. Ularni o'z holiga qo'ying, biroq siz bu vaziyatdan to'g'ri foydalanishingiz kerak. Siz ularni koyimay, ularni hammadan ortiq yaxshi ko'rishingizni, agarda kim ularni yomon o'quvchi deyishsa albatta ularni himoya qilishigizni, "sen yaxshi insonsan va shunday bo'lishga harakat qilyapsan" deb tez-tez eslatib turishingiz kerak. Ba'zida "quloqsiz " bolalardan shikoyat qilamiz. Mayli ular sizni aytganlaringizni o'z vaqtida bajarmas, buning uchun asabiylashmaslikka harakat qiling. Chunki ularga siz aytayotgan nasihatlar u uchun keraksizdek tuyuladi. Lekin vaqti kelib siz aytgan gaplarni mag'zini chaqadi va ularga amal qila boshlaydi. Ular o'zlarini ichidagini tashqariga chiqargilari kelmaydi. Tarbiyachida ana shu ichki kechinmalarni o'qiy oladigan qobilyat bo'lish kerak. Bolalar yo'l qo'yadigan xatolarni jazolashga shoshilmaslik kerak. Aksincha ularning yechimini topishga, xatolarni qanday to'g'rilash kerakligi xaqida yo'l yo'riq ko'rsatishingiz kerak bo'ladi. Bu hayotda hech bir inson mukammal emasligini, kamchilik va xatolar barchada uchrab turishini, lekin hayotda tuzatib bo'lmas xatolar ham borligini, hech qachon bunday xatolarga yo'l qo'yish inson hayotini yaxshilik sari olib bormasligini tushuntirish lozim. Ana endi har bir sinfda bo'lganidek —liderl o'quvchilar xaqida gaplashsak. Ular uchun hayotda har doim ularning aytgani bo'ladi, har bir inson unga so'zsiz bo'ysunadi deb o'ylashadi. Ular o'ylashmaydiki hayot har doim ham tekis rovon emas. Hayotda o'zidanham zo'rrog'i ya'ni unga bo'ysunmaydiganlar chiqib qolganda zo'ravonlik qilishga harakat qiladi. Zo'ravonlik har doim ham masalani hal qilmasligini ular tushunishmaydi. Siz ularga birinchi o'rinda muomala madaniyatini, ya'ni yaxshi so'z, yaxshi muomala har doim insonni o'z o'rnini topishiga yordam berishini tushuntirish zarur. Har bir insonni hayotda yashashdan maqsadi har doim o'z o'rniga ega bo'lish kerakligini tushunishlari lozim. Ular uchun ko'proq real voqealarga asoslangan voqeiy hikoyalar aytib berish yaxshi samara beradi. Ular ko'p kitob o'qimasliklari mumkin, ammo siz aytgan hikoyalarni sevib tinglashadi. Buning uchun siz ko'proq kitob o'qishingizga, ular beradigan savollarga tayyor turishingizga to'g'ri keladi. Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining Tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdur. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish. to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham

yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa, jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy intlar tizimiga ega bo'lishi kerak. Hayot insonga bir marta beriladi. Uni qanday yashash insonni o'ziga bog'liq. Hayot beshavqat. Uni yengib o'tish uchun temirdek mustahkam sabr, tog'dek bardosh va metin iroda kerak bo'ladi. Hayotda o'z o'rniga ega bo'lish esa har bir insonni o'ziga bog'liqdi

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A.N.Forobiy —Fozil odamlar shahril
2. A.Avloniy —Turkiy Guliston yoxud axloqll,
3. R.Mavlonova, N.Raxmonqulova, N.Voxidova, K.Matnazarova —Pedagogika (Umumiy prdagogika nazariyasi va amaliyoti)

## PISANI O'RGANISHNI SAMARALI USULLARI.

*Qarshiyev Nizom Shomurodovich*

*Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani 9-  
umum o'rta ta'lim maktabining Geografiya  
fani o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada PISA xalqaro baholash dasturi tadqiqotlari xulosasi va o'quvchilarni PISA-2021 tadqiqotiga tayyorlashda matematik savodxonlikni shakllantirishga oid uslubiy tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** PISA, savodxonlik, zamonaviy jamiyat, kompetentlik, baholash, PISA topshiriqlari va tadqiqotlari.

Globalashuv sharoitida shiddat bilan riojlanib borayotgan davr davlat va jamiyat oldiga dolzarbligi va qamrovi kun sayin ortib borayotgan zamonaviy talablarni qo'yimoqda. Olamshumul strategik maqsadlarga erishish, yangi marralarni zabt etish, rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olish uchun mamlakatda bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar, mutaxassislarning o'rni beqiyos. Bunday raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish zamirida inson kapitali, sodda qilib aytganda, inson, uning salohiyatini kashf etish hamda uni buyuk maqsadlarga erishishga safarbar qilish kabi ulug'vor vazifalar turadi.

PISA (inglizcha — Programme for International Student Assessment) – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur. Bu dastur 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llanilgan. Bu dastur bo'yicha har uch yilda o'quvchilarning bilimni baholash maqsadida sinovlar o'tkaziladi. Hozirgi kungacha jami 7 marta (2000, 2003, 2006, 2009, 2012, 2015 va 2018 yillar) PISA dasturi bo'yicha testlar o'tkazilgan bo'lib, oxirgi sinovlar shu yili bo'lib o'tdi.



PISA tadqiqotlarida qatnashgan davlatlar soni dinamikasPISA tadqiqotlarining ochiq topshiriqlarini atroflicha o'rganish, shu topshiriqlarga o'xshash yoki ularni yechishga yordam beradigan topshiriqlarni ishlab chiqishga qiziqqan mutaxassislar uchun mazkur qo'llanma munosib manba bo'lib xizmat qiladi. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, PISA topshiriqlari yetuk tajribaga ega bo'lgan xalqaro ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bunga o'xshash topshiriqlarni ishlab chiqish uchun tizimli va maxsus bilim talab etiladi. PISA topshiriqlariga qo'yiladigan talablarga ri-ya qilmasdan tuzilgan topshiriqlar o'quvchilarga yordam berish o'rniga, ularni chalg'itib qo'yishi ham mumkin. Shuning uchun PISA sinovlariga o'quvchilarni tayyorlash jarayonida asosiy e'tiborni alohida olingan PISA topshiriqlarini yechishga emas, balki ularni va ularga o'xshagan topshiriqlarni yechish uchun kerak bo'ladigan o'quvchilarning umumiy matematik tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

PISA sinovlarida to'rt xil sinov usulidan foydalaniladi:

- a) Bir javobli testlar;
  - b) Bir nechta javobli testlar;
  - c) Qisqa yoki batafsil javob yoziladigan savollar;
  - d) Biror muammoning yechimi bo'yicha o'quvchi fikri (odatda bunday savollarda tekshiruvchida umumiy javoblar bo'ladi, o'quvchi javobi test tuzivchi javobiga aynan mos kelishi talab qilinmaydi, o'quvchi ijodkorligi qo'llab quvvatlanadi). Bundan tashqari testlar bilan bir vaqtda o'quvchilardan anketalar ham olish nazarda tutilgan.
- Matematik savodxonlik – bir tomondan matematikani qo'llab masala yechishni, ikkinchi tomondan esa, matematik mulohaza yuritishni nazarda tutadi. PISA–2021 tadqiqotlarida matematik mulohaza yuritishga muammoni yechish siklining muhim ahamiyatli jihati sifatida katta urg'u beriladi. Matematik savodxonlik talqini va uni tashkil qiluvchi aqliy faoliyat turlari. PISA tadqiqotlarida o'quvchilarning matematik tayyorgarligini baholashda quyidagi uch jihatga alohida e'tibor qaratiladi:
- topshiriqlar o'quvchilarning kundalik hayotdagi qiziqishlari va ehtiyojlariga mosligi;
  - 2i– muammo mazmuni (kontekst)ning hayotiyiligi;
  - matematikani qo'llash bosqichlarining faqat ayrimlarini emas, balki barchasining to'liq qamrab olinganligi, ya'ni bu jarayonning bir qisminigina bajarish (masalan, tenglamani yechish, algebraik ifodani soddalashtirish) emas, balki masalani tushunish bosqichidan boshlab, unimatematik tilda ifodalash, yechish va yechimni talqin qilishgacha bo'lgan barcha bosqichlarida hammasi qamrab olingan.

**Xulosa qilib aytganda,** PISA topshiriqlarini yechish uchun matematikada chuqur bilim va ko'nikmalarni talab qilinmaydi. Lekin, o'zlashtirilgan muayyan bilim va ko'nikmalarni hayotiy vaziyatlarga qo'llashga juda katta e'tibor beriladi. Ularni fakultativ kurs (to'garak) mashg'ulotlarida ham muhokama qilish tavsiya etiladi. Shuningdek, matematika fanidan loyiha ishlariga ham alohida e'tibor qaratish lozim.



Bu loyiha ishlariga mavzu sifatida PISA topshiriqlari yoki ularga o'xshash kichik ilmiy ishlanishlarni talab qiladigan topshiriqlarni berish tavsiya etiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. PISA 2021 Mathematics Framework (first draft), 45th meeting of the PISA Governing Board, 23-25 April 2018 Stockholm, Sweden.
2. Board, 23-25 April 2018 Stockholm, Sweden.
3. Implementing the Proposed Mathematics Framework: Recommendations for PISA 2021, Peggy G. Carr, Ph.D., Vice Chair, PISA Governing Board Associate Commissioner,
4. National Center for Education Statistics (NCES) May 25, 2018.
5. A.A.Ismailov, N, Karimov, B.Q.Xaydarov, Sh. Ismailov, Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash, uslubiy qo'llanma, Toshkent, —Sharq nashriyoti, 2019-yil, 120 bet.
6. Ковалева Г.С., Красновский Э.А., Краснокутская Л.П., Краснянская К.А. Оценка знаний и умений. Международная программа PISA. Педагогическая диагностика. -М.: ЦОКО ИОСО РАО, 2002, №1.
7. 5. PISA. Matematik savodxonlik uslubiy qo'llanma. 2021-yil.

## XORAZMSHOH – ANUSHTEGINLAR DAVLATI JANG USULLARI VA SAN‘ATI TARAQQIYOTI.

*Qarshiyev Zarif Jovliyevich*

*Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani 9-  
maktabning ta'rix fani o'qituvchisi*

**Annotasiya:** Xorazmshoh – anushteginlar davlati tarixi umumiy holatda yetarlicha o'rganilgani holda, bu davlatning harbiy salohiyati, qurollanishi darajasi va harbiy jang usullari va shakllari, harbiy san'ati taraqqiyoti masalasi nihoyatda sust o'rganilgan masalalardan biri hisoblanadi. Bu davlat haqidagi turli davrlarda va turli tillarda yozilgan manbalarda mazkur mavzu yuzasidan juda qisqa ma'lumotlar berib o'tilgan xolos. Yozma manbalarda Xorazm harbiy san'ati haqida uzluq-yuluq ma'lumotlar mavjud bo'lib, Xorazm harbiy san'atini to'la to'kis ilmiy jihatdan o'rganish va tahlil qilish imkonini bermaydi.

**Kalit so'zlar:** Anushteginlar, jang usullari, o'rta asrlarlar, kurashlar, kamonchilar, qadimgi davrlar, Boburnoma, muqobil to'qnashuv, askarlar, mo'g'ullar, gurjilar, qamal, g'alaba, fathnoma, kamonchilar.

Arman va arab muarrixlari asarlarida Xorazm aholisi sifatli va zarbasi dahshatli kamon ishlab chiqarish sohasida butun Sharqda mashhur bo'lganlar. Al- Muqqadasiy ma'lumotiga ko'ra, Xorazmda tayyorlangan kamon o'qini faqat kuchli kishilar ishlata olganlar xolos.

O'rta asrlarlarda Xorazm davlati qo'shni dasht qabilalari bilan urush holatlarida bo'ldi.

Al Makdisiyning (985–1000) «Axsan at takasim fi ma'rifat...», al Istaxriyning (930–933) «Kitab masolik al mamolik» asarlarida xorazmliklarni «qo'nqmas va botir jangchilar, qo'shni o'g'iz qabilalari bilan muvaffaqiyatli urush olib boradilar», deb ta'rifaydilar

Buning oqibatida turli tarixiy davrlarda xorazmliklarning qurol-aslaha va harbiy texnika sohasidagi bilimlari shakllandi va siyosiy vaziyatlarda takomillashib borgan. Buni yozma manbalar ta'kidlaydi. Voha harbiy sohasining kuchaygan davri Xorazmshohlar-Anushteginiylar sulolasi vaqtiga to'g'ri keladi (1097–1231). Mustaqillik uchun kurashlar, davlat chegaralarini kengaytirish, bosqinchilarga qarshi kurash Xorazm davlatining jangovorlik ruhiyati va holatini oshirib, harbiy qurol, texnik vositalarining yanada takomillashishiga olib kelgan. Muhammad an Nasaviyning (vafoti 1249 yil) «Sirat us-sulton Jaloliddin Mankburni», Alovuddin Otamalik al Juvayniyning (1226-1283) «Tarixi jahongushoy» asarlarida qilich, xanjar, nayza, kamon va kamon o'qi kabi oddiy qurollardan tashqari, Xorazmda mudofaa va

hujumlarda manjaniq (katapulta), dabbabat (taran vositasi), tir-charx (arbalet), mataris, salalim kabi harbiy texnik vositalardan foydalanilganligi aytiladi

Bu vositalarning ko'pchiligi temir, yog'och va charmdan hunarmandlar tarafidan tarixiy taraqqiyot talablariga mos holda takomillashtirilib ishlanib borildi. Qadimgi davrlardagidek, o'rta asrlarlarda ham o'q-yoylar (kamon), nayza, xanjar, qilich, qalqon va sovut qurol-aslahaning asosini tashkil qildi.

Ilk o'rta asrlarlarga kelib Xorazm kamoni Yevroosiyoda, jumladan, Sharq elatlarida ma'lum bo'ldi. O'rta asrlar manbalari ma'lumotlarida (Movses Xorenasi – VIII asr, al Makdisiy, «Hudud al-olam» – X asr) Xorazmdan tashqi savdoga ajoyib kamonlar chiqarilgani ko'rsatiladi. Al Makdisiy yozishicha, Xorazm «kamonlarini faqat eng kuchli kishilargina torta olishi mumkin». «Hudud al- Olam» muallifi «Urganch aholisi botir jangchilar va mohir kamonchilar sifatida ulug'lanadi», - deb ta'kidlagan

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) o'z «Boburnoma»sida: «Ular (xorazmliklar) mohir kamonchilarki, o'qlari biror marta ham qalqon va sovutni teshib o'tmay qolmaydi, hattoki ikkita sovutni ham», - deb yozgan

Savdogar Antonio Jenkinson (1558 yil) ham Xorazm kamonlarini yuqori ta'riflagan

Xorazm o'rta asrlar qurolsoz hunarmandlar tayyorlagan mahsulotlarning yana biri otliq askarlarga mos ishlangan, yaqin masofadan zarba berish quroli nayzalar bo'lgan. U ham juda qadim zamonlardan ma'lum. Al Makdisiy Xorazmga Volga bo'yi Bulg'oriyasidan «kamon o'qi, xanjar, sovutlar «olib kelganini» yozadi. Lekin, Xorazmda mahalliy hunarmandlar tomonidan ham mudofaa qurollari tayyorlanishi mumkin edi. Bu o'sha muallifning «kuchli odamlar foydalanishi mumkin bo'lgan o'q-yoylar (kamon)» Xorazmdan chiqarilib sotilganligi bunga yana bir isbotdir

Xorazmda o'rta asrlarlar jarayonida qurollar hujum va mudofaa harakterida bo'lib, uning funksiyasi va ishlatilishi harbiy ishlar, urushlar harakteri va yo'nalishlariga qarab o'zgarib borgan. Xorazmshohlarning qo'shni hududlarga harbiy yurishlari davomida qo'shin yangi zamonoviy takomillashgan qurollarga ega bo'ldi. Zakariyo al Qazviniy (XIII asr) ta'kidlagandek, «Gurganj aholisi mohir hunarmandlar, ayniqsa, temirchilar va duradgorlar» bo'lgan. Ya'ni hunarmandlarning bir guruhi qurol-aslahalar bo'yicha ixtisoslashgan. Rashididdin Vatvot (1114–1191) «Majma-ar-rasoyil» asarida Xazoraspda «yashovchilar mudofaa burji ostida tug'ilgan, bolaligidan nayza va qilich bilan oziqlangan» degan ma'lumoti ham bizning fikrimizni tasdiqlaydi. Xorazm elatlari aholisi qurol-aslahalarni tayyorlashda bir qancha bosqichlardan o'tgan. Qurol aslahalarning qadimgi va o'rta asrlarlarda takomillashuvi davlatchilik siyosati bilan bog'liq bo'ldi. Xorazmshohlar-Anushteginiylar davlati zamoni harbiy salohiyati va qurol aslahalariga muhtojligi hunarmandchilikning temirchilik yo'nalishi rivojlanishining bir omili bulib, uni yuqori cho'qqiga ko'tardi

Xorazmshoh – anushteginlar davlatida harbiy jang usullari va shakllari, harbiy san‘ati taraqqiyoti masalasi ham sust o‘rganilgan masalalardan biri hisoblanadi. Xorazmshoh – anushteginlar davriga kelib ham jang shakllari ilgarigi an‘anaviy tarzda: maydon jangi, qurshovga olish va muqobil to‘qnashuv tarzida uch xil bo‘lgan. Muqobil to‘qnashuv kichikroq miqyosdagi maydon jangidir. Xorazm shohlarining hujum qiluvchi va mudofaa qiluvchi qo‘shinlarini jang vaqtidagi harakat tartibi quyidagicha bo‘lgan: oldingi qism – o‘ng qanot – markaz – chap qanot – ortki qism (aryergard) va o‘rab oluvchi qism (muqaddama yoki yozoq) – maymana – qalb – maysara – (muaxxara va xafiya). Har 10 ming kishilik guruh ketidan askarlarning oilalari yurar edi, chunki ko‘p janglarda ayollar (xotin) qurol-aslaha taqib qatnashar edilar. Alouddin Tekesh, uning o‘g‘li va Jaloliddin maydon va muqobil janglarda o‘z qo‘shinlarini an‘anaviy bir shaklda, ya‘ni o‘ng, markaz va so‘l qanotga saflagan. Markazga sultonning o‘zi qo‘mondonlik qilgan. Markaz odatda gvardiya qo‘shinlaridan iborat edi. O‘ng va so‘l qanotlarga xon, malik va amirlar qo‘mondonlik qilishardi. O‘ng va so‘l qanotlar har holda viloyat qo‘shinlaridan tashkil topar edi. Aksariyat hollarda markazda suvoriylar, o‘ng qanotda kamonchilar, so‘l qanot piyodalar joylashar edi. Jang vaqtida sulton atrofidagi xos g‘ulomon bilan oldingi safda urishardi. Bir jangda sulton dushman kiyimlarida bo‘lgan, qo‘shinidan ayrilgach, dushman qarorgohida bir necha kun turib, keyin qochib qutulgani ma‘lum

Bir-biri bilan dushman bo‘lgan xorazmliklar va mo‘g‘ullar bir-birining jang tarzini qabul qilmaganlar. Xorazmshoh qo‘shinlari klassik tartib va taktika asosida jang qilgan. Mo‘g‘ullar esa qismlarini o‘zlarining maxsus jang uslubida ikki qator tizgan holda urushganlar. Xorazmliklar maydon janglarida ham, muqobil janglarda ham pistirma qo‘ygan.

Masalan, Qushtemur qo‘mondonligi ostidagi xalifa qo‘shinlari bilan bo‘lgan jangda Jaloliddin bir qancha hujumdan keyin go‘yo qochgan, dushman esa quvlagan. Natijada dushman pistirmaga tushgan. Jaloliddin mo‘g‘ullar bilan bo‘lgan janglarda ham pistirma qo‘ygan. Jaloliddin jangning bosqin shaklini ko‘proq Hindistonda qo‘llagan. Bunda har holda askarlarning soni kam bo‘lganligi, keskin harakat qilish va to‘satdan hujum o‘z rolini o‘ynagan bo‘lishi mumkin. Dushman qo‘shini bilan ro‘para kelgan sulton dushmanning kuch-quvvati, uning armiyasi qanday tashkil topganini yaxshi o‘rganar va quvvatini diplomatik yo‘llar bilan parchalashga harakat qilardi. Masalan, gurjilar bilan bo‘lgan janglardan birida dushman safida qipchoqlar borligini bilgach, sulton ularga non-tuz yubordi. Natijada qipchoqlar jang maydonini tashlab ketdilar. Xorazmliklar qamal paytlari manjanaq, devor teshar qurollar va neft moyi ishlatgan. Qamal uzoq davom etgudek bo‘lsa, sulton o‘z qo‘shinlarini qal‘a atrofida doira shaklida joylashtirar, shahar atrofida uylar qurdirardi. Galabadan so‘ng sultonning «fathnoma»si yozilib, barcha hududlarga tarqatildi.

**Xulosa** sifatida shuni ta'kidlashimiz lozimki, Xorazmshoh – anushteginlar davlatining harbiy salohiyati, qurollanishi darajasi va harbiy jang usullari va shakllari, harbiy san'ati taraqqiyoti o'z davri uchun eng ilg'or tizimlardan biri hisoblanib, aynan shu jihat uning jahon imperiyasi darajasidagi davlat bo'lib shakllanishida eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR:**

1. Allamberganov M. Istoriya voyennogo dela v nizovyax Oksa i Yaksarta. – Tashkent: Izd-vo Nasionalnoy biblioteki im. A.Navoi, 2008. – 188 s.
2. Antonio Djenkinson. Puteshestviye v Srednyuyu Aziyu 1958-1959 gg. // Angliyskiye puteshestvenniki v Sredney Azii. – M.: Nauka, 1937. – 308
3. Bartold V.V. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya // Soch. T. 1. – M.: Vost.lit., 1963. – S. 197-425.
4. Buniyatov Z. M. Gosudarstvo Xorezmshaxov-Anushteginidov (1097-1231). – M.: Nauka, 1986. – 248 s.
5. Zaxiriddin Muhammad Bobur. Boburname / Per. M. Salye. Obshaya red. S. A. Azimdzhanovoy. – Tashkent: Glavnaya redaktsiya ensiklopediy. 1993. – 463 s.

## UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINI MATEMATIKA DARSLARIGA QIZIQTIRIB O'TISH YO'NALISHLARI

*Bozorova Zarina Yorqinovna*

*Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi*

*302-umumta'lim maktabining*

*matematika fani o'qituvchisi*

*e-mail: [byzarina@mail.ru](mailto:byzarina@mail.ru)*

**Annotatsiya:** *Maqolada umumta'lim maktab o'quvchilarini matematika darslariga qiziqtirib o'tish yo'nalishlari tadqiq qilingan. Pandemiya davrida barcha davlatlarda kasb egalari masofadan turib ishlashni yo'lga qo'ydi, maqolada buni inobatga olgan umumta'lim maktabi o'quvchilarini kasbga yo'naltirishni amalga oshirish modeli ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *matematika, algebra, loyiha, algoritm, choraklar, baholash me'zonlari, pedagogik usul, kasbiy bilim, kasbga yo'naltirish, formula, model.*

**Аннотация:** *В статье рассматриваются способы заинтересовать старшеклассников математикой. Во время пандемии профессионалы во всех странах начали работать удаленно, и в статье была разработана модель внедрения профориентации для учащихся средних школ.*

**Ключевые слова:** *математика, алгебра, проект, алгоритм, кварталы, критерии оценки, педагогический метод, профессиональные знания, профориентация, формула, модель.*

**Annotation:** *The article discusses ways to interest high school students in mathematics. During the pandemic, professionals in all countries began to work remotely, and the article developed a model for the implementation of vocational guidance for secondary school students.*

**Key words:** *mathematics, algebra, project, algorithm, quarters, evaluation criteria, pedagogical method, professional knowledge, career guidance, formula, model.*

O'zbekistonda raqobatbardosh milliy kadrlar tayyorlash tizimini bunyod etish, matematik bilimlarni turli fan sohalari va texnikada qo'llashning juda keng imkoniyatlarini ochib berish, ta'lim, fan va ishlab chiqarishni samarali integratsiyalashuvini ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlar umumta'lim maktablari bitiruvchilariga muayyan kasbga umumta'lim fanlar orqali yo'naltirish yondashuvlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu borada umumta'lim maktab o'quvchilarini matematikani o'qitishda amaliy mazmundagi masalalardan

foydalanib kasbga hamda hayotga yo'naltirish imkoniyatlarini aniqlashtirish, o'quvchilar uchun qiziqarli darslarni loyihalash mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa matematika darslarini qiziqali, hayot bilan chambarchas bog'lab va yangi metodlar orqali metodologiyasini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, matematikani yaxshi o'zlashtirgan o'quvchining tahliliy va mantiqiy fikrlash darajasi yuqori bo'ladi. U nafaqat misol va masalalar yechishda, balki hayotdagi turli vaziyatlarda ham tezkorlik bilan qaror qabul qilish, muhokama va muzokara olib borish, ishlarni bosqichma-bosqich bajarish qobiliyatlarini o'zida shakllantiradi. Shuningdek, matematiklarga xos fikrlash uni kelajakda amalga oshirmoqchi bo'lgan ishlar, tevarak-atrofdagi sodir bo'layotgan voqea-hodisalar rivojini bashorat qilish darajasiga olib chiqadi.

Matematikaning hayotimizda tutgan beqiyos o'rnini inobatga olingan holda mazkur fan birinchi sinfdanoq maktab darsliklariga kiritilgan bo'lib, yurtimizda barcha aniq fanlar qatori matematika ta'limini zamon talablari asosida takomillashtirib borish, uni o'qitishda eng so'nggi pedagogik va innovatsion usullar, multimedia vositalari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, o'quv fanini akademik bilim berishdan ko'ra ko'proq hayot bilan bog'lash, amaliy misol va masalalarni yechish, o'quvchilarni mustaqil izlanish, o'qib-o'rganishga jalb etishning ahamiyati beqiyos. Dars jarayonida o'quvchi o'zini majburan partaga mixlab qo'yilgandek his etmasligi, aksincha, mashg'ulotlarda katta ishtiyoq, kuchli xoxish bilan qatnashishiga erishish lozim.

Matematika – yoshligimizdan tanishishni boshlaydigan keng ilmlar majmuidir. Shu sabab ham uning umumta'lim maktablarda birinchi sinfdan dars sifatida o'qitilishi bejiz emas. Axir umumiy matematik bilimlarsiz zamonaviy dunyoda judayam nochor hamda ishonchsiz bo'lib qoladi, inson. Xuddi ilmlar qirolichasiz kimyo, fizika, tibbiyot va boshqa ko'plab fanlar mavjud bo'lmagani kabi, ya'ni matematika bilan barcha fanlar chambarchas bog'liqdir.

Matematikadan amaliy mazmundagi masalalar tizimini tuzish tamoyillari belgilab berilishi va amaliy mazmundagi masalalarga qo'yiladigan talablar majmuasi hamda matematikadan amaliy mazmundagi masalalarni yechishni o'rgatish orqali umumta'lim maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish metodikasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Amaliy mazmundagi masalalar, ularni tuzish va tanlash tamoyillari hamda unga qo'yiladigan asosiy talablarni ishlab chiqish lozim. Shunga asosan matematikadan amaliy mazmundagi masalalarni tuzish usullari va qoidalar tavsiya etilishi zarur.

Umumta'lim maktablarda matematika fanini o'qitishning kasbiy yo'nalganligini amalga oshirishga qaratilgan metodik tizim uchun amaliy mazmundagi masalalarni tanlash tamoyillari ko'rsatib o'tamiz. Bular esa quyidagilar:

1. Ishchilarning, mutaxassislarning ish faoliyati turlarini hisobga olish.

2. Ishlab chiqarishdagi (qurilish, qishloq xo'jalik, sanoat va boshqalar) ishlab chiqarishlarning ehtiyojlari uchun matematikaning amaliy ahamiyatini ochib beruvchi kasbga yo'naltiruvchi materiallarni tanlash.

3. Asosiy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga yo'naltirilgan amaliy mazmundagi masalalarni tanlash.

4. Amaliy mazmundagi masalalarni tuzishda o'quvchilarning individual (hamda psixologik) xususiyatlarini va amaliy bog'lanishlarni amalga oshirish bosqichlarini e'tiborga olish (masalan, shartni matematik belgilashlar bilan ifodalash va yechish uchun reja tuzish).

5. Ishlab chiqarish mazmunidagi masalalarga qo'yiladigan talablarni hisobga olish (ya'ni uning kundalik hayotga mos bo'lishini, haqiqatga mos bo'lishini e'tiborga olish).

6. Fanlararo amaliy mazmundagi masalani yechishda amalga oshiriladigan maqsadlarni hisobga olish (yangi materialni o'rganishda boshqa fanlar bilan bog'liqligini va o'rganilgan fan materiallari yordamida uni mustahkamlash).

7. Matematika materiallarini bayon qilishda ketma-ketlikka rioya qilish.

8. Amaliy mazmundagi masalalarni ilmiylikini, fan va texnikaning rivojlanishdagi ahamiyatini va uning haqiqatga mosligini e'tiborga olish.

Amaliy mazmundagi masalalar quyidagicha tizimga solinishi lozim:

- matematika fani mavzulari bo'yicha tanlanilishi zarur;
- har bir mavzu bo'yicha masalalar qism tizimini tashkil qiladi;
- har bir qism tizimida fanlararo amaliy mazmundagi masalalar hayot turmushning (ishlab chiqarishning) matematik bilimlari tadbiq etiladigan mavzularini o'rganish ketma-ketligiga bog'liq ravishda joylashtiriladi;

- qism tizimidagi amaliy masalalarning jami soni darsda, uyda, mustaqil va nazorat ishlarini bajarish uchun zarur bo'ladigan masalalar soni bilan aniqlanadi;

- qism tizimlarning joylanish ketma-ketligi tezligi umumta'lim makatbi matematika o'quv dasturi mavzularini o'rganish tartibi bilan aniqlanadi.

Tajribamizning ko'rsatishicha, amaliy mazmindagi masalalar matematika mavzularini mustahkamlashda, kasb bilan bog'liq masalalarni yechishda matematik bilimlarni tatbiq etish bo'yicha amaliy bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyaviy yondashuvlarni shakllantirgan holda yechish maqsadga muvofiq ekanligini va samara berishini ko'rsatdi.


Matematika dars jarayonini loyihalash algoritmi.

Taklif etilayotgan loyiha tuzish bosqichlari va bajariladigan amallar:

1. Umumta'lim maktablarida o'qitiladigan darsni bir butun deb qarab, uni mazmun va hajmi jihatidan o'rta choraklarga ajratish hamda maqsadlarini belgilash.



2. Maqsadlarning amalga oshishidan shaklanadigan ko'nikmalarning majmuasini tuzib chiqish.
3. O'rta chorak tarkibidagi kichik choraklarning maqsadlarini aniqlash va ularga ajratilgan vaqtni belgilash.
4. Choraklardagi tayanch tushunchalar va nazorat savollarini aniqlash.
5. Baholash me'zonlarini to'g'ri belgilash.
6. O'rta chorakda qo'llaniladigan dars turi tipi hamda qo'llaniladigan pedagogik usul va uslublarni aniqlab ishlatadigan joylarni belgilash.
7. O'qitish jarayonida foydalaniladigan axborot texnologiyalari ko'rgazmali qurollar va boshqa didaktik materiallar zarrasi ichidan muayyan chorakda foydalaniladiganlarini topib, qo'llanish joylarini aniqlash.
8. O'rta chorak mazmuni va o'qitish jarayonining borishini ifoda etuvchi chorak matnini yozish.



1-rasm. Matematika darslarida umumta'lim maktabi o'quvchilarini kasbga yo'naltirishni amalga oshirish modeli

Ularda, matematikaning turmushdagi, xalq xo'jaligidagi ehtiyojlari, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradigan hamda amaliy ahamiyatini ko'rsatadigan, o'quvchilarni kasbga yo'naltirishiga katta ahamiyat beriladi.

Maqolaning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, matematikadan amaliy mazmundagi masalalarni o'qitish orqali umumta'lim maktabi o'quvchilarni kasbga yo'naltirish modelini yaratish jarayoni umumta'lim maktabi o'quvchilarini kasbiy yo'nalganligini amalga oshirishga qaratilgan matematikadan amaliy mazmundagi masalalar majmuasini tuzish, tanlash tamoyillarini (ilmiylik, bila olishlik, ko'rgazmalilik, tizimlilik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi) belgilash va amaliy mazmundagi masalalarga qo'yiladigan talablari, natijalari shakllantirildi (1-rasm).

Umumta'lim maktablarida amaliy mazmundagi masalalarni o'rgatish orqali o'quvchilarni kasbga yo'naltirishni amalga oshirish haqidagi mazkur maqolaning nazariy konsepsiyasi qoidalari, maqolaga qo'yilgan gipotezaning to'g'riligini tasdiqlagan tajriba sinov natijasi matematika darslarida texnika, iqtisodiyot va boshqa hayotiy mazmundagi fanlararo amaliy mazmundagi masalalarni yechishga o'rgatishning ushbu metodikasini taklif etish imkonini beradi.

Natijada, kichik mutaxassisning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda va kasbiy tajribalarining oshishida dars mashg'uloti, matematikaning amalda, hayotda ishlab chiqarish amaliyotlarining o'rni oshiriladi. Ushbu tadbirlarni tashkil etishda amaliylik asosiy mezon qilib olinadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarimizni tasdig'i sifatida Prezidentimizning 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-soni farmoni bunga yaqqol misol. Bunda xalqaro tajribani joriy qilish maqsadidagi fikrlar chuqur bayon qilingan hamda buni amaliyotga tadbir qilish lozimligini ta'kidlamoqchimiz.

## II. XULOSA VA TAVSIYALAR

Hozirda butun dunyoda koronavirus pandemiyasi davrida darslarni samarali tashkil etish juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham, masofadan turib darsni tashkil qilish faqatgina zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidadir. Shuning uchun ham bu holatni yanada samarali tashkil etish muhim hisoblanadi. Pandemiya davridan oldin darslarni tahlil qilish jarayonida bir qancha kamchiliklarni kuzatish mumkin edi.

Darslar aniq maqsad asosida kuzatilishi va tahlil qilinishi lozim. Shundagina natijasi samarali bo'ladi va o'quv jarayoni yuzasidan aniq xulosa chiqarish imkonini beradi. Dars tahlilida tizimsizlik, aniq bir maqsadning yo'qligi, darsga tasodifan qatnashish, darsni chuqur tahlil qila olmaslik, o'qituvchiga amaliy yordam ko'rsata olmaslik esa darslar sifatining va saviyasining pasayib ketishiga olib keladi.

Yuqoridagi malaka ishida berilgan ishlarni birlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Hozirgi butun dunyodagi pandemiya davri shuni ko'rsatdiki, bizning moddiy texnik bazamiz, internet tezligi, chekka-chekka qishloqlarda internetning yetib bormaganligi va boshqa qator sabablarning borligi uchun ham masofaviy ta'lim darsini jonlantirish og'ir kechmoqda.

2. Moddiy texnik bazalari mavjud hududlar ham aniq bir dastur ishlab chiqib, shu dastur asosida masofaviy ta'limni yo'lga qo'ya olmagan.

3. Toshkent shahrida o'qituvchi va o'quvchilarni masofaviy ta'lim orqali bog'lanishning *kundalik.com* dasturi yaxshi yaratilgan, ammo internetning tezligi inobatga olinmagan. Ya'ni unga yuklanadigan fayllar hajmi chegaralangan.

4. Matematikadan amaliy mazmundagi masalalarning loyihasini tuzib chiqish va zamonaviy texnologiya uslubi va usullair asosida o'qitish.

5. Matematikadan amaliy hamda kasbga yo'naltirilgan mazmundagi masalalarni tuzish qoidalariga rioya qilish.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli farmoni. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli farmoni. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

3. Algebra: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik/ Sh.A.Alimov, A.R.Xalmuxamedov, M.A.Mirzaxmedov. – 4-nashri. – Toshkent: "O'qituvchi" NMIU, 2019. – 240 b.

4. Algebra: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik/ Sh.A.Alimov, A.R.Xalmuxamedov, M.A.Mirzaxmedov. – 4-nashri. – Toshkent: "O'qituvchi" NMIU, 2019. – 240 b.

5. Mirzaxmedov. – 4-nashri. – Toshkent: "O'qituvchi" NMIU, 2019. – 240 b.

6. Pogorelov A.V. Geometriya. O'rta maktabning 7-11-sinflari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 1991 y. – 368 b.

7. Haydarov B.Q. XTXQTMOHM matematika fani o'qituvchilari uchun "Matematika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv".T.: 2019. O'quv uslubiy majmua.

8. Haydarov B.Q. XTXQTMOHM matematika fani o'qituvchilari uchun "Matematika fanini o'qitish metodikasi".T.: 2019. O'quv uslubiy majmua.

9. Yunusova D.I. Ta'lim texnologiyalari asosida matematik ta'limni tashkil etish. T,"Universitet" 2005y.

10. <http://uzedu.uz/> – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi rasmiy sayti.

## SO`ZLARNING TUZILISHIGA KO`RA TURLARINI O`RGATISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH YO`LLARI

*Tangriyeva Umida Allaberganovna*

*Urganch davlat universiteti akademik litseyining  
ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi*

**Kalit soʻzlar:** sodda soʻzlar, juft soʻzlar, qoʻshma soʻzlar, takroriy soʻzlar, yaqin maʼnoli soʻzlar, zid maʼnoli soʻzlar, fonetik yozuv, morfologik yozuv, yangi soʻz hosil qilish.

Bugungi kunda ona tili va adabiyot mashgʻulotlarida yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanish samara bermoqda. Har bir mavzuga interfaol metodlarni tatbiq qilgan holda dars oʻtish modulini yaratish pedagoglardan yuqori kasbiy mahorat talab qiladi. Sir emaski, oʻquvchilarning fikrlash qobiliyatlarini oʻstiruvchi, qiziqishini oshiruvchi metod va usullar, vositalar yildan yilga takomillashtirilmoqda. Muammoli oʻqitish kabi juda foydali va zarur taʼlim jalb etilmoqda. Bolalarni mustaqil faoliyatga testlar asosida oʻrgatish ishlari keng qoʻllanmoqda.

Ona tili darslarida soʻzlarning tuzilishiga koʻra turlarini oʻrgatishni samarali tashkil etishni quyidagicha koʻrsatish mumkin:

Mavzu: Soʻzlarning tuzilishiga koʻra turlari

Darsning borishi(tashkiliy qismdan soʻng) :

**1-bosqich.** Oʻqituvchi darsning boshlanishida oʻquvchilarni qurʼa tashlash asosida uch guruhga boʻladi. Guruhlarga nomlar belgilanadi. Har bir guruh oʻzi uchun shior tanlaydi.

**2-bosqich:** Yangi mavzuni oʻrganishni boshlashdan oldin oʻquvchilarning shu yoʻnalishdagi mavjud bilimlari, ehtiyojlarini aniqlash va motivatsiyani vujudga keltirish uchun ogʻzaki shunday savol-javob tashkil qilish mumkin:

1. Juft soʻzlar haqida maktabda nimalarni oʻrgangansiz? Eslashga harakat qilaylik-chi!?
2. Qanday soʻzlar sodda soʻzlar hisoblanadi?
3. Qanday soʻzlar juft soʻzlarni hosil qiladi?
4. Juft soʻzlar qanday yoziladi? Takror soʻzlar-chi? Qoʻshma soʻzlar-chi?
5. Takror soʻzlar qatnashgan sheʼriy misrami, maqolmi bilasizmi?
6. Juft soʻzlarning takror soʻzlardan farqini eslaysizmi?

**3-bosqich:**

**1-ish.** Yangi mavzuni oʻqituvchi slaydlar yordamida kichik maʼruza shaklida olib boradi. Unda soda, juft, qoʻshma va takror soʻzlarning tuzilishi, qanday soʻzlardan

hosil bo'lishi, ma'nolari, yozilishi haqida gapiriladi. Ma'ruza matni kompyuter slaydlari asosida ilova qilib boriladi.

**2-ish.** Kichik guruhlarda ishlash. 1-guruh takror so'zlarga, 2-guruh juft so'zlarga, 3-guruh qo'shma so'zlarga bittadan misol yozib chiqadi.

**3-ish.** Guruhlarning taqdimoti va o'qituvchining mavzu bo'yicha asosiy xulosalarini e'lon qilishi. (*Slaydlar asosida*).

**4-bosqich:** Yangi mavzuni mustahkamlash uchun kichik guruhlarda tinglovchilar mustaqil test ishlaydi. Shu o'rinda test materiali tarqatiladi. So'zlarning tuzilishiga ko'ra turlariga aloqador quyidagicha testlardan kichik guruhlar bilan ish yuritganda foydalanish mumkin:

### 1-kichik guruh uchun

1. Qaysi qatorda sodda tub otlar berilgan?
A) kitob, otboqar, mingoyoq
B) uzun, keng, ulug`vor
C) bolalar, maktab, odam
D) insonni, guldon, men
2. Juft o`rin-joy oti berilgan qatorni toping.
A) qir-adir
B) ota-ona
C) dori-darmon
D) xayr-ehson
3. Qaysi turkumlarga oid juft so'zlar asosan antonimlardan hosil bo'ladi?
A) fe'l
B) ot
C) sifat
D) son

### 2-kichik guruh uchun

1. Bir-biriga yaqin yoki qarama-qarshi asosdan tarkib topgan otlar ..
A) qo'shma otlar
B) juft otlar
C) takror otlar
D) qisqartma otlar
2. Juft sifatni toping.
A) opa-singil
B) tinch-totuv
C) erta-kech
D) yurish-turish

3. Takroriy ot berilgan qatorni toping.
A) non-pon
B) yangi-yangi
C) yo`l-yo`l
D) yelpib-yelpib

### 3-kichik guruh uchun

1. Otdan yasalgan juft sifat qatnashgan gapni toping.
A) Shoirning bolaligi alg`ov-dalg`ov davrlarga to`g`ri keldi.
B) Menga o`xshash esli-hushli yigitga zoriqib o`tirgan ekan.
C) Menga oq-qora iplarni uzatib yubor.
D) So`roq-savollaringiz bo`lsa, marhamat?!
2. Juft fe`lni toping.
A) aytdi-qo`ydi
B) tinch-totuv
C) oq-qora
D) bog`-chaman
3. Qaysi qatorda sodda yasama otlar berilgan?
A) bog`bon, sinfdosh, ashulachi
B) tuzdon, amakivachcha, sinf
C) yaxshilik, ezgu, maktab
D) bolalar, sinfxona, makkajo`xori

#### 5-bosqichda:

So`zlarning tuzilishiga ko`ra turlari ishtirok etgan she`riy parchalar mushoirasi o`tkaziladi.

**6-bosqich: Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar (uyga vazifa):** O`quvchilar slaydda berilgan so`zlarni yozib olib, ular ishtirokida juft so`zlar hosil qiladilar, so`ngra ularni qatnashtirib to`rttadan gap tuzishadi.

Litseyda o`quvchilarning nutqini o`stirishda eng yaxshi vositalardan yana biri aniq bir mavzuda suhbat uyushtirishdir. Bunday suhbat davomida o`quvchilarning bilim va tasavvur doirasi, ularning ko`proq nimalarga qiziqishi aniqlanadi.

Suhbat, birinchidan, o`quvchilarni so`zlarni o`z o`rnida qo`llashga, gapni sintaktik jihatdan to`g`ri tuza bilishga o`rgatadi, grammatikani puxta o`zlashtirishga zamin hozirlaydi. Ikkinchidan, fikrni tartib bilan bayon etishga, narsa-voqealarni to`g`ri tasnif qila bilishga imkon yaratadi. O`quvchi tafakkurini o`stiradi. Uchinchidan, predmetlarning nomini, sifatini, ish-harakatlar nomini bilib olishga, so`zlarni to`g`ri talaffuz qilishga o`rgatadi, lug`atini boyitadi.

O'quvchilarning nutqi bilan chuqur tanishishda savol-javob metodi juda qo'l keladi. Bunda o'qituvchining savoli avvaldan puxta o'ylangan, sodda qurilgan bo'lishi lozim.

Litsey o'quvchilarining idrok qilish va eslash qobiliyati kuchli bo'ladi. Shuning uchun bu davrda bolalarga mumkin qadar ko'proq bilim va malaka berish kerak. Jumladan, uning nutqini boyitishga ham alohida ahamiyat berish zarur.

O'quvchilar nutqining o'sishida ko'rgazmali materiallar, ya'ni rangli predmetlar va ularning rasmlari eng qulay vositalardan biridir. Binobarin, rasmlar asosida ham juft so'zlar tuzish mumkin.

Namunasi quyidagicha: *sigir-buzoq, ...*

Kuzatish o'ziga xos faoliyat bo'lib, u o'quvchini borliq hayot bilan yaqindan tanishtiradi. O'quvchi, odatda, eshitganlariga nisbatan ko'rgan va kuzatganlarini uzoq vaqt yodida saqlaydi, ulardan ta'sirlanadi, estetik zavq oladi.

O'quvchining so'z boyligi qanchalik yaxshi rivojlangan bo'lsa, uning nutqi shunchalik tushunarli, ravon, ta'sirchan bo'ladi. Bunda juft so'zlarning ham o'z o'rnini bor, albatta. O'quvchilarning juft so'zlarni o'rganish va o'zlashtirish bo'yicha mustaqil ishlashini tashkil etishda o'qituvchi analiz-sintez, qarama-qarshi qo'yish, analogiya, induksiya-deduksiya kabi usullardan foydalansa, o'quvchi uchun tushunarli va oson bo'ladi.

**Namuna:** Foydalanish uchun so'zlar: kichik, yomon, past, chuchuk, eski, yupqa, tor.

Qo'shma va juft so'zlarni o'tish darayonida quyidagi kabi savollar bilan muammoli vaziyatni yaratish mumkin:

1. So'zlarning juftini toping: uzun, tirilmoq, tolmay, qudrat, dunyo, pishiq, quvvatlamoq, tarvuz...

2. Qadimda qo'shma so'z bo'lgan so'zlarni ajratib yozing: to'qson, sakson, zararkunanda, quloqchin, ko'mir, astoydil...

**Yana bir topshiriq: Gap bo'laklarining o'rnini juft va qo'shma so'zlar bilan to'ldiring:**

Ega /// aniqlovchi /// hol /// kesim.

Aniqlovchi /// to'ldiruvchi /// kesim.

Mustaqil ishlashda didaktik kartochkalardan qancha ko'p foydalanilsa, o'zlashtirish shuncha yaxshi bo'ladi.

Xullas, didaktik materiallar o'quvchilar bilan bir vaqtda xilma-xil usullardan foydalanilgan holda ishlash imkonini beradi. Jumladan, badiiy asarlardan olingan parchalar ham shunday qulay didaktik materiallardan biridir.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abduruhmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov, Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: “O'qituvchi”, 1980. – B.207-209.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste'dod, 2008. – 180 b.
3. Maktabda til sathlarini o'zaro bog'lab o'rganish. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T., 1992. – 30 b.
4. Mengliyev B., Xoliyorov O'. O'zbek tilidan universal qo'llanma. – T.: “FAN”, 2008.
5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2000. – 98 b.
6. Roziqov O. va b. Ona tili didaktikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2005. – 238 b.
7. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T., 2006. – 192 b.
8. Xolmanova Z.T. Tilshunoslikka kirish. – T.: “Universitet”, 2007.
9. Estetik tarbiya asoslari. N.A.Kushayev tahriri ostida. – T.: “O'qituvchi”, 1988.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: “O'ME” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 2-jildlik. 2-jild. – B.582.

## SO'Z TURKUMLARIDA JUFT SO'ZLARNING NAMOYON BO'LISHI

*Tangriyeva Umida Allaberganovna*

*Urganch davlat universiteti akademik litseyining  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Kalit so'zlar:** ikki komponentli so'zlar, yaqin ma'noli so'zlar, zid ma'noli so'zlar, kompozitsiya, morfologik yozuv, juft so'zlar.

Juft so'zlar barcha mustaqil so'z turkumlari doirasida kuzatiladi. Ular otda, sifatda, sonda, olmoshda, ravishda va fe'lda mavjud.

Predmetlarning nomini, belgi-xususiyatlarini, miqdorini, harakat-holatini ifodalovchi so'zlar orasida juft holda qo'llanadiganlari ancha-muncha. Shuning uchun ular haqida alohida ma'lumot va bilim to'plangan.

Litseyda juft so'zlarni o'rganishga alohida ahamiyat qaratiladi. Bu mavzuni o'rganishda asosiy vazifalar: juft so'zlar haqida dastlab egallangan tushunchalarni yanada shakllantirish va rivojlantirish, o'quvchilar nutqini juft so'zlar bilan boyitish hamda og'zaki va yozma nutqda juft so'zlardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini o'stirish, o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, grammatik mavzu bilan bog'liq holda ayrim imloviy qoidalarni o'zlashtirish hisoblanadi. Bu vazifalar bir-biri bilan bog'liq holda hal etiladi.

Juft so'zlarning lingvistik xususiyatlari xiyla murakkab. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari faqat uning muhim nazariyalari bilan tanishtiriladi. Material tanlashda shu materialning nutq va imloga oid vazifalarini hal qilishda qanchalik zarurligi hisobga olinadi.

Juft so'zlarning xususiyatlari, asosan, quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Juft so'zlar har doim ikki komponent (ya'ni ikki so'z)dan tashkil topadi va har ikkala komponent bir so'z turkumidan iborat bo'ladi: *baxt-saodat* va *ota-ona* – ot bo'lsa; *aytdi-qo'ydi* – fe'l, *erta-kech* – ravishdir.

2. Bir turkumga oid har qanday so'z juftlashavermaydi. So'zlarning juft shakl hosil qilish-qilmasligida ularning ma'no munosabati muhim rol o'ynaydi:

a) sinonimlar juft shakl hosil qiladi. Ma'nodosh (sinonim) so'zlar deganda, bir umumiy ma'noni ifodalovchi ikki va undan ortiq so'zlar qatori tushuniladi. Masalan, *bahs-munozara*, *ahil-inoq*, *asta-sekin*, *sarson-sargardon* singari juft so'zlar shakli har xil, ammo ma'nosi bir xil bo'lgan o'zaro yaqin ma'noli so'zlardan tashkil topgan.

b) antonimlar juft shakl hosil qiladi. Zid ma'noli so'zlar (antonimlar) deganda, shakli har xil, ma'nosi har xil va ayni paytda, ma'nosi o'zaro qarama-qarshi bo'lgan so'zlar tushuniladi. Masalan, *issiq-sovuq*, *yaxshi-yomon*, *oq-qora*, *yosh-qari*, *uzoq-yaqin* kabi.

Zid ma'noli so'zlar birgalikda qo'llanib, yangi so'z hosil qila oladi. Aytaylik, *yosh-qari* juftligi – *bari*, *hamma* ma'nosini anglatrsa, *achchiq-chuchuk* – *salat*, *ovqat turi*; *uzoq-yaqindan* – *hamma yoqdan* ma'nolarini ifodalay oladi.

Antonimlar ma'no jihatidan bir-birini talab qiladigan juftlikdan iborat, ya'ni antonimik juftlikdan biri aytilsa, ikkinchisi darhol miyaga keladi: yer-osmon, yaxshi-yomon, kuntun kabi va h.k.

c) biror turga, to'daga oid (umumiyligi bo'lgan) narsalarni bildiruvchi so'zlar juft shakl hosil qiladi. Bular uyadosh so'zlar hisoblanadi. Uyadosh so'zlar deganda, bir mazmuniy guruhga mansub bo'lgan so'zlar tushuniladi. Masalan: *qo'y-qo'zi*, *sigir-buzoq* singari juft so'zlar o'zaro uyadoshligi bilan ham e'tiborni tortadi. Ular chorvachilik mazmuniy guruhiga mansub hisoblanadi.

3. Juft so'zlarning komponentlari mustaqil ma'noli so'zlar bo'lishi shart. Agar juftlashayotgan komponentlardan biri yoki har ikkisi leksik ma'noga ega bo'lmasa, juft so'z hisoblanmaydi, balki takror so'z sanaladi.

Ikkala komponenti mustaqil ma'noli bo'lgan juft formada jamlik, umumlashtirish ifodalanadi: *yor-do'st*, *tozon-tovoq*, *yaxshi-yomon*, *yosh-qari*, *idish-tovoq* kabi.

Bir komponenti mustaqil qo'llanmaydigan so'zlar juft so'z hisoblanmaydi. Chunki ularda ikki hodisani ko'rish mumkin:

a) ikkala komponenti aslida mustaqil ma'noli bo'lib, hozirda komponentlaridan biri mustaqil ma'nosini yo'qotgan bo'ladi. Bunday juftliklar umumlashtirish ma'nosini ifodalaydi va ma'noni kuchaytiradi. Ular juftlik hosil qilsa-da, takror so'z hisoblanadi: *bog`-rog`*, *temir- tersak*, *to's-to'polon* kabi.

b) ikkinchi komponenti birinchi komponentning fonetik o'zgarishidan iborat bo'lgan juftliklar ham juft so'z emas, takror so'zlardir: *chala-chulpa*, *mayda-chuyda*, *kalta-kulta*, *osh-posh*, *non-pon*, *qora-qura*, *avrab-savrab* kabi.

Juftliklarning bu turi hamma vaqt jamlik, umumlashtirish ma'nosini ifodalaydi. Mustaqil qo'llanadigan komponent o'z ma'nosida qo'llanmasa, yangi ma'no ifodalashi (yangi so'z hosil bo'lishi) mumkin. Lekin bunday so'zlar ham sanoqli darajada: *mayda-chuyda* (ba'zi arzimasa narsalar), *ora-sira* (ba'zan degani) kabi.

c) ikkala komponenti mustaqil ma'noga ega bo'lmagan juftliklar ham takror so'zlar bo'lib, ular juda ko'p emas: *g`idi-bidi*, *o'lda-jo'lda*, *alpong-talpong*, *adi-badi*, *ikir-chikir*, *azza-bazza*, *apil-tapil*, *alang-jalang*, *aji-buji*, *apoq-chapoq*, *imi-jimida*, *lash-lush* va b. Bunday juftliklarda leksik ma'no bilan birga, umumlashtirish, jamlik ma'nosining ifodalanishi ham seziladi.

4. Juft shakllarda komponentlarning o'rni (birinchi yoki ikkinchi o'rinda qo'llanishi, asosan, qat'iy bo'ladi. Masalan, *qarindosh-urug`*, *oshna-og`ayni*, *salom-alik*, *yaxshi-yomon*, *katta-kichik*, *besh-o`nta* kabi juft so'zlar komponentlarining o'rnini almashtirib bo'lmaydi. Ba'zi juft so'zlar komponentlarining o'rnini almashtirib qo'llash mumkin: *eson-omon* — *omon-eson*, *yozin-qishin* — *qishin-yozin*, *sekin-asta* — *asta-sekin* kabi.

Sababi shundaki, juft soʻz komponentlarining tartiblanishida maʼlum qonuniyatlar bor:

1. Hajm, yosh jihatdan kattasini, vazifasiga (mavqeyiga) koʻra asosiyrogʻi, ahamiyatlirogʻini bildiruvchi soʻz oldin (birinchi komponent sifatida) qoʻllanadi: *ota-bola, aka-uka, opa-singil, xotin-qiz, nevara-chevara, sigir-buzoq, qoʻy-qoʻzi, koʻrpa-yosti, qozon-tovoq, tovoq-qoshiq, togʻ-tosh, katta-kichik, uzun-qisqa*.

2. Maʼnosi kengroq boʻlgan (umumiyroq tushunchani ifodalaydigan) soʻz ikkinchi oʻrinda keladi: *ot-ulov, xat-xabar, beva-bechora, soya-salqin*.

3. Juft shaklni hosil qiluvchi soʻzlardan biri ikkinchisiga nisbatan maʼnoni kuchli oʻttenka bilan ifodalaydi. Ana shunday xususiyatga ega boʻlgan soʻz juft shaklning ikkinchi komponenti boʻlib qoʻllanadi: *yakka-yagona, tosh-metin, kambagʻal-qashshoq, dod-faryod, chang-toʻzon*.

4. Baʼzi juft soʻz komponentlarining tartiblanishi ular ifodalaydigan harakat-holat, vaqt, miqdor va shu kabilarning qonuniy ketma-ketligi bilan bogʻliq boʻladi: *salom-alik, savol-javob, erta-indin, besh-olti* kabilar. Alik salomdan, javob savoldan, indin ertadan, olti beshdan keyin boʻladi. Shu sababli yuqoridagi kabi juft soʻzlarda *alik, javob, indin, olti* soʻzlari ikkinchi oʻrinda qoʻllanadi.

Baxtiyor Mengliyevning “Oʻzbek tilidan universal qoʻllanma” kitobida juft soʻzlarning oxirgi boʻgʻiniga urgʻu tushishi qayd qilinadi: Masalan: *ota-oná, aka-uká, yaxshi-yomón, baland-pást, asta-sekín*.

1995-yil 24-avgustda qabul qilingan “Oʻzbek tilining imlo qoidalari”da juft soʻzlar morfologik yozuv prinsipiga koʻra yozilishi qayd etilgan. Chunki bular qoidaga koʻra ajratib, chiziqcha bilan yoziladi. Masalan: *ota-ona, aka-uka, togʻ-tosh, yaxshi-yomon*. Agar juft soʻzlar orasida *-u, -yu* yuklamasi kelsa, bu yuklama oldingi qismdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi va juft soʻzlar orasida chiziqcha qoʻyilmaydi. Masalan: *togʻ-u tosh, aka-yu uka, yaxshi-yu yomon, ota-yu ona*.

Juft soʻzlarning grammatik maʼnolari:

n koʻplik: *aka-uka*;

n jamlash, umumlashtirish: *qozon-tovoq, qovun-tarvuz*;

n davomiylik: *kecha-kunduz, tun-kun*.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Abdurrahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov, Doniyorov X. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – T.: “Oʻqituvchi”, 1980.
2. Olimov M. Risolai sarf yoki anʼanaviy morfologiya. – T.: “FAN”, 2003.
3. Mengliyev B., Xoliyorov Oʻ. Oʻzbek tilidan universal qoʻllanma. – T.: “FAN”, 2008.
4. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Morfologiya, leksikologiya. Qoʻllanma. – T.: Oʻqituvchi, 1965.
5. Safarova R., Musayev U. va b. Oʻzbekiston Respublikasida umumiy oʻrta taʼlim strategiyasi muammolari va taʼlim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yoʻllari. – T.: Fan, 2005.

## ONA TILI DARSLARIDA QO‘SHMA VA JUFT SO‘ZLAR IMLOSINI TUSHUNTIRISH VOSITALARI KO‘LAMI

*Tangriyeva Umida Allaberganovna*

*Urganch davlat universiteti akademik litseyining  
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

**Kalit so‘zlar:** qo‘shma so‘zlar tarkibi, yaqin ma‘noli so‘zlar, zid ma‘noli so‘zlar, kompozitsiya, morfologik yozuv, juft so‘zlar.

Yangi insonni har tomonlama kamolga yetkazish mustaqil mamlakatimiz ta‘lim-tarbiya tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Bu vazifani amalga oshirishda o‘quvchilarning ma‘naviy, g‘oyaviy va axloqiy jihatdan yuksak saviyali va savodxon bo‘lishlariga, ayniqsa, nutq madaniyatini har tomonlama yaxshi egallashlariga erishish juda muhimdir.

Hozir fan-texnika, madaniyat, san‘at va boshqa sohalarning mislsiz darajada o‘sishi, yoshlarning aqliy taraqqiyotiga katta ta‘sir ko‘rsatmoqda. Yoshlar yangi-yangi narsalar, voqea-hodisalar va ma‘lumotlarga duch kelmoqda. Ularning nomi bilan, qachon va qanday ishlatilishi bilan tanishmoqdalar. Tafakkurlari va qiziqishlari, ehtiyojlari tez sur‘atlarda taraqqiy etmoqda. Lug‘at manbalari juda ko‘p yangi so‘zlar hisobiga boyimoqda. Albatta, ular orasida qo‘shma va juft so‘zlar borligini ham inkor qilib bo‘lmaydi. Shunday ekan, yoshlarga qo‘shma va juft so‘zlarning tuzilishi, ma‘nolari, ifodalanishi, imlosi xususida yetarli ma‘lumot berib borishga to‘g‘ri keladi. Mamlakatimizda o‘quv-tarbiya ishlari sohasida ulkan o‘zgarishlar yuz berayotgan hozirgi bir paytda ta‘lim-tarbiyada eng samarali, zamonaviy metod-usullarni, inovatsion texnologiyalarni qo‘llash maqsadga muvofiq deb topilmoqda. Ayniqsa, darsda yangi texnik vositalardan foydalanish o‘quvchilar qiziqishini uyg‘otishda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

**“Qo‘shma va juft so‘zlar imlosi” mavzusini o‘tishni quyidagicha tashkil qilish (xaritalash) mumkin:**

**Fan:** Ona tili

**Mavzu:** Qo‘shma va juft so‘zlar imlosi

**Kalit so‘zlar:** so‘z yasalishi, so‘zlarning tuzilishiga ko‘ra tasnifi, sodda so‘z, qo‘shma so‘z, juft so‘z, takror so‘z, tub so‘z, yasama so‘z, kompozitsiya, ot, sifat, son, olmosh, fe‘l, ravish.

**Soatlar soni:** 2 soat

**Mavzuning qisqacha ta‘rifi (DTS talablariga muvofiq)**

O'zbek tilida qo'shma va juft so'zlarning imlosini o'rgatishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Mavzuni turli fanlar bilan bog'liqlikda, ilmiy tadqiqotlar sohasiga xos ko'rinishlarda o'tish.

***O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi***

**Metod:** Og'zaki bayon qilish, suhbat-ma'ruza, "BBB" hamda "Aqliy hujum" metodlari.

**Shakl:** savol-javob, individual ishlash, kichik guruhlarda ishlash, jamoa bilan katta guruhda ishlash.

**Vositalar (texnik va didaktik):** Tarqatma materiallar, slaydlar, test savollari, kompyuter, proyektor, banner ko'rgazma va boshqalar.

**Nazorat turi:** Og'zaki va yozma nazorat, o'z-o'zini nazorat qilish, savol-javob, test orqali.

**Baholash:** Rag'batlantirish.

**Dars /ma'ruza/ning maqsad va vazifalari:**

**Maqsadlar:**

**Ta'limiy:** Qo'shma va juft so'zlarning tuzilishi hamda imlosi bo'yicha talabalarga nazariy tushuncha berish.

**Tarbiyaviy:** Ona tilining millat va Vatan ravnaqidagi roli va ahamiyatini talabalarga tushuntirish.

**Rivojlantiruvchi:** Talabalarning ona tilini o'rganishga qiziqishini oshirish.

**Vazifalar:**

**Ta'limiy savol:** Qo'shma va juft so'zlar haqida nimalar bilasiz?

**Tarbiyaviy savol:** Ona tili imlosiga oid tushunchalarni yaxshi bilishning axloqiy-tarbiyaviy ahamiyati nimada deb o'ylaysiz?

**Rivojlantiruvchi savol:** Qo'shma va juft so'zlarga o'zingiz yod bilgan she'rlardan misol topib ayta olasizmi?

**Kutilayotgan natijalar:**

**Dars yakunida talaba biladi (Bilim):**

So'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari, ayniqsa, qo'shma va juft so'zlarning o'ziga xos xususiyatlari, qanday

**Qaysi savollar beriladi:**

So'zlar tuzilishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?  
Qanday so'zlar qo'shma so'zlar hisoblanadi?

so'zlardan hosil bo'lishi, imlosi xususida bilib oladilar	Qo'shma so'zlar juft so'zlardan nimasi bilan farq qiladi? Juft so'zlarning takror so'zlardan farqi nimada? Qo'shma so'zlar va juft so'zlar qanday yoziladi?
<b>Dars yakunida talaba tushunadi (Ko'nikma):</b> Qo'shma va juft so'zlarning o'ziga xos belgilari, tuzilishi va yozilishi asosida ularni o'zaro farqlay oladi.	<b>Qaysi savollar beriladi:</b> Qo'shma so'zlar qanday tuziladi va yoziladi? Juft so'zlar qanday tuziladi va yoziladi?
<b>Dars yakunida talaba bajara oladi (Malaka):</b> Berilgan matndan qo'shma va juft so'zlarni mustaqil topa oladi va ularning yozilishini tushuntirib bera oladi.	<b>Qanday topshiriqlar beriladi:</b> Qo'shma va juft so'zlarni qatnashtirib ikkitadan gap tuzing.

**Dars jarayoni va uning bosqichlari:**

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
<b>1-bosqich:</b> <b>Tashkiliy qism.</b>	1. Davomatni aniqlash. 2. "Tanishuv xaritasi" asosida guruh bilan tanishish.	"Tanishuv xaritasi" mashqi.	4 daq 6 daq
<b>2-bosqich:</b> <b>Refleksiya.</b> <b>Ehtiyojlarni aniqlash</b>	1. Mavzu bo'yicha savol-javob orqali talabalarning ushbu mavzuga tayyorligi va ehtiyojlari aniqlanadi.	Og'zaki so'rov	10 daq
<b>3-bosqich:</b> <b>Yangi mavzuning bayoni</b>	1. Slaydlar asosida o'qituvchining kichik ma'ruzasi. 2. Qo'shma va juft so'zlarning tuzilishi va yozilishi bilan bog'liq xususiyatlarni guruhlar ishlab chiqadi. 3. Taqdimotlar (har guruhga 1 daq) 4. O'qituvchining darsni xulosalashi.	Slaydlar taqdimoti Kichik guruhda ishlash Slaydlar asosida	15 daq 10 daq

			10 daq
<b>4-bosqich: Mustahkamlash</b>	1. Guruhlarga bo'linib test yechish.	Test	10 daq
<b>5-bosqich: Baholash.  Dars yakuni</b>	1. Guruhlarda test natijalarini tahlil qilish va baholash.  2. Talabalar nimani oldindan bilar edi, dars jarayonida nimalarni bilishni xohlagan edi, nimalarni bilib olganligini tahlil qiladi.	Guruhni baholash  “BBB” metodi	10 daq
<b>6-bosqich: Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar (uyga vazifa)</b>	Slaydda berilgan so'zlarni yozib olib, ular ishtirokida gaplar tuzish.  Berilgan sxema asosida qo'shma va juft so'zlarni qatnashtirib gap tuzish.	Yozma topshiriq.	5 daq

### Darsning borishi:

**1-bosqich.** O'qituvchi darsning boshlanishida tinglovchilarni rangli qog'ozlar asosida 3 guruhga bo'ladi. Guruhlar bilan tanishuv o'tkaziladi. “Tanishuv xaritasi” mashqi yordamida. Bunda guruhlar berilgan sxema bo'yicha o'z guruhlariga nom tanlaydi va ularni sxemada berilgan tartibda tanishtiradi: (*slayd ilova qilinadi*).

**2-bosqich:** Yangi mavzuni o'rganishni boshlashdan oldin tinglovchilarning shu yo'nalishdagi mavjud bilimlari, ehtiyojlarini aniqlash va motivatsiyani vujudga keltirish uchun og'zaki savol-javob o'tkaziladi. Savollar namunasi:

1. Qo'shma va juft so'zlar haqida birinchi marta maktabda nechanchi sinfda eshitgansiz?
2. Qo'shma va juft so'zlar tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rganiladi?
3. Qanday so'zlar qo'shma so'zlar hisoblanadi?
4. Qanday so'zlar juft so'zlarni hosil qiladi?
4. Qo'shma so'zlar qanday yoziladi? Juft so'zlar-chi?
5. Qo'shma va juft so'zlar qatnashgan she'riy misra bilasizmi?

**3-bosqich: 1-ish.** Yangi mavzuni o'qituvchi slaydlar yordamida kichik ma'ruza shaklida olib boradi. Unda qo'shma va juft so'zlarning tuzilishi, qanday so'zlardan hosil bo'lishi, ma'nolari, yozilishi haqida gapiriladi. (*ma'ruza matni ilova qilindi, slaydlar asosida*).



**2-ish.** Kichik guruhlarda ishlash. Bunda 1-guruh qo'shib yoziladigan qo'shma so'zlarga, 2-guruh ajratib yoziladigan qo'shma so'zlarga, 3-guruh juft so'zlarga ikkitadan misol yozib chiqadi.

**3-ish.** Guruhlarning taqdimoti va o'qituvchining mavzuni asosiy xulosalarini e'lon qilishi. (*slaydlar asosida*).

**4-bosqich:** Yangi mavzuni mustahkamlash uchun kichik guruhlarda tinglovchilar mustaqil test ishlaydi. (*test materiali ilova qilindi*). Vaqt 10 daq.

**5-bosqich: 1-ishi:** Test natijalari o'qituvchining to'g'ri javoblari asosida tekshiriladi. Bunda har bir guruh qo'shni guruhning test natijalarini tekshiradi.

**2-ishi:** Talabalar nimani oldindan bilar edi, dars jarayonida nimalarni bilishni xohlagan edi, nimalarni bilib olganligini tahlil qiladi. "BBB" metodi yordamida.

Bilardim	Bilishni xohlagan edim	Bilib oldim

**6-bosqich: Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar (uyga vazifa):** Talabalar slaydda berilgan so'zlarni yozib olib, ular ishtirokida avval qo'shma va juft so'zlar hosil qiladilar, so'ngra ularni qatnashtirib ikkitadan gap tuzishadi.

**Guruhlar uchun mavzuga oid quyidagicha test savollarini shakllantirish mumkin:**

**1-kichik guruh uchun**

1. Qo'shma otlar berilgan qatorni toping.
A) qo'ni-qo'shni, qo'ziqorin, bozorboshi
B) oltingugurt, achchiqtosh, laylakqor
C) dori-darmon, guliston, tustovuq
D) barcha javoblar
2. Qaysi turkumlarga oid juft so'zlar asosan antonimlardan hosil bo'ladi?
A) fe'l
B) ot
C) sifat
D) son
3. Qo'shma fe'l qatnashgan gapni toping.
A) Mirsodiq sevinib ketdi.
B) U bo'lgan voqealarni birma-bir eslab ko'rdi.
C) Halima singlisini bog'chadan olib keldi.
D) Barcha javob to'g'ri.

**2-kichik guruh uchun**

1. Bir-biriga yaqin yoki qarama-qarshi asosdan tarkib topgan otlar ...
A) qo'shma otlar
B) juft otlar
C) takror otlar
D) qisqartma otlar
2. Sifat + otdan tashkil topgan qo'shma so'zni belgilang.
A) qirqog`ayni, atirgul
B) ko'zoynak, tomorqa
C) mingoyoq, qorako'l
D) qoramol, qizilurug`
3. Qo'shma fe'l qatnashgan gapni toping.
A) Asror hayajonlanib qoldi.
B) Salima o'tgan ishlarni bir-bir aytdi.
C) G'anisher velosipedini arzonarovga sotib yubordi.
D) To'g'ri javob yo'q.

### 3-kichik guruh uchun

1. Otdan yasalgan juft sifat qatnashgan gapni toping.
A) Shoirning bolaligi alg`ov-dalg`ov davrlarga to'g'ri keldi.
B) Menga o'xshash esli-hushli yigitga zoriqib o'tirgan ekan.
C) Menga oq-qora iplarni uzatib yubor.
D) So'roq-savollaringiz bo'lsa, marhamat?!
2. Ot+ot tipidagi qo'shma sifat berilgan qatorni toping.
A) kaltafahm
B) mehmondo'st
C) jonkuyar
D) sakkizoyoq
3. Qo'shma fe'l qatnashgan gapni toping.
A) Onam kuyunib gapirdi.
B) Adolat, nihoyat, Toshkentga borib keldi.
C) Dilfuza xonalarni chinniday tozalab chiqdi.
D) Barcha javob to'g'ri.

1-guruh test javoblari: B C, C.

2-guruh test javoblari: B, D, D.

3-guruh test javoblari: B, B, B.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste'dod, 2008. – 180 b.
2. Maktabda til sathlarini o'zaro bog'lab o'rganish. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T., 1992. – 30 b.
3. Mengliyev B., Xoliyorov O'. O'zbek tilidan universal qo'llanma. – T.: "FAN", 2008.
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2000. – 98 b.
5. Roziqov O. va b. Ona tili didaktikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2005. – 238 b.
6. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T., 2006. – 192 b.
7. Xolmanova Z.T. Tilshunoslikka kirish. – T.: "Universitet", 2007.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: "O'ME" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 2-jildlik. 2-jild. – B.582.

## TEKNOLOGIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNING QO'LLANILISHI

*Rajabov Mansur Abirovich*

*Jizzax viloyati Zafarobod tumani 6-umumtalim maktabi*

*Texnologiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada yangi pedagogik texnologiyalarning mohiyati, ularni texnologiya dars jarayonlarida qo'llash orqali o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim texnologiyalari, ta'lim jarayoni, ijodiy faoliyat, "Aqliy hujum" metodi, "Rolli o'yinlar", "Debatlar" metodi.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining yoshi, psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi dolzarflik kasb etmoqda. Shu maqsadni amalga oshirishda boshqa fanlar qatori texnologiya fanining ham imkoniyatlari katta. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya darsi boshqa fanlarning dars jarayonidan tashkiliy va sifati jihatidan farq qilib, bu darsda bugungi kunda faqat ma'lum mehnat qobiliyatini o'rgatish yetarli bo'lmay, balki o'quvchilarni texnologiya darslarida umummehnat asosida ma'naviy tafakkurini to'liq shakllantirishga qaratilgan intiluvchanlik, ijodiy mehnat topshiriqlarini mustaqil bajarish, zaruriyat asosidagi muammolarni anglay olish, o'z oldiga bu muammolarni yechish uchun vazifa qo'ya oladigan sharoitni yuzaga keltirish, o'z ijodiy faoliyatini serqirralikka yo'naltirish kabi muammolarni hal qilishni ham o'rgatish kerak.

O'quvchilarning amaliy mashg'ulotlarda o'qituvchi nazorati ostida mustaqil holda o'z qo'li bilan yasagan buyummahsuloti madaniy va ma'naviy hayot haqidagi tasavvurlarini kengaytirib o'quvchi uchun bu bizning atrofimizdagi dunyoni kashf qilish, ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish va faoliyatni amalga oshirish, his-tuyg'ularni ifodalash imkonini beruvchi sharoitni yaratib beradi. Hozirgi zamon darsiga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri har bir darsda tanlanadigan mavzuning ilmiy asoslangan bo'lishidir, ya'ni darsdan ko'zlangan maqsad hamda o'quvchilar imkoniyatini hisobga olgan holda mavzu hajmini belgilash, uning murakkabligini aniqlash, o'tiladigan mavzu bilan bog'lash o'quvchilarga beriladigan topshiriq va mustaqil ishlarni ketma-ketligini aniqlash, darsda kerak bo'ladigan jihozlarni belgilash va ko'rgazmali qurollar bilan boyitish, qo'shimcha axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darsda muammoli vaziyatni yaratishdir.

Darsga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri - ta’lim metodlari va usullarini bir biri bilan mustahkam bog‘lab olib borish samaradorligini oshirishdir. Darsga qo‘yiladigan asosiy talablardan yana biri - barcha didaktik vazifalar darsning o‘zida hal etilishi, uyga beriladigan vazifalar o‘quvchilarning darsda oladigan bilimlarining mantiqiy davomi bo‘lishi kerak. Dars davomida o‘qituvchi o‘quvchilarning jismoniy holatini, ijodkorligini, tez fikrlashlarini hisobga olishi kerak. O‘tilgan har bir darsning o‘quvchilar bilan birga tahlil qilib borilishi ham yaxshi natija beradi. Texnologiya darslarida “Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda o‘quvchilarning diqqatini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ularda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi.

O‘quvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi o‘quvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. “Aqliy xujum” ishtirokchilari oldiga qo‘yilgan muammo bo‘yicha har qanday mulohaza va takliflarni bildirishlari mumkin. Aytilgan fikrlar yozib boriladi va ularning mualliflari o‘z fikrlarini qaytadan xotirasida tiklash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Metod samarasi fikrlar xilmaxilligi bilan tavsiflanadi va hujum davomida ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy hujum tugagach, muhimlik jihatiga ko‘ra eng yaxshi takliflar generatsiyalanadi va muammoni yechish uchun zarurlari tanlanadi. «Aqliy hujum» metodi o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. O‘quvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda - yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.

3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda - mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

«Aqliy hujum» metodi qo‘llanilganda quyidagi bosqichlar, uzviy bog‘langan holda - ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Ya’ni, «Aqliy hujum» metodining tarkibiy tuzilmasi:

✓ o‘quvchilarga mavzuga oid savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, mulohaza) bildirishlari so‘raladi;

✓ o‘quvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;

✓ o‘quvchilarning fikr-g‘oyalari (audio va video ko‘rinishida yozib olish, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga ) to‘planadi;

✓ fikr-g‘oyalar ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlanadi;

✓ Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

Mashg'ulotlar davomida o'quvchilar bilan ishlashda o'ziga xos qulaylik va avfzalliklar bor. Jumladan, "Aqliy hujum" metodini qo'llash jarayonida natijalar baholanmasligi o'quvchilarning turli fikr-g'oyalarni erkin bayon etishiga olib keladi hamda ularning barchasi ishtirok etadi. SHuningdek, o'quvchilarning fikr va g'oyalari vizuallashtirilib, boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud bo'ladi va o'quvchilarda mavzuga bo'lgan qiziqishlarni uyg'otish mumkin.

**Rolli o'yinlar.** O'qitishning bu usulida o'quvchilar amaliy mashg'ulotlarni «real hayot» holatlarini qayta jonlantiradilar. Bu ularga o'z amaliy ish faoliyatlarida qo'llash mumkin bo'lgan yangi turdagi faoliyatlarni sinab ko'rish va tekshirish imkonini beradi. **Qo'llanilishi:**

- Yangi turdagi faoliyatni sinash imkonini ko'rsatishda;
- o'quvchilarni nazariyani amaliyotda qo'llab ko'rishga o'rgatishda;
- o'quvchilar faolligini yanada oshirishda.

**Afzalligi:** - «real hayot» ning qayta tiklanishi;

- o'quvchilarning mashg'ulotlarga chuqurroq jalb qilinishi;
- o'quvchilarning muammoga boshqacha yondashuvini ko'rish imkonini berish.

**Debatlar usuli.** O'z nuqtai nazarini asoslashda sinfdagi barcha o'quvchilarning bahslashuvda faol ishtirok etishini ta'minlovchi o'qitish uslubidir. Bu uslubdagi foydalanish tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi. O'quvchi o'z nuqtai nazarini himoya qilishi kerak. Bahs haqiqatni yuzaga keltirgani bois o'qituvchi sinfni ikki guruhga bo'lgan holda munozarani atayin avj oldiradi. (guruhlarga bir-biriga zid nuqtai-nazarlarni aytadi, bahsli topshiriqlar beradi). Bu usul yozma holda olib borilsa, yozma debatlar bo'ladi. **Qo'llanilishi:**

- bahsda o'quvchilarning faol ishtiroki ta'minlanganda;
- muammoni hal qilishda mohirlikka o'rgatishda;
- fikrni aniq va qisqa ifodalashga imkon berilganda.

**Afzalligi:**

- o'quvchilarni bahslashishga o'rgatadi;
- munozara madaniyatiga o'rgatadi;
- asoslab berish malakasini oshiradi.

Demak, o'quvchilarning ko'nikma, malaka me'yorini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Nimani o'qidim? (o'qiganda) 10 %
2. Nimani eshitdim? (eshitganda) 20 %
3. Nimani ko'rdim? (ko'rganda) 30 %
4. Nimani eshitdim va ko'rdim? 50 %
5. Muhokama, bahs-munozara. 70 %
6. Shaxsan o'zim bajardim. 80 %
7. Ustoz bilan birga bajardim. 90 %

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, innovatsion usullarni qo‘llab dars o‘tilganda sinfda, o‘zlashtirmaydigan o‘quvchi qolmaydi. Deyarli barcha o‘quvchilar dars jarayoniga jalb etilib, ularning darsga qiziqishlari ortadi. O‘quvchilarning kelgusida mustaqil bilim olishlariga, hunar o‘rganishlariga imkon yaratiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

- 1.Ziyonet.com
- 2.Google.com
- 3.newjournal.org

## PANDEMIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA BYUDJET SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

*Buxoro Davlat Universiteti*

*Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) kafedra o'qituvchisi phd*

**Sherov Anvar Umarovich**

*Buxoro Davlat Universiteti*

**Islomova Sarvinoz Baxriddin qizi**

*Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) kafedra magistri*

**Annotatsiya:** Ko'plab mamlakatlarda pandemiya oqibatida iqtisodiyotni qayta rehabilitatsiya qilish davlat byudjetining zimmasida qoldi. Jahon bo'ylab ro'y bergan ushbu falokat tufayli, bir qancha davlatlar byudjet siyosati va byudjet xarajatlari yo'nalishlarini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ldi.

Ushbu maqolada pandemiya davrida mamlakatdagi iqtisodiy holatlar, ayniqsa byudjet siyosatini shakllantirish yo'llari, shu jumladan Jahon bankining mamlakatga ko'magi haqida muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** pandemiya, byudjet siyosati, byudjet xarajatlari yo'nalishlari, Jahon banki, iqtisodiy qiyinchiliklar.

Ma'lumki, mamlakatimizda pandemiyani oldini olish va oqibatlarini yumshatish maqsadida turli xil cheklovlar o'rnatildi. Jumladan, insonlarning harakatlanishiga, xizmat ko'rsatish korxonalarining ish faoliyatiga cheklovlar kiritildi, ba'zi bir korxonalar faoliyati to'xtatib turishga majbur bo'lishdi. Aholining pandemiya davrida omon qolishi uchun mablag'ga ega bo'lishlari va o'z ishlarini saqlab qolishlari, kichik biznesni to'liq tugatishdan saqlab qolish uchun hukumat tomonidan turli zarur choralar ko'rildi.

Kasallik tarqalishini maksimal darajada lokalizatsiya qilish va karantin muddatlari cho'zilib ketishining imkon qadar oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.04.2020 yildagi PQ-4679-son qarorida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining barqarorligini ta'minlash, koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olish bo'yicha muhim tadbirlarni, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, pensiya va nafaqalar hamda ustuvor davlat dasturlarini o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirish maqsadida quyidagilarga alohida e'tibor berildi va mablag'larni birinchi navbatda 1-chizmadagilarga moliyalashtirishga yo'naltirildi.



Koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish bo'yicha tadbirlarga, jumladan dori vositalari va tibbiyot buyumlari sotib olish, tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va ularni jihozlashga

ish haqi, pensiyalar, stipendiya va nafaqalarni o'z vaqtida to'lashga

oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish, kommunal to'lovlar va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan xarajatlarni qoplashga;

Inqirozga qarshi kurashish respublika komissiyasining qaroriga asosan boshqa tadbirlar va xarajatlarga.

### **1-chizma. PQ-4679 sonli qaror bo'yicha byudjetning moliyalashtirilishi.**

Pandemiya davrida soliqlar undirilishini to'xtatib turish, kredit to'lovlari muddatini uzaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarini subsidiyalar orqali qo'llab-quvvatlash hamda aholiga ijtimoiy yordam berish choralari ko'rildi. Bunda mamlakatimizga Jahon banki tomonidan moliyaviy yordam ko'rsatildi.

Jahon banki ko'plab mamlakatlarga pandemiyaning iqtisodiyotga salbiy ta'sirini yumshatishga va uni yaxshilashga yordam berdi. Jahon banki O'zbekistonni pandemiya inqirozida ham iqtisodiyoti o'sayotgan dunyodagi kam sonli davlatlar ro'yxatiga kiritdi.

Jahon bankining Toshkentdagi vakolatxonasi tomonidan 7-oktabr kuni berilgan axborotida mamlakatimiz pandemiya holatida olib borilgan byudjet siyosati haqida quyidagicha ma'lumot berilgan: "Global iqtisodiy tanazzulga qaramasdan, O'zbekiston 2020-yilda iqtisodiy o'sishni namoyish etadigan Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi ikkita davlatdan biri bo'lishi prognoz qilinmoqda"<sup>1</sup>. Shu bilan bir qatorda Jahon banki ekspertlarining ta'kidlashicha, koronavirus O'zbekiston uchun mustaqillik davomidagi eng yirik iqtisodiy zarba bo'lgan, aholi farovonligi, daromadi pasaygan.

Jahon iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida tashqi qarzi bo'lmagan mamlakatlar deyarli qolmagan. Tashqi qarzlarning moliyaviy ta'sir kuchi iqtisodiyotning eng istiqbolli tarmoqlarini moliyalashtirishga, yirik iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga va dunyodagi mavjud vaziyat o'zgarganda iqtisodiyotni tezda tiklashga yordam beradi. Butun jahondagi umumiy vaziyat koronavirus pandemiyasi oqibatida og'irlashdi. Tabiiyki, pandemiya nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoda davlat qarzi ko'payishiga olib keldi.

<sup>1</sup> a/world-bank-covid-uzbekistan/5613264.html

Pandemiya oqibatlarini yumshatish, insonlar hayotini saqlab qolish barcha mamlakatlarda eng ustuvor yoʻnalishga aylandi. Shubhasiz, yuqori davlat qarzi, xususan, xorijiy valyutada olingan tashqi qarzga xizmat koʻrsatish pandemiya bois yanada murakkablashdi. YaIMning pasayishi, milliy valyuta qadri tushishi oqibatida davlat qarzining YaIMga nisbati keskin oshdi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari N.Tilovoldiyev va N.X.Jumayevlar mamlakatning nima sababdan tashqi qarz olganini quyidagicha izohlab berganlar:


Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, iqtisod fanlari doktori, professor Nodir Jumayevning<sup>2</sup> tahlil qilishlari boʻyicha: Oʻzbekistonda pandemiya tufayli yuzaga kelgan murakkab vaziyatga qaramay, xalqaro zaxiralarni sarflamagan holda tashqi qarz islohotlarni davom ettirish, ustuvor ravishda ijtimoiy soha loyihalarini moliyalashtirishga jalb etilgan, shuningdek, 2020-2021 yillar uchun inqirozdan keyingi davrda iqtisodiyotni tiklash boʻyicha qabul qilingan keng koʻlamli dasturda tashqi qarzlardan samarali foydalanish, ularni ustuvor ravishda infratuzilma loyihalarini, iqtisodiy oʻsishga bevosita va ikkinchi darajali taʼsir koʻrsatadigan ijtimoiy obʼyektlarni moliyalashtirishga qaratish, aholi bandligini taʼminlash, shuningdek, kambagʻallikni qisqa va oʻrta muddatda qisqartirishga yoʻnaltirish belgilangan.

Shuningdek, pandemiya vaqtida olingan tashqi qarzlar sababini Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Nodir Tilovoldiyev<sup>3</sup> quyidagicha izohlagan:

Pandemiya sharoitida talab etiladigan katta mablagʻlarni faqatgina soliq, bojxona va boshqa yigʻimlardan tushadigan mablagʻlar hisobiga shakllantirish murakkab. Odatda toʻlov balansi manfiy, davlat byudjeti taqchilligi mavjud boʻlgan, imkoniyatlar cheklangan holatlarda yirik loyihalarni moliyalashtirish va barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlash maqsadida tashqi qarzga murojaat qilish juda keng tarqalgan amaliyotdir. Nafaqat rivojlanayotgan, balki eng rivojlangan mamlakatlar ham oʻz iqtisodiyotini yuksaltirishda uchun tashqi qarz omilidan mohirona foydalanadi. Masalan, tashqi qarz summasi YaIMga nisbatan AQShda 138 foiz, Yaponiyada 237 foiz, Fransiyada 99 foizni tashkil etadi. Hatto AQShda tashqi qarz xalqaro monetar tizim asosini tashkil etuvchi omildir.


<sup>2</sup> <https://review.uz/uz/post/tashqi-qarzlardan-foydalanish-samarasi-xususida-deputatlar-qanday-fikrda>

<sup>3</sup> <https://review.uz/uz/post/tashqi-qarzlardan-foydalanish-samarasi-xususida-deputatlar-qanday-fikrda>



1- rasm. O‘zbekistonda 2021-yilda davlat byudjeti taqchilligi (foizda)<sup>4</sup>.

Yuqoridagi 1-rasmni tahlil qiladigan bo‘lsak, O‘zbekistonda 2021-yilda davlat byudjeti taqchilligi mamlakat yalpi ichki mahsulotining 6 foiziga teng bo‘lganligiga guvoh bo‘lamiz.



2- rasm. O‘zbekistonda 2021-yilning to‘rtinchi choragida davlat byudjeti taqchilligi (milliard so‘mda)

2- rasmda O‘zbekistonda 2021-yilning to‘rtinchi choragida davlat byudjeti taqchilligi 9724,40 milliard so‘mni tashkil etganligini bilishimiz mumkin. Shuningdek, maksimal profitsit 564 milliard so‘mni, defitsit esa -7323 milliard so‘mni tashkil qildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pandemiya sharoitida O‘zbekiston aholining pandemiya davrida omon qolishi uchun mablag‘ga ega bo‘lishlari va o‘z ishlarini saqlab qolishlari, kichik biznesni to‘liq tugatishdan saqlab qolish, shuningdek, pandemiya davrida soliqlar undirilishini to‘xtatib turish, kredit to‘lovlari muddatini uzaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarini subsidiyalar orqali qo‘llab-quvvatlash

<sup>4</sup> Manba: O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

uchun Jahon bankidan tashqi qarz oldi. (Olingan qarz miqdori 2022.01.01 holatida 4,3 mlrd<sup>5</sup>. AQSH dollariga teng) Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari N.Tilavoldiyev va N.X.Jumayev<sup>6</sup> olingan tashqi qarzlarni nafaqat pandemiyani yumshatishga balki davlat investitsiya dasturi asosida loyihalarni moliyalashtirishga ham jalb qilinayotganligini alohida ta`kidlab o`tishgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

- I. **Normativ huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar**
1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.04.2020 yildagi PQ-4679-son<sup>7</sup> qarori
2. International Journal of Independent Research and Studies, 2(4), 146
3. Морозова, М. Морозов. Информационное обеспечение. Москва. 2014
4. Aliyev B. “Koronavirus-jilovlanmagan ofat. U dunyo iqtisodiyotiga qay darajada ta’sir etmoqda?” “Xalq so’zi” gazetasi.
5. Bekmurodov A. “Yana bir global iqtisodiy inqiroz eshik qoqmoqda” “Xalq so’zi” gazetasi
6. Umirov A. “Pandemiya oqibatlarini qanday bartaraf etiladi” “Xalq so’zi” gazetasi.
- II. **FOYDALANILGAN Internet saytlari**
- [www.datareportal.com](http://www.datareportal.com)
- [www.gazeta.uz](http://www.gazeta.uz)
- [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
- [www.omma.uz](http://www.omma.uz)

<sup>5</sup> <https://daryo.uz/2022/02/28/ozbekiston-qaysi-xorijiy-moliyaviy-institutlardan-qanchaga-qarzdor/>

<sup>6</sup> <https://review.uz/uz/post/tashqi-qarzlardan-foydalanish-samarasi-xususida-deputatlar-qanday-fikrda>

<sup>7</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-4788645>

## БАХШИЛАР - “БИР АКТЁР ТЕАТРИ” ИЖРО УСЛУБИ АСОСЧИЛАРИ

*Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “Саҳна ҳаракати ва жисмоний маданият” мустақил кафедрасининг тадқиқотчиси*  
*Дўсанов Раҳимжон Раимкулович*

**Аннотация.** Ушбу мақолада ўзбек бир актёр театри тарихининг ривожланиш жараёнидаги муҳим босқичлар ва унинг актёрлари ижодига назар ташланади. Муаллиф бу соҳа ривожига бахшиларнинг ўрни бекиёс эканлигини илмий манбааларга таянган ҳолда асослайди. Бахшилар ижроси “Бир актёр театри” жанри талабалари асосидаги томоша эканлиги, улар ижро этган дostonлар ўз драматургиясига эга бўлгани хусусида. Шунингдек, мақолада ўзбек бир актёр театри тарихи ва бугуни хусусида ҳам муҳим маълумотлар мавжуд.

**Калит сўзлар.** Театр, бахши, актёр, бир актёр театри, фольклор, эпос, қадрият, дoston, якка ижро.

**Annotation.** This article looks at the important stages in the development of the history of the Uzbek one-actor theater and the work of its actors. The author justifies the incomparable role of the Bakhshis in the development of this field, relying on scientific sources. It is worth noting that the performance of the bakhshis is based on the students of the One Actor Theater genre, and the epics they perform have their own dramaturgy. Also, the article contains important information about the history and present of the Uzbek one-actor theater.

**Keywords.** Theater, bakshi, actor, one-actor theater, folklore, epic, value, epic, solo performance.

“Айни вақтда ҳозирги глобаллашув даврида, тижорат воситасига айланган “оммавий маданият”, шоу безниснинг салбий таъсири тобора кучайиб бораётган мураккаб замонда, ҳар қандай миллий маданиятнинг булоғи бўлган фольклор санъатига эътибор ва қизиқиш, афсуски, сусайиб

бораётгани ҳам сир эмас. Холбуки, фольклор санъати, таъбир жоиз бўлса бу–инсониятнинг болалик кўшиғидир”.

Бундай кенг миқёсидаги Халқаро фестивалнинг ўтказилишида катта маъно мужассам. Ўзбек бахшилар санъатини давлат миқёсида катта эътибор билан эътироф этилиши бу санъат тури ривожининг кейинги босқичини белгилайди. Қолаверса, ёшларда якка ижорга, бахшилар санъатига бўлган ҳоҳиш ва истакларини яна юксалтиради. “Ўзбекистон – атоқли бахшилар юрти, улар орқали халқимизнинг бой қадриятлари, ўтмиши, орзу ва умидлари ифода этилади. Бахшиларимиз ижро этган дoston ва термаларда халқимизга хос юксак

ватанпарварлик, олийжаноблик, инсонпарварлик, она юртимизга муҳаббат ва садоқат ўз ифодасини топган”.

Демак, халқаро фестивалда ижро этилган ва телевидения орқали ҳаталаб намоиш этилган дostonлар инсонларни, ўсиб келаётган ёш авлодни – жўшқинлантириб, ватанпарварликка, инсонийликка, дўст-биродарликка, ота-онага ва ёрга садоқат руҳида тарбиялашга хизмат қилди. Президентимиз таъкидлаганларидек – Эпос қахрамонларининг мардонаворлигини улуғлаб, якка ижро орқали элга етказиш, барча миллатларда бор. Демак, дostonларнинг якка ижроси Ўрта Осиёдаги - ўзбек, қозоқ, қирғиз, туркман, қорақалпоқ бахшилари томонидан, жуда қадим замонлардан ижро этиб келаётган санъат туридир.

Ўзбек фольклор санъатининг таркибий қисми бўлган бахшилар санъати – Хоразм, Самарқанд, Қашқадарё, Сурхандарё ва Фарғона водийсида ўзига хос анъаналари ва ижро услуби билан фарқланади. Фарқланишининг сабаби – бахшилар санъати узок ўтмишдан оғиздан – оғизга, кўчиб, маҳаллийлашиб, такомиллашиб, сайқалланиб, устоздан-шогирдга, отадан-болага, бахшидан-бахшига ўтиб келган халқ дурдонаси эканлигидадир.

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти ректори филология фанлари доктори, профессор, Иброҳим Жўраевичнинг бахши атамаси батафсил ёритилган катта илмий мақоласи “ЎзДСМИ хабарлари” жўрналида эълон қилинди. Ушбу мақолада бахши сўзига манбаалар асосида жуда батафсил таърифлар келтирилган. Турли лўғатларда ҳар хил таърифлар келтирилган. Жумладан, Ўзбек тилининг изоҳли луғатида – Бахши – *санскритчада - бҳикшу*: будда руҳонийси, донишманди; дуохон; дарвеш маъносини англатган. Халқ кўшиқлари ва дostonларини ёддан куйловчи шоир, оқин. Ўзбекистон миллий энциклопедиясида, Бахши *мўғулча ва бурятча* - бахша, бағша – устод, маърифатчи, *санскритча*, бҳикшу – қаландар, дарвеш. *Биринчи маъноси* - халқ дostonчиси. Кўшиқ ва дostonларни ёддан куйловчи, айтувчи, авлоддан-авлодга етказувчи санъаткор. *Иккинчи маъноси* - мўғуллар истилоси даврида будда динидаги қаландарларни, Туркманларда уруғ оқсоқолларини ҳам Бахши деб аташган. Тадқиқотчилар маълумотларига кўра – “XVI асрга қадар шоҳ саройларида уйғур котиблари ҳам фаолият кўрсатиб келганлар ва улар бахши деб аталган”. Келтирилган манбаалар бахшиларни дostonни ёддан куйловчи якка ижрочи эканлигини далиллайди. Бахшилар ижросида эса, актёрлик санъатидаги ижро услубини яъни: ижро этилаётган воқеадан аввало ўзининг таъсирланиши; қахрамонлар характерини ифолаш; бу характерларнинг ранг-баранг талқини; характерларни ифодалашда ҳар бир ижрочи овоз имкониятидан фойдаланиб характерга мос бўлган оҳанглардан фойланиш; сингари омилларни кузатиш мумкин. Академик Мамажон Раҳмонов тахминига кўра – эпос, яъни қахрамонлик ҳақидаги асарлар ижрочилиги, Ўрта Осиёда куйидагича бўлган –

“Эпосларнинг театрлашган йўсинда ижро этилиши Ўрта Осиёни араблар истило қилгунигача давом этган. Токи ислом томонидан жонли образ яратиш тақиқлангандан сўнг, уни бир киши – бахши ёки дostonчилар ижро эта бошлаган бўлиши мумкин”.

“Анъанавий театр тарихига назар ташласак, ўзбекларда “бир актёр театри” шакли бахшилар кўлига дўмбира олиб халқ қахрамонларини улуғлай бошлаган кундан бери мавжуд эканлигига амин бўламиз. Чунки, бахши–ўзи шоир, ўзи бастакор, ўзи кўшиқ ижрочиси бўлиб, якка ўзи кечки йиғинни, яъни томошабинларни тонг отгунча “ушлаб” турган. Бу миллий, анъанавий “Бир актёр театри” миз қадимий эканлигини асослайди. Сабаби, бахши дostonни ижро этиш жараёнида “Бир актёр театри” жанрининг талабаларини бажаради. Алпомиш дostonини ижро этаётган бахши бир вақтнинг ўзида Масалан, Закот воқеаси – муаллиф, Бойбўри, Алпомиш (Ҳакимбек), Бойсари, оқсоқол Яртибой каби қахрамонлар номидан куйлайди. Бахши ўзи тўқиган куй ва оҳанглар орқали бу қахрамонлар характери ва обазини ижро этади. Бундай талаб – “Бир актёр театри” жанрининг талабидир.

Бахшилар ижроси ҳам ҳар қайси ҳудудда ўзига хос фарқланади. Самарқанд, Қашқадарё, Сурхандарё бахшилари ёпиқ ички овозда – дўмбира билан якка куйлашса, Хоразм бахшилари очиқ овозда – тор, дотор, буламон, ғижжак, кўшнай каби чолғулар ансамбли уйғунлигида куйланади. Бу ижрода бахши етакчидир. Уларда гармон чалиб куйлаган асл ижрочилар – халфа деб аталади.

Хоразмлик бахшилар ёки халфалар санъати икки услубга бўлинади. Улар – “Эроний” йўлидаги ҳамда “Ширвоний” йўлидаги услублардир. Бахшилар ёки халфалар саргузашт ёки ошиқона дostonларни куйлаганда соз, сўз ва овоз устунлиги, моҳирона ижро услуби ёрқин намоён бўлади. Масалан, саргузашт туркумидаги Гўрўғлида - “Гўрўғлининг туғилиши”, “Гўрўғли ва Базиргон”, “Гўрўғли хирмонда” кабилар бўлса, “Авазхон” туркумидаги ошиқона дostonлар - “Ошиқ ғариб ва Шохсанам”, “Ошиқ Маҳмуд ва Нигорхон”, “Тоҳир ва Зухра”, “Саёдхон ва Ҳамро” каби дostonлардир. Шулар сабаб, Хоразм бахшилари санъатининг асосий қисмини саргузашт ёки ошиқлик дostonларининг кўшиқлари ва куйлари ташкил этади.

Буюк устоз Комилжон Отаниёзовнинг якка ижро санъатига кириб келиши бахшилар ижоди билан боғлиқ. Бу ҳақда устознинг ўзлари шундай фикрларни билдирган – “Дostonни битта куйидан, мен ўнлаб кўшиқлар яратганман”. Демак, Хоразм бахшилари йўналишидаги кўплаб куйлар дostonлардан олинган лавҳалардир. Бунга – “Илғор”, “Туландон”, “Найларман”, “Кўр қиз”, “Эшвой”, “Шоҳ кўчди”, “Раҳм айла”, “Нолиш”, “Ширвоний” ва бошқалар мисол бўлади.

Мазкур санъат дурдоналарини бизгача етиб келишида Хоразм бахшиларининг тутган ўрни бекиёс. Сеёв бахши, Жуманазар бахши, Ёдгор бахши, Буюк бола бахши, Курбонназар Абдулаевлардан сўнг ижод этиб келаётган – Отахон Матёкубов, Норбек бахши Абдуллаев, Матёкуб бахши Абдуллаев, Матёкуб бахши Абдуллаев, Қаландар бахши Норматов, Етмишвой бахши Абдуллаев, Каримбой Отамурадов, Расулбек Абдурахмонов, Очилбек Матчонов ва устозлар таълимини олиб етишиб чиқаётган ёш бахшилар шулар жумласидандир. Улар ижросидаги дostonларда миллат руҳиятининг халқона тарздаги ифодасини кўрамиз.

“Фольклор шундай гўзал санъатки, унда муайян бир халқнинг тарихи, урф-одатлари, мақсади, орзу ҳамда ўйлари жуда нафис ва халқчил тарзда ифодалаб берилади. Қайси бир халқнинг фольклорига ошно бўсангиз, айнан, ушу халқнинг руҳияти, ўзигагина хос бўлган ҳаракатлари сизни мафтун этмай қўймайди. Фольклор - халқ бойлиги. Ўз бойлигини асраб қола олган халқ эса, бахтлидир”.

Ботир Матёкубов ўзининг “Достон наволари” китобида миллий дostonларни мавзу бўйича шартли беш турга бўлади. Улар – баҳодирлик, тарихий, диний, ишқий ҳамда дидактик дostonлардир. Бу турлар якка ижрога бел боғлаб, ҳаракат бошлаганлар учун дostonнинг мавзу ва ғоясини аниқлашда ёрдам беради.

Достонларнинг баҳодирлик ва қахрамонлик турларига - “Широқ”, “Тумарис” ва “Зарина” сингари ботирлик, жасорат тўғрисидаги ривоятлар ҳамда “Алпомиш”, “Тўрўғли”, “Соҳибқирон” каби дostonлар киради. Тарихий дostonларга эса, маълум бир тарихий давр ва йирик шахс ҳаёти билан боғлиқ муҳим аҳамиятга молик воқеалар асосида яратилган – “Искандарнома”, “Шайбонийхон”, “Темурнома”, “Шоҳ Машраб”, “Тошкентнома”, “Самарқанднома” каби дostonлар киради.

Диний мавзудаги дostonларга - “Меърож”, “Кийикнома”, “Амир Ҳамза”, “Иброҳим Адҳам”, “Қул Хўжа Аҳмад” каби ижод намуналари киради.

Ишқий мавзудаги дostonлар сон жиҳатидан салмоқли қисмни ташкил қилиб, ошиқнинг ишқий, муболағали саргузаштлари, эртақнамо афсона ва ривоятлар ёрдамида тасвирланади. Булар - “Ошиқ Ғариб ва Шоҳсанам”, “Ошиқ Маҳмуд”, “Ошиқ Албанд” ва бошқа дostonлардир.

Дидактик дostonларда, муайян тарихий даврдаги ахлоқий, ижтимоий сиёсий ҳаёт билан узвий боғланган, ахлоқий-тарбиявий воқеалар акс эттирилади. Буларга - “Авазхон”, “Юсуф ва Аҳмад” ҳамда бошқа дostonлар киради.

Достонлар ижросига ўз ижодини бағишлаган бахшилар санъатининг ривожига давлат миқёсида катта аҳамият берилмоқда. 2018 йил 1 ноябрда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Халқаро бахшичилик санъати фестивалини ўтказиш тўғрисида”ги Қарори қабул қилинди. Қарор ижросини



амалга ошириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги, Фанлар академияси ва Сурхандарё вилояти ҳокимлиги ҳамкорлигида 2018 йилнинг 5-10 апрель кунлари, Сурхандарё вилоятининг Термиз шаҳрида “Биринчи халқаро бахшичилик фестивали” ўтказилди. Фестивалда дунёнинг 74 давлатидан, 160 дан зиёд вакиллар, бахшилар ва ҳайъат аъзолари, халқаро меҳмонлар иштирок этди. Халқаро бахшилар фестивалини ўтказилиши, бу санъат ривожига яна бир босқичдир.

Халқимизнинг ноёб манбааларини бизгача етиб келишига беқиёс ҳисса қўшган бахшилардан энг аввало - бадихагўйлик, сўзамолик, мавзуда кўтарилган вазиятларни тўғри ифодалаш, воқеа ритмини ва муҳитини ҳис қилиш, томошабин кайфиятига кўтаринки руҳ бериш, матнни маҳорат билан ижро этиш талаб этилади. Бундай талаблар эса, актёрлик санъатига хос

ўлган жиҳатлардир. “Бадиха – импровизация театр санъатининг специфик хусусиятларидан биридир”.

Бахшилар учун зарур бўлган бадихагўйликка изох берсак. Бадиха – тайёргарликсиз, тўсатдан, шароитдан келиб чиқиб, завқ билан ижро қилинган шеър ёки қўшиқ маъносини англатади. Бу атама барча жаҳон халқлари ижодида учрайди. Муайян асарни ижро ёки қайта ижро этган бахшининг, унга киритган ижодий ўзгартишлари ҳам бадихагўйлик дейилади. У ижоднинг соҳа ва жанрлари хусусиятига кўра, ижронинг турли кўринишларида намоён бўлади. Масалан, аскияда - бадиха деганда, аввало, ижодкорлик таъбига эга, сўзга чечан кишиларнинг тайёргарликсиз, тўсатдан, қандайдир ички туғён билан, пайровга хос жозибали сўзларни ўринли ишлатиш тушунилади. “Ҳар қандай бадиха амалий тажриба ва иқтидор билан боғлиқ. Бахшилар, аскиячилар, масхарабозлар, эртақчилар ижросида бу жиҳат ёрқин намоён бўлади. Ҳатто, халқ оғзаки ижоди намуналаридаги айрим мавзуларни бахшилар бадиха асосида ижро этади”.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.**

1. Қодиров М. Ўзбек театр анъаналари. –Т.: Ғ.Ғулом. 1976.214-Б
2. Матёкубов Б. Достон наволари. –Т.: Илмий нашр, 2009.17-Б.
3. Mamirova, D. T. (2019). SOCIAL FACTORS AND MOTIVATION AS A WAY OF INCREASING ATTRACTING STUDENT YOUTH TO REGULAR ACTIVITIES BY PHYSICAL CULTURE AND MASS SPORTS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(4), 370-375.
4. Mamirova, D. T. (2019). INFLUENCE OF EASTERN HERITAGE ON THE FORMATION OF PERSONAL DEVELOPMENT. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(6), 430-433.

5. MAMIROVA, D. (2019). ASSOCIATION OF PHYSICAL PREPAREDNESS AND ACTOR MASTERY IN A SINGLE APPROACH DURING FUTURE SPECIALISTS TRAINING. *Culture and Arts of Central Asia*, 9(1), 68-72.
6. Mamirova, D. T. (2019). SOCIAL FACTORS AND MOTIVATION AS A WAY OF INCREASING ATTRACTING STUDENT YOUTH TO REGULAR ACTIVITIES BY PHYSICAL CULTURE AND MASS SPORTS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(6), 460-465
7. Mamirova, D. T., Abraykulova, N. E., Fazlieva, Z. K., Zokirova, S. M., & Jumaev, S. S. (2022). The Manifestation Of Creative Potential By Integrating Physical Culture And Departments Of The Youth Movement In Uzbekistan. *Journal of Positive School Psychology*, 6(7), 5221-5228.
8. Мамирова, Д. Т. (2021). Физиологические изменения в организме при физических нагрузках и средства восстановления. *Международный инженерный журнал исследований и разработок*, 6(1).
9. Мамирова, Д. Т. (2019). Основы организации и управления массовыми видами спорта в системе непрерывного образования. *Ученые записки университета им. ПФ Лесгафта*, (7 (173)), 113-117.
10. Мамирова, Д. Т. (2021). Национальная методология управления спортивно-массовыми мероприятиями. *Universum: филология и искусствоведение*, (1 (79)), 4-6.
11. Мамирова, Д. Т. (2022). ПРИЧИНЫ ПЕРНАПРЯЖЕНИЯ ФУНКЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ У ЗАНИМАЮЩИХСЯ СПОРТОМ ЛЮДЕЙ И МЕТОДЫ РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ. *Journal of new century innovations*, 10(3), 103-108.
12. Мамирова Д. Т. (2021). СОВРЕМЕННЫЙ ПОДХОД ПЛАНИРОВАНИЕ УЧЕБНОГО ЗАНЯТИЯ ПО ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ И СПОРТУ. *Академические исследования в области педагогических наук*, 2 (10), 867-870.
13. Мирзиёев Ш. “Халқаро бахшичилик фестивали” очилишига бағишланган тантанали маросимдаги нутқидан / Ўзбекистон овози. –Тошкент, 2019.8 апрель.
14. Муҳаммедова Д. -Т.: ЎзДСМИ хабарлари, - 2019/1(9). 73-Б.
15. Рахмонов М. Ўзбек театри қадимий замонлардан XVIII асрга қадар. Фан,-Т.: 1975.46-Б.
16. Tavakulovna, M. D., Erkinovna, A. N., Kamarbekovna, F. Z., Muratovna, Z. S., & Saidovich, J. S. (2022). Physical education and “union of youth” as an application of creative potential in Uzbekistan. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(6), 430-439.
17. Tavakulovna, M. D., & Kamarbekovna, F. Z. (2021). THE ROLE OF PHYSICAL CULTURE IN PROFESSIONAL APPLIED TRAINING IN THE UNIVERSITIES

OF ARTS AND CULTURE. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(1), 6-6.

18. Tavakulovna, M. D., & Shamshidinovna, N. A. (2022). METHODOLOGY FOR CARRYING OUT THE EDUCATIONAL PROCESS IN PHYSICAL EDUCATION AND SPORT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(3), 457-459.

19. Tavakulovna, M. D., & Shamshidinovna, N. A. (2022). OECD Principles of Corporate Governance and Well Organized Corporate Governance in Liverpool FC. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 4, 55-58.

20. Tavakulovna, M. D., & Shamshidinovna, N. A. (2022, March). USE OF MULTIMEDIA IN THE TRAINING PROCESS OF YOUNG GRECO-ROMAN WRESTLERS. In *Archive of Conferences* (pp. 32-37).

21. Умаров М. Эстрада ва оммавий томошалар тарихи. -Т.: Янги аср авлоди, 2009. 315-Б.

22. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2006. 180-Б.

23. Ўзбекистон миллий Энциклопедияси. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 153-Б.

24. Ўзбекистон миллий Энциклопедияси. –Т.: Ўзбекистон иллий энциклопедияси. Б ҳарфи. 19-Б.

25. Шербак А. Граматика староузбекского языка. -М.: Нука, 1962.с-34; Боровсков А.Лексика Среднеазиатского тефсира XII-XIII вв. –М.: Восточной литературы, 1963.С-21.

26. Юлдашев И. “Бахши” сўзи этимологияси.-Т.:ЎзДСМИ хабарлари, 1/(9)2019.3-Б.

## DORIVOR O'SIMLIKLAR, O'SIMLIKLAR HAYOTIDAGI MUHUM KIMYOVIY ELEMENTLAR, O'SIMLIKLAR O'SISHIDAGI SHAMOLNING TEZLIGI

*„Inson izlayotgan narsani u allaqachon yaratgan “*

*(Abu Ali ibn Sino)*

***Nurmo'minov Dilmurod Zokirovich***

*Jizzax viloyati Jizzax shaxrining*

*29 -maktabning Fizika fani o'qituvchisi*

***Tilovova Iroda Achilovna***

*Jizzax viloyati Jizzax shaxrining*

*29- maktabning Biologiya fani o'qituvchisi*

***Xakimova Qunduz Qodirovna***

*Jizzax viloyati Baxmal tumani*

*68-maktab kimyo dani o'qituvchisi*

***Doniyorova Madina Qodirovna***

*Jizzax viloyati Jizzax shaxrining*

*29-maktab kimyo fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish uchun asosiy g'oya, nazariya, qonuniyatlari va tushunchalari va o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda biologiya fanining ahamiyati to'g'risida muloxazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlari:** O'quvchilar, biologik obektlar, hayot faoliyati zarur omillari, o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi.

O'quv fanining mazmuni dialektik-materialistik nuqtai nazardan yoritilishi, o'quvchilar tomonidan organik olam va unda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni tushunibgina qolmasdan, balki tirik organizmlarda boradigan hayotiy jarayonlarning mohiyati, mazkur jarayonlarga ta'sir ko'rsatadigan omillar, tirik organizmlarning yashash muhitiga moslashishi va xilma-xilligining sabablarini anglaydilar.

O'qitishning bu shaklda tashkil etilishi o'quvchilarning faktlar, hodisalarning o'zaro bog'liqligi ustida mulohaza yuritishiga yordam beradi. Mulohaza yuritish talabalarning o'quv materialini ongli va puxta o'zlashtirishiga imkon yaratib, ularning ilmiy dunyoqarashi, mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini tarkib toptirish va rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

O'zbekiston dorivor o'simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. 50 dorivor o'simliklar (va ularning foydalari)

Aytganimizdek, qiziqarli xususiyatlarga ega bo'lgan va turli xil muammolarni engillashtiradigan yoki oldini olishga yordam beradigan dorivor o'simliklar juda xilma-xil.

Dorivor o'simliklardan ko'proq, anor, achchiqmiya, bodom, dorivor gulxayri, yong'oq, jag'-jag', zubtutum, isiriq, itburun, omonqora, pista daraxti, sachratqi, choyo't, shildirbosh, shirinmiya, shuvoq, yantoq, yalpiz, kiyiko't, tog'rayhon, qizilcha, qoqio't va boshqalari tarqalgan.

**Sarimsoq piyoz.** Immunitet tizimining kuchli kuchaytiruvchisidir va antibakterial va antibiotik bo'lishdan tashqari, samarali qon aylanishini ta'minlaydigan ta'sirga ega (u antikoagulyant). antioksidant xususiyatlar.

**Arpabodiyon.** Stressni kamaytiradi, asab va ovqat hazm qilish tizimlarini tinchlantiradi va shamollash, stomatit va faringit bilan muvaffaqiyatli kurashadi.

**Qichitqi o't.** Tabiiy antigistamin preparat hisoblanadi, ushbu giyoh turli allergiyalarni davolashda, organizmni mustahkamlashda hamda yallig'lanishda samarali natija ko'rsatadi. Shuningdek u jigar, buyrak va o'pka kasalliklarini davolashda yaqindan yordam beradi.

**Jyenshen.** holsizlik bilan kurashadi va organizmni qo'shimcha quvvat bilan ta'minlaydi.

Bu o'simlik asosan insonga quvvat berishi bilan mashhur bo'lsa-da, u bir qator boshqa xususiyatlarga ega. U past qon bosimi, muntazam charchoqlik, ishtaha yo'qligi, ishchanlik faoliyatining kamayishi, bepushtlik, asab tizimi kasalliklarida ham tavsiya qilinadi.

**Rayxon.** balg'amni bronxlar va o'pkadan olib tashlaydi va yo'tal va burunning oqishi bilan kurashadi.

Qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil olishda mahalliy o'g'itlar bilan bir qatorda mineral o'g'itlarning ahamiyati ham juda katta.

O'simliklarning normal hayot kechirishi uchun uglerod, vodorod, kislorod, azot, fosfor, kaliy, kalsiy, magniy, temir kabi elementlar zarur. Ayniqsa, ushbu elementlardan **azot, fosfor** va **kaliy**ning ahamiyati juda muhimdir

**Kaliy** g'uncha, gul, meva uchun zarur. **Azot** poya va barglar o'sishi uchun zarur

**Fosfor** ildizlar o'sishi uchun zarur.

**N-Yetishmasa.** O'simlik o'sishi sekinlashadi, Barglari maydalashadi, Pastki qismidagi barglar sarg'ayib to'kiladi, O'simlik kam hosil beradi.

**N- Ortib ketsa.** O'simlik o'sishi tezlashib ketadi, Barglari yiriklashib ketadi, Pastki qismidagi barglar qayrilib boshlaydi, O'simlik hosili pishmay qoladi.

**P-Yetishmasa.** O'simlik o'sishini sekinlashtiradi, Barglari ko'kimtir-yashil tushga kiradi, Pastki qismidagi barglarida dog' paydo bo'ladi, Barglari bukulib, sarg'ayib to'kiladi.

**P- Ortib ketsa.** Barglarining uchi va chetlari kuyadi, Yangi barglari yupqa o'sadi, Pastki qismidagi barglar bukilib, dog' hosil bo'ladi, Pastki qismidagi barglar bukilib, dog' hosil bo'ladi

**Temir** - o'simlikda azot, fosfor va kaliyning o'zlashtirilishini tezlashtiradi.

Mis, rux va marganeslar o'simlikda sodir bo'ladigan oksidlanish - qaytarilish jarayonlarini tezlashtiradi.

O'simliklar makro va mikroelementlarni ionlar tarzida o'zlashtiradi.

Tuproq eritmasida ionlarga ajraladigan moddalar *mineral o'g'itlar* deyiladi.

Qishloq xo'jaligi o'simliklaridan yuqori hosil olish uchun mineral o'g'itlardan to'g'ri foydalanish kerak. Mineral o'g'itni o'simlikka qachon, qanday, qancha miqdorda berish kerakligini albatta bilish zarur. Agar o'simlikka keragidan ortiqcha o'g'it berilsa, uning ortiqcha miqdori o'simlik organizmida to'planib qoladi. Bunday o'simliklardan olingan mahsulotlar iste'mol uchun umuman yaroqsiz hisoblanadi.

Mineral o'g'itlarni tarkibidagi ozuqa elementlari (N, K<sub>2</sub>O, P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>) ning mavjudligiga qarab oddiy yoki kompleks o'g'itlarga bo'lish mumkin

Bodring barglari atrofidagi oqamtir yashil rang unda molibden yetishmasligidan darak beradi, Limonning barglari maydalashishi rux yetishmasligidandir, Pomidor barglarining uchlari buralishi mis yetishmasligidan.

Shamol yo'nalishi gradus yoki rumbalar bilan ifodalanadi. 5–8 m/sek tezlikdagi Sh. o'rtacha, 14 m/sek tezlikdagi Sh. esa kuchli hisoblanadi; 20–25 m/sek tezlikdagi Sh. dovul (shtorm), 30 m/sek tezlikdagi Sh. bo'ron (uragan), uning birdaniga 20 m/sek gacha keskin kuchayishi qasirg'a (shkal) deyiladi.

Troposferadai yuqori ko'tarilgan sari Sh. tezligi kuchayadi, 8–10 km balandlikda 60–70 m/sek dan xam ortib ketadi.

Yaylov o'simliklari. Bu joylarning iqlimi tog' mintaqasidagiga nisbatan ancha salqin va quruq bo'ladi. Qisqa yoz faslida ba'zan havo harorati kechalari —5°C gacha pasayishi mumkin. Qishda sovuq —40°C va undan past bo'ladi. Yillik yog'in miqdori 400 —600 mm atrofida o'zgarib turadi.

O'quvchiga o'simliklarning foydali va zararli tamonlarini va o'simliklarni qanday o'sishini o'rganib oladi xalq xo'jaligiga ahamiyati katta.

## THEORY OF MODERN EDUCATION IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION

*Aliyeva Nargiza Ravshanjon qizi.*

*1st year master's student, NamPI, Namangan*

**Annotation:** The process of globalization is how concepts, information, expertise, goods, and services go across national and international borders. Modern education is the education where technologies play a valuable role in these days. So theories of modern education varies from the past old traditional education and due to the globalization of all countries the teaching method of education changed. In this article i want to discuss the education in this modern world and the effect of globalization to the modern education.

**Keywords:** globalization , modern education, theories, teaching.

Education is one of the values in every country or city. By taking knowledge and finding out new knowledge, we begin to think more deeply and our outlook widens. The effects of other developed countries in developing countries is much and Uzbekistan as a developing country made many reforms in the field of education and in other spheres. While implementing the new rules and reforms of course they take the best practices of other countries throughout the world, and try to adapt them to local conditions. As globalization in whole world in changing rapidly our government tried to provide with the last technologies and tried to solve many problems in the field of education.

The enormous difference between modern and last education is the technologies that are appeared and almost each citizen of Uzbekistan permanently use various types of gadgets. Firstly saying about their advantages, there are very convenient to use and have contributed in many field with their useful and time-saving qualities. However, children from the young ages becoming addicted to the gadgets and becoming more and more lazy to learn and work. As the access directly opened to the whole world due to the WWW( world wide web) and the internet now every human can share or look through the any information within the seconds.

In this article I want to discuss firstly the term globalization and further look through the education and the modern education and some problems teachers face in teaching process.

The term globalization is one of the frequent words that is used nowadays, so what is the globalization and what is the aim of it?.The process of globalization is how concepts, information, expertise, goods, and services go across national and international borders. The phrase is used in the business world to refer to linked

economies characterized by free trade, the free movement of capital across nations, and simple access to foreign resources, especially labor markets, in order to maximize profits and benefit for the general welfare.[1] According to many academics and political activists, globalization refers to a multitude of recent developments in economic, political, cultural, ideological and environmental practices, additionally globalization as a comprehensive system covering global, regional and local facets of social life in clear understandable English.[2] Fischer describes globalization as the process of increasing interconnectedness between nations and their inhabitants is challenging and has several facets.[3] To conclude briefly, globalization is the process by which ideas, education, information, goods and services spread around the world and interchange anything that they learn and do. In this century globalization is very rapid as the technologies have influenced much in interconnectedness and spreading information became very easy.

Uzbekistan is the developing country where, education is valued and the government is trying to reform the educational systems of pre-school, primary, secondary and high education sectors. To provide each citizen of Uzbekistan with cheap and comfortable educational conditions, the government is allocating a great deal of capital from its own budget and giving many possibilities and convenience to the private sectors and investments to the education is increasing gradually, nowadays. Hakimov and et al. note that “It should be mentioned that Uzbekistan has been undergoing a new stage of growth for years, and focused large-scale effort has been done to reform the entire system of preschool and school education, which is incredibly essential from the point of producing novel ideas, developing, and introducing new technologies. Pedagogical innovations, as well as instruction and preparation for students to achieve the nation's socioeconomic progress”.[4]

While the education systems of the country is changing, of course it reforms and matches the system to the condition of globalization. To fit the standards of the world teaching system, the reforms in the field of education is implementing and while we say about the recent technologies that have affected to the education process, new and recent technologies are going to be installed and given to usage. TV, slide projectors, computers, laptops, smart boards and classes are built and utilising to achieve better results and highly qualified teachers are working to assist the students in all field of education and these recent and novel tools are the way to innovative ideas and new orientation of students to invent new technologies are happening. The role of pedagogies and staff is also should be confessed. The purpose of orienting these new technologies are the following;

3. Socioeconomic changes that need the inventive upgrading of educational system content, technique, and technology;



4. The list of academic institutions is always changing disciplines, which necessitates a continuous look for learning new organisational structures technologies;
5. Access to a single, worldwide educational environment, the benefit of a system of education with several levels, it allows for extensive tempo flexibility learning and selecting a future field of expertise by students. [5]

On the other hand, the absence of incentives for better student achievement is the main issue with present school policy. In the majority of the world's nations, neither pupils nor teachers are often heavily rewarded for outstanding achievement. [6] It is easier and more convenient for students to follow the leader from their country and follow them in every sphere and in their speciality subject, however the people, who achieved high results in their profession and done many useful projects are not known and famous enough for each students of schools and other educational institutions By introducing the famous people we can motivate the students to study well and both the leader people and the students should be encouraged in their future achievements. So, the government and the teachers are trying to implement novel and innovative orientations to the education of Uzbekistan and encouraging by different incentives are the main factors of improving the quality of education in our country.

The next stage can be in the nurturing process of young generation and absorbing the love an responsibility to the mind of the students, and leading them to the novel and innovative ideas, steps and goals of them. Darmonov notes that the fundamental objectives of the continuing reforms and historical transitions to create a new Uzbekistan are to guarantee the constant growth of our people, a democratic rule of law, a more prosperous civil society, life, dignity, rights, and rights of our countrymen, to completely guarantee the people's freedom, and to further improve the perception of our nation abroad and the truth is supported by extensive changes that are being implemented in our nation across all facets of life. [7]

Furthermore the role of education is very paramount feature, as without proper education any country can develop and improve their cultural, economical, governmental, and the societal status of people. The main concentration should be directed to the education of each generation and only knowlegde and knowledgable people can improve the economical and social issues. However, the literacy level of Uzbek nation is high the result of school and educational institutions are not fitting to the global standards. And many reforms are to correct and implement innovative orientations for the progress of the country.

### **Conclusion.**

To conclude the article, we endeavoured to discuss several issues about the modern education in the conditions of globalization and looked through the several issues and reforms which were held in the educational institutions of Uzbekistan.

Firstly, the main variety in the modern education is the implementation of different and useful technologies and gadgets to fit the global standards of education and improve the knowledge of the nation.

Secondly we looked through the problems that are appealing in the educational systems, namely lack of incentives, shortage of high qualified staff and the will of students to study well. Thirdly, the encouragement and guide of every citizen of Uzbekistan is being a great help in taking reforms in the educational institutions. Next issue was the behaviour main goals of students to study or contribute to the Uzbekistan in many ways.

### Reference;

[1] Nikoloz Parjanadze, 2009, Globalisation theories and their effect on education, IBSU Scientific journal 2009, 2(3),77-88.

[2] Manfred Steger, Globalization, Sterling Publishing company, 2010

[3] Stanley Fischer, globalization and its Challenges, AEA papers and proceedings, 2003, Richard T ELY lecture Vol 93, No 2.

[4] Hakimov Nazar Hakimovich, Sadikov Anvar Karimovich, Abdumalikov Abdulatif, Abdulajanovich, Rustamov Ilhomiddin Abdukarimovich, Iminov Begzod Begijonovich, 2020, Reforming the education system in the conditions of a new stage of development. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(6), 4384-4395.

[5] Ortiqova, D. (2022). INNOVATIONS—AS A MEANS OF MODERNIZATION OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 2(06), 1-4.

[6] Hanushek, E. A., & Wößmann, L. (2007). The role of education quality for economic growth. *World Bank policy research working paper*, (4122).

[7] ABDUKHALILOVICH, D. A. (2022). The Factor of Formation of Meaning in Youth in the Conditions of Creating a New Uzbekistan. *Czech Journal of Multidisciplinary Innovations*, 5, 6-9.

## POSSIBILITIES OF USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH

*Abdiraximova Z.O', student of UzSWLU  
Supervisor: Yuldasheva.F.F, senior teacher  
of UzSWLU*

**Annotation:** The article discusses the convenience and advantages of teaching English with the help of modern technology tools and the benefits of teaching with effective methods to effective students and teachers. Also, there is mentioned importance of foreign language in our technology century.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tilini zamonaviy texnologiyalar yordami bilan o'qitishning qulayliklari va foydali tomonlari muhokama qilinadi. Shuningdek, samarali o'quvchilar va o'qituvchilar uchun samarali usullar bilan o'qitishning afzalliklari haqida so'z boradi. Shuningdek, unda bizning texnologiya asrimizda xorijiy tilning muhimligi ham keltirib o'tilgan.

**Аннотация:** В статье рассматриваются удобство и преимущества обучения английскому языку с помощью современных технических средств и преимущества обучения эффективными методами для эффективных студентов и преподавателей. В нем также упоминается важность иностранного языка в наш технологический век.

**Key words:** modern technology, foreign language, reading, writing, speaking and listening skills.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy texnologiyalar, chet tili, o'qish, yozish, gapirish va tinglash qobiliyatlari.

**Ключевые слова:** современные технологии, иностранный язык, навыки чтения, письма, разговорной речи и аудирования.

After the independence of our country, the interest in teaching foreign languages has increased and many opportunities have been created for young people. As the first President Islam Karimov said, "At present, great importance is attached to the teaching of foreign languages in our country. This, of course, is not in vain. Today, there is no need to underestimate the importance of perfect knowledge of foreign languages for our countries, which are striving to take a worthy place in the world community, for our people, who are building their great future in cooperation with our foreign partners.

As a logical continuation of these ideas, the Presidential Decree of December 10, 2012 On measures to improve further the system of teaching foreign languages expanded the opportunities for learning foreign languages. In addition to this resolution, the resolution of the President of the Republic of Uzbekistan On measures to bring the promotion of foreign language learning in the Republic of Uzbekistan to a

qualitatively new level” 2021.[1] In accordance with the Resolution No. PQ-5117 of May 19, 2006, as well as for the effective implementation of organizational measures to promote the study of foreign languages, the Cabinet of Ministers decides: Teaching a foreign language in the Republic, knowledge of foreign language teachers and new methods and requirements for assessing skills have been developed in accordance with the Pan-European Framework Recommendations (CEFR). [2] The new pedagogical method has been introduced in all educational institutions across the country. According to him, textbooks have been created for students of secondary schools and vocational colleges. In accordance with these requirements, classrooms are equipped with stands and new information and communication technologies. The demand for learning a foreign language is growing day by day. Foreign language science is divided into four aspects (reading, listening comprehension and speaking), each of which provides specific concepts and skills. Educational technology is the effective use of modern information technology in the educational process. It also aims to improve the quality and effectiveness of education through the introduction of modern innovative technologies in the educational process. In particular, there are several advantages to using such information and communication technologies in learning a foreign language. The role of modern technology in language learning and teaching is invaluable. The use of technology is useful in every aspect of learning a foreign language (reading, listening and speaking). For example, to listen and understand, of course, it is impossible to do this process without a computer, player, CDs. Listening is one of the most important parts of language learning. This requires the student to pay attention to the speaker's pronunciation, grammatical rules, vocabulary, and meanings at the same time. The use of modern technologies in the educational process is also an important factor for students to be familiar with and use information and communication technologies. One of the most effective ways is to teach and learn a foreign language using modern technology.[3]

These processes include encourages students to organize new information in more foreign languages. In the modern equipped foreign language classrooms, the teacher increases the interest of the students through various games during the lesson. At the same time, the reader learns how to use both language and modern technology for useful purposes.

In short, in the 21st century, the age of modern technologies, the best way for every student is to use modern methods and techniques in the classroom in order to ensure effective and quality education of all students in a foreign language. Using modern technologist and methods during classes helps both teacher and student.

#### **REFERENCES:**

1. Presidential Decree "On measures to improve further the system of teaching" foreign languages ", adopted on December 10, 2012.

2. In accordance with the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to bring the promotion of foreign language in the Republic of Uzbekistan to a qualitatively new level" in accordance with the Resolution of the Republic of Uzbekistan No. PQ-5117 of May 19, 2021, as well as the study of foreign languages Resolution of the Cabinet of Ministers for the effective implementation of organizational measures for the promotion.

3. Bekmuratova U. B. Abstract on "The use of innovative technologies in the teaching of English.". Tashkent – 2012.p.24

## JADIDLAR ORZU QILGAN IJTIMOYIY TUZUM

*Kosonsoy tumani 1- son  
kasb- hunar maktabi tarix fani  
o'qituvchisi K. Muxammadiyev*

**Annotatsiya:** XIX asr oxiri – XX asrning birinchi choragida Turkistonda faoliyat ko'rsatgan ijtimoiy-siyosiy oqim – jadidlar to'g'risida adabiyotlarda har xil qarashlar mavjud. Bunday qarashlarning ayrimlarida Turkiston jadidlari ma'rifat va madaniyatda juz'iy islohotlar o'tkazishdan yuqori ko'tarila olmadilar, ularning siyosiy maqsadlari cheklangan, davlat to'g'risidagi tasavvurlari tiniqlashmagan edi, degan fikr ilgari suriladi.

*Haqiqatan ham, Turkiston jadidlari ijtimoiy tuzum, davlat to'g'risida muayyan konsepsiyaga, aniq qarashga ega bo'lmaganlarmi? Haqiqatan ham, ularning davlat to'g'risidagi tushunchalari e'tibor berishga arzimaydimi? Bu savollarga javob qaytarishdan oldin yuzaki bo'lsa-da, jadidlikning mohiyatiga nazar tashlaylik.*

**Kalit so'zlar:** Turkiston jadidlari, feodal qoloqlik, xilma-xil harakat, ta'limot, siyosiy oqim va firqalar.

Kishilik jamiyatining ko'p asrlik tarixi xilma-xil harakat, ta'limot, siyosiy oqim va firqalarni vujudga keltirdi. Buning asosiy sababi bashariyatning adolatli, insonparvar jamiyat qurish uchun, zulm va zo'ravonlikdan, qullik va mustabidlikdan, tengsizlik va jaholatdan qutulish uchun tinimsiz izlanishi edi.

XIX asrda feodal qoloqlik Sharqni g'arblik mustabidlarga qaram bo'lishga olib kelgani sabab milliy zulmdan qutulish uchun ozodlik kurashi asosiy ijtimoiy dastur hisoblanardi. Ozodlik, mustaqillik, erkka feodal qoloqlikdan, jaholatdan qutulgandagina erishish mumkin bo'lgan. Buning uchun jamiyatdagi mavjud tuzumni tubdan isloh qilish lozim ediki, shunday taraqqiyparvarlar qotib qolgan, daqqi kuchlar, ya'ni "qadim" (eski)larga qarshi turuvchi "jadid" (yangi)lar sifatida maydonga keldi. Shu bois jadidlar Misrda ham, Turkiyada ham, Turkistonda ham siyosiy oqim tarzida paydo bo'ldi. To'g'ri, ularning shakllanganlik, taraqqiy topganlik darajasi bir xil emasdi.

Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan o'lkalarda ham XIX asr oxiriga kelib milliy-ozodlik harakatlari oxir-oqibatda jadidlarni tarix sahnasiga chiqardi. Milliy istibdod zanjiriga tushgan xalq va elatlar qudratli imperiya changalidan faqat birlashib harakat qilgandagina qutulishlari mumkin edi. Buning uchun, eng avvalo, milliy ongni uyg'otish, millatning o'zligini anglab yetishuviga erishish lozim edi. Ana shunday fikrga birinchilardan bo'lib qrimlik Ismoil Gasprinskiy keldi. U mazlum xalqlarda milliy g'urur va milliy o'z-o'zini anglash, vatanparvarlik, ona-yurtga muhabbat

tuyg'ularini shakllantirish – ularni milliy-ozodlik kurashiga tayyorlashning poydevori deb bildi.

Mazlum xalqlarni erk va ozodlikka eltish, moddiy va ma'naviy nochorlikdan qutqarish yo'llarini izlar ekan, I.Gasprinskiy bir xulosaga keldi: 1895 yili yozgan maqolaridan birida "ilm-fanni taraqqiy ettirish va uni takomillashtirish uchun, eng avvalo, yangi hamda mutlaqo o'ng'ay g'oya zarur", deydi u. Shu bois turkiy qavmlar, umuman, Rossiya musulmonlari, eng avvalo, asriy jaholatdan, feodal qoloqlikdan qutulib, dunyoviy ilmlarni, zamonaviy fan va texnikani egallab, taraqqiy topgan millatlar darajasiga ko'tarilishi lozim degan g'oyani ilgari suradi. Bu g'oya esa insonning dunyoqarashi, saviyasini shakllantiradigan ta'lim-tarbiya tizimini isloh etishdan iborat edi. Natijada, u musulmonlar olamida yangi bo'lgan "usuli savtiya tadrijiya"ni joriy etishga kirishdi va kutilgan natijalarga erishdi.

Bu usulni Gasprinskiy Kavkazdagina emas, Turkistonda, Volga bo'yida ham joriy etishga tashviq qildi. Mazkur o'lkalarda ham uning tarafdorlari, izdoshlari yuzaga keldi. Turkistonda Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori, Abdulqodir Shakuriy, Fitrat va boshqalar uning hammaslklari edi. Gasprinskiyning bu yangi va o'ng'ay g'oyasi ma'rifatni egallash g'oyasi edi. Xuddi shuningdek, uning turli jamiyatlar tuzish, milliy manfaatni himoya qiladigan matbuot yuzaga keltirib, undan bosh maqsad yo'lida foydalanish, anjumanlar (s'ezd va kongresslar) o'tkazish kabi g'oyalari ham turkistonlik hammaslklari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Ayni paytda, jadidchilik yuzaga kelgan vaqtda bu harakatga qo'shilmagan holda Rossiya imperatoriga iltimosnomalar yozib, muayyan yengilliklarni qo'lga kiritishni maqsad qilib qo'ygan guruh ham bo'lgan.

20-yillarning ko'zga ko'ringan tarixchilaridan Ye.Fyodorov arxiv hujjatlari asosida O'rta Osiyoda, jumladan, Toshkentda mahalliy xalq orasida ana shunday guruh bo'lganini qayd etadi va bu guruhni "islomchilar guruhi" deb atab, uning faoliyatiga quyidagicha baho beradi: 1905 yil yanvar voqealari munosabati bilan toshkentlik boylardan ayrimlari birontasining uyiga yig'ilishib, musulmonlar uchun mustaqil mahkamai shar'iy tashkil qilish, vaqf mulklarini qaytarib olish, qozilar huquqini tiklash, o'lganlarni Toshkent shahri ichidagi qabristonlarga ko'mish uchun ruxsat berilishini so'rab "oqqoshsho"ga ariza yozganlar. Ularning siyosiy xarakterdagi eng katta iltimosi musulmonlar istiqomat qiladigan eski shahar uchun alohida idora (ma'muriyat) tashkil etilishini so'rash bo'lgan.

Mazkur arizalarni chor hukumati e'tiboriga yetkazish 2-Davlat dumasining Toshkent eski shahar qismidan saylangan a'zosi Obid Qoriyevga topshiriladi. Biroq bu ariza va shunga o'xshagan boshqa xatlar beoqibat qoldirilgan. Mazkur islomchilar guruhi "... O'rta Osiyodagi o'zbeklar va qirg'izlar (qozoqlar – B.D.) orasida va Buxoroda bo'lgan boshqa oqimga dushman edilar. Bu oqim "Tarjumon" gazetasining ta'siri ostida vujudga chiqqandur va uning ismi "jadidchilik"dir". Birinchi guruh

keyinroq borib ulamolar guruhi (firqasi)ni tashkil qilgan bo'lsa, keyingisi jadidchilik oqimini vujudga keltirdi. Ulamolar va jadidlar ayrim hollardagina o'zaro kelishgan bo'lsalar-da, aksari hollarda bir-biriga muholifatda, hatto dushmanlik kayfiyatida bo'ldilar. Shu tariqa, "eski"lik ko'proq ulamolar guruhida namoyon bo'ldi. Jadidlar ham "qadim"lar, ham mustabidlarga qarshi turishiga to'g'ri keldi. Demak, jadidlarning millat erki va ozodligi, uni moddiy va ma'naviy jihatdan yuksaltirish yo'lidagi kurashlari ular nomi bilan bog'liq siyosiy oqim mohiyatini tashkil etadi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash zarurki, Turkiston jadidlari siyosiy saviyalari, kurash tajribalariga ko'ra Volga bo'yidagi, Kavkazdagi, hatto Alash O'rdadagi jadidlarga qaraganda ham orqaroqda edi.

Buning sababi, avvalo, tatarlar, boshqirdlar, kavkazliklar va qozoqlar turkistonlilarga qaraganda Rossiya mustabidligiga ilgariroq tushib, o'z haq-huquqlari yo'lida ertaroq kurash yo'liga kirgan edilar. XIX asr oxirida Turkistonda sodir bo'lgan bir hodisa ham bu yerdagi jadidlarning hadik aralash faoliyat ko'rsatishlariga sabab bo'lgandi. Bu hodisa nimaligini qayd etishdan oldin ta'kidlash lozimki, Turkiston XIX asr ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan zabt etilgach, o'lka xalqlari mustabidlik zanjiriga solingan edi. Erksevar ajdodlarimiz oyoklariga milliy mustabidlik kishani urilganiga osonlikcha ko'nikib qo'ya qolmadilar: ular ozodlik uchun kurash olib bordilar. XIX asrdagi Po'latxon boshchiligidagi qo'zg'olon, Dukchi eshon qo'zg'oloni, Toshkentdagi "vabo isyon", Zarafshon va Farg'ona vodiysidagi mustabidlarga qarshi ko'tarilgan g'alayonlar buning yorqin misolidir. Mana shu isyon va qo'zg'olonlar ichida 1898 yil may oyida bo'lib o'tgan Dukchi eshon (Muhammadalixon) qo'zg'oloni ikki jihati bilan e'tiborga loyiq. Birinchisi, mustabid chor hukumati endi mahalliy aholi erk, istiqlol uchun bosh ko'tarolmaydi, deb qattiq ishonib yurgan paytda mazkur qo'zg'olon sodir bo'ldi. Qo'zg'olonga mustabidlar nazarida "savodsiz", "joxil va nodon" bir ruhoniy – eshon boshchilik qildi. Minglab kishilar uning ketidan ergashib ozodlik, mustaqillik kurashiga otlandi.

Bu voqea mustabidlarni o'zlari Turkistonda yurgizayotgan siyosatga muayyan "tahrir" kiritishga majbur qildi. Mustabidlar xalqni butkul nodonlikda, jaholatda tutib turish o'ta xavfli ekaniga amin bo'ldilar. Oqibatda ular xalqqa ma'rifat berish kerak, faqat bu ruslarga nisbatan iliqlik hissini uyg'otadigan tizim asosiga qurilgan bo'lsin, degan to'xtamga keldilar. Bunga rus tili, madaniyatini yuzakigina o'rgatish, ularga rus turmush tarzini singdirish orqali erishish mumkin, degan xulosa chiqarildi. Mustabidlar nazarida, sxolastika asosiga qurilgan eskicha ta'lim usulini ham qisman o'zgartirish kerak. Toki u yerdan o'zlariga qarshi fanatik johil olomon paydo bo'lmasin. Shu tariqa o'tgan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida chor ma'murlari mahalliy aholi uchun rus-tuzem maktablarini ko'paytirishga majbur bo'ldi, katta yoshdagilarni ham rus tiliga o'rgatuvchi bepul kechki kurslar ochishdi.



Dukchi eshon voqeasi erk, mustaqillik uchun yonib yurgan mahalliy xalqlar vakillariga ham o'ziga yarasha saboq berdi. Qudratli, zamonaviy qurollarga ega muntazam armiyasi bor saltanat – Rossiya changalidan ongsiz, uyushmagan holda ibtidoiy qurollar bilan qutulib bo'lmaydi.

Garchi Yaponiya masofa jihatidan Turkistondan juda uzoqda bo'lsa ham, 1904–1905 yillardagi rus-yapon urushi o'lka xalqlarining dilida umid uchqunlarini qayta alangalantirdi. “Rossiya qudratli, ulkan saltanat bo'lsa, nega o'zidan kichkina Yaponiyadan yengilyapti?” “Demak Rossiya biz o'ylagandek mustahkam emas ekan”, “Eshitdinglarmi, yaponlar ham musulmonlar emish?” “Yaponlar ham turkiylar ekan”, “Yaponlar kelib Turkistonni ruslardan ozod qilisharmish...” Bunday mish-mishlar ko'cha- ko'yda, bozorlarda, choyxona va gap-gashtaklarda kuchayadi. Mahalliy aholi Rossiyani ham yengadigan kuch borligiga ishona boshlaydi. Muhimi, milliy-ozodlik yo'liga kirgan kurashchilarning yuragiga dalda baxsh etadi.

XX asr boshlarida shunday katta bir tarixiy voqea ham sodir bo'ldiki, u turkistonlik jadidlarga zimmalarida turgan vazifalarni amalga oshirishda muayyan shart-sharoit yaratish uchun omil bo'ldi. Bu 1905–1907 yillar rus inqilobi, Eron va Hindistondagi inqilobiy harakatlar edi. 1905 yili inqilobiy harakatlardan tahlikaga tushib qolgan Rossiya imperatori Nikolay Ikkinchi 17 oktabr manifesti deb atalgan hujjatga qo'l qo'yishga majbur bo'ldi. Mazkur manifestga ko'ra, Rusiya fuqarolariga so'z, matbuot va jamiyatlar tuzish erkinligi va'da qilingandi. Rossiya istibdodiga tushgan millat va elatlar yuzaga kelgan “zig'irdek” imkoniyatdan foydalanib qolishga o'rganib qolgandilar. Ushbu imkoniyat ham samarasiz qolmadi. Ular 1906 yilning 14 iyunidan boshlab dastlabki milliy gazeta “Taraqiy”ni chiqara boshladilar.

### Adabiyotlar

1. Oblomurodov N, Hazratqulov A va boshqalar. O'zbekiston tarixi.(o'quv qo'llanma)T.2011
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.T:O'zbekiston.1999.B.385
3. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. Oyna-1914. 41-son
4. M.Abdurashidxonov. Xotiralarimdan(Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq-2001. B108-109

## SHAXSIY KOMPYUTERLARNING TURLARI VA TEXNIK KO'RSATKICHLARI

*Moxinur Sadilloeva Najmiddin qizi*

*Navoi viloyati Uchquduq tuman kasb- hunar maktabi*

*Shaxsiy kompyuter arxitekturasi va ofis jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada shaxsiy kompyuterlarning turlari, modellari va texnik ko'rsatkichlari, kompyuterni ishga tayyorlash, shaxsiy kompyuterlarni takomillashtirish va elektr ta'minoti buzilishlaridan himoya qiluvchi qurilmalari haqida batafsil bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxsiy kompyuterlar, texnik ko'rsatkichlar, elektr ta'minot, axborot texnologiyalar.

### **Kirish:**

Axborot jamiyat uchun moddiy yoki energetik, texnik va moliya resurslari kabi eng qimmatli resursdir. Axborotni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash, tarqatish va foydalanish jarayonlari axborot texnologiyasining elementlari bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining asosini axborotga kompyuterli ishlov berish, katta ma'lumotlar massivini elektron tashuvchilarda saqlash, axborotni foydalanuvchiga qulay ko'rinishda tezkor yetkazish jarayonlari tashkil etadi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya:**

Zamonaviy axborot texnologiyalarining farqli xususiyatlari foydalanuvchiga qaraganda, keng ko'lamdagi muloqot imkoniyatlari, axborot va texnik resurslardan jamoa bo'lib foydalanish, axborotga ishlov berish, saqlash va uzatishning qog'ozsiz texnologiyasining mavjudligidir. Bu hamma xususiyatlar ijod qilish, kasbiy ko'nikmalarni olish va mustahkamlash, zamonaviy boshqarish usullarini amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlarni beradi. Ofis avtomatlashtirilgan tizimlarining maqsadi foydalanuvchining faoliyatini kompyuterlashtirish, hujjat aylanishining qog'ozsiz texnologiyasini ta'minlashdan iborat.

Shaxsiy kompyuterlar EHM tasniflanishi bo'yicha mikro mashinalar toifasiga mansub bo'lib, hisoblash imkoniyatlari cheklangan, ammo eng ommaviy tarqalgan hisoblanadi. Bu kompyuterning ofis muhitida shaxsiy foydalanish uchun mos keladigan variantidir. Shaxsiy kompyuterlar bilan bir qatorda mikro- kompyuterlar toifasiga grafik, nashriy va izlanish ishlariga mo'ljallangan ishchi stansiyalar, lokal tarmoq va ma'lumotlar bazalari serverlari hamda tarmoq ishchi stansiyalari kiradi. Ular orqali tarmoq resurslaridan foydalanishga imkon yaratiladi.

Shaxsiy kompyuterlar universal va foydalanishga qulay bo'lgan bir qator afzalliklarga ega: –maxsus tayyorgarlikka ega bo'lmagan foydalanuvchilarga ishlash imkonini beruvchi qulay interfeys; –qo'llanilish sohasiga mos keluvchi arxitektura va

tashqi qurilmalar to'plamiga muvofiqlashish hisobiga o'z ish joyini tashkillashtirishning qulayligi; – foydalanishning soddaligi, bog'lama va qurilmalarni birgalikda yig'ish imkoniyatining kengligi, ommaviy foydalanish uchun yuqori ishonchlilik; – kompyuter va uni tashkil etuvchi qurilmalar narxining arzonligi va modellarining ko'pligi, standartlashtirishning va bir xil shaklga keltirishning yuqori darajadaligidir.

### **Natijalar:**

Shaxsiy kompyuterlarni turli belgilari bo'yicha sinflarga ajratish mumkin. Rivojlanish vaqtida shaxsiy kompyuterlarning dastlabki modellari 80-yillarning boshlarida paydo bo'lgan. Konstruktiv xususiyatlari nuqtayi nazaridan barcha Shaxsiy kompyuterlarni shartli ravishda statsionar va nostatsionar turlarga ajratish mumkin. Statsionar Shaxsiy kompyuterlar keng funksional imkoniyatlarga va rivojlangan tashqi qurilmalarga ega. Ular xususiy operatsion tizimga ega bo'lib, ma'lumotlarga ishlov beruvchi amaliy dasturlar bilan jihozlangan. Ularning xotirasi ko'p pog'onali, aloqa va ulanish uchun interfeys tizimi rivojlangan, ma'lumotlarni kiritish va chiqarish uchun ko'p sonli portlari mavjud.

### **Muhokama:**

Shaxsiy kompyuterlarning funksional bloklari Yuqorida aytib o'tilganidek, Shaxsiy kompyuterlar yuqori darajali unifikatsiyaga ega bo'lganligi uning qo'llanilish sohasiga qarab turli konfiguratsiyalarni tuzish imkonini beradi. Asosiy bog'lama va bloklarning shunday to'plamlari borki, ularsiz shaxsiy kompyuterlarning funksional imkoniyatlari to'liq bo'lmaydi va u universal kompyuter toifasiga tegishli bo'lmaydi. Bu to'plam tarkibiga protsessor, xotira bloklari, kiritish-chiqarish va hujjatlashtirish vositalari, elektr ta'minoti va kompyuterlararo aloqa bog'lamalari kiradi. Shaxsiy kompyuterlarning barcha qurilmalari tizimli shina yordamida birlashtiriladi.

### **Xulosa:**

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, kompyuterning elektr ta'minoti blokida ba'zi bir saqlaydigan qurilmalar o'rnatilgan bo'ladi. Ba'zi bir yuqori sinf kompyuterlarining elektr ta'minoti blokida yuqori kuchlanishdan va ortiq darajadagi tokdan himoyalash hamda tarmoqning ichiga kiruvchi halal darajasini pasaytirish uchun oddiy filtrning mavjud bo'lishi ko'zda tutilgan. Elektr energiyasini berishda quyida keltirilgan uzilishlar bo'lganda ham elektr ta'minoti bloki ishchi holatda qolishi va tizimni elektr energiyasi bilan ta'minlashni davom ettirishi zarur.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Skott Myuller. Kompyuterni yangilash va ta'mirlash. - M.: OOO I.D. Uilyams, 2009.
2. Muraxovskiy V.I. Zamonaviy kompyuterni yig'ish, sozlash, yangilash. - M.: "DESS COM", 2000.
3. Asmakov S.V., Paxomov S.O. Temir 2010. Kompyuter matbuoti tavsiyasi. - Sankt-Peterburg: Pyotr, 2010.
4. Leontiev V. Shaxsiy kompyuterning eng yangi ensiklopediyasi. Olma-Press. Ta'lim, 2005.

## YANGI O'ZBEKISTONDA YANGICHA MTT DA "MEN" NING YARATILISHI

*Xo'jayeva Nozima Qadamboyevna.*

*Urganch Davlat Universiteti .*

*Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, yurtimizdagi zamonaviy talabga javob beruvchi maktabgacha ta'lim tashkilotlari, MTT da "men" ning shakllanish bosqichlari va ular uchun qanday tajribalar doimiy ijobiy yo'l hisoblangani haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** bola psixologiyasi, ma'rifiy psixologiya, ruhiy psixologiya, hissiy psixologiya, irodaviy psixologiya, longityud

**Annotation:** This article, about the stages of formation of "I" in preschool educational organizations that meet modern requirements in our country, and what experiences are considered a permanent positive path for them.

**Keywords:** child psychology, educational psychology, mental psychology, emotional psychology, volitional psychology, longitude

**Аннотация:** Данная статья, об этапах формирования «Я» в дошкольных образовательных организациях, отвечающих современным требованиям в нашей стране, и какие переживания считаются для них постоянным позитивным путем.

**Ключевые слова:** детская психология, педагогическая психология, психическая психология, эмоциональная психология, волевая психология, долгота

Bizning diyorimizda, yosh avlodga to'g'ri tarbiya berish va barcha uchun bolada hurmatni shakllantirish, avvalo o'ziga nisbatan hurmatni bilishi, anglab olishida chuqur e'tibor beriladi. O'zbekiston Respublikasida yaratilgan ko'plab sharoitlar yosh avlod uchun yaratilgani bejiz emas, albatta. Yosh bolaning xotirasi ongi va uning beg'ubor qalbi - hali yozilmagan, varoqlari oppoq bir kitobga o'xshaydi, ushbu kitob yillar o'tib turli hikoyalar va voqeliklar bilan to'ldirilib boradi. Davlatimizda barpo qilinayotgan MTT binolari zamonaviy tarzda qurilmoqda va tashkilotlarga topshirilmoqda. Tashkilotlarga shu yo'nalishni bitirgan oliy toifali ayol-qizlar yoki yigitlarni ishga olishmoqda, ta'lim berish sir asrorlarini, bolalar bilan ijobiy ishlash ruhiyatiga ega bo'lgan mutaxasislarni qabul qilishmoqda. Barcha sharoitlar yosh aka-ukalariz, opa-singillarimiz va suyukli farzandlarimiz uchun yaratilmoqda.

Bolaning o'ziga hurmati, ya'ni, uning "men" ini shakllantirish oson jarayon emas. Uning psixologiyasi bilan tanishish lozim. Bolalar psixologiyasi —psixologiya sohasi, bolalar psixologik rivojlanishining umumiy va aloxida xususiyatlarini, turli yosh bosqichlarida bu jarayon qanday kechishi, uni harakatlantiruvchi kuchlar va

qonuniyatlarni tadqiq qiladi. Shu sababli Bolalar psixologiyasini ko'pincha yosh psixologiyasi deb ataydilar. Bolalar psixologiyasi bolalarda psixik jarayonlar (ma'rifiy, nutqiy, hissiy, irodaviy va h. k.) paydo bo'lishi va rivojlanishini, psixik xususiyatlar qaror topishini, xilmaxil faoliyatning (o'yinlar, o'qish, mehnat) rivojlanishini, bolaning shaxs sifatida shakllanishini o'rganadi. Bolalar psixologiyasi umumiy psixologiyada ishlab chiqilgan tadqiqot usullaridan foydalanadi, biroq uni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari bor. Bola shaxsi yosh xususiyatlarini o'rganishda ko'ndalang kesma va longityud deb nomlangan tadqiqotlar o'tkaziladi.

Birinchi holatda birgina psixik jarayonning o'zi bir vaqtda turli yosh guruhlariga taalluqli bo'lgan bolalarda tadqiq qilinadi. Ikkinchi holat (longityud) da esa ma'lum bir (alohida tanlab olingan) bolalarning psixik xususiyatlari ko'p yillar davomida tadqiq qilinadi. Bu esa o'z navbatida ular psixikasi rivojlanishining umumiy kechishini kuzatish imkoniyatini beradi. Bolalar psixologiyasida asosan ota-onalarga bolaga unga bo'lgan ishonch, hurmat, qo'llab-quvvatlash, unga bo'lgan e'tiborlarini his qildirish, Mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan holatlar o'rgatiladi.

Bola dunyoni, atrofni ota-ona ko'zlari bilan anglaydi. Ota-onaga nima yomon bo'lsa, bola shuni yomon deb hisoblaydi. Ota-ona kimni xush ko'rsa, bola uchun u inson yaxshi bo'ladi. Bu holat bolani 10-12 yoshiga qadar davom etadi. Undan keyin bola o'zi xulosa qilishga o'rganishni boshlaydi. Shunday ekan, bolaning har bir harakati - bu ko'zgidagi sizning aksingiz.

Bolalar psixologiyasi 19-asr o'rtalarida mustaqil fan sifatida ajralib chiqqa boshladi. U pedagogika psixologiyasi, ped., oliy asab faoliyati fiziologiyasi bilan chambarchas bog'langandir. Uning ma'lumot va xulosalari yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti uchun, umumiy psixologiya uchun muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta'limni uyda, ota-onalarning mustaqil ta'lim berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, shuningdek MTTlariga jalb qilinmagan bolalar uchun MTTlarda, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Bu yerda ular haftada 2-3 marta shug'ullanishadi. Ota-onalarga maktabgacha ta'lim shaklini tanlash huquqi beriladi.

Ilmiy jihatdan asoslangan aniq pedagogik rejaning mavjudligi pedagog ishini yengillashtirib, uning ijodiy imkoniyatlarini oshiradi. Ta'limtarbiya ishini rejalashtirish pedagog, bolalar jamoasi va ota-onalarning o'zaro hamkorligiga, ular tomonidan birgalikdagi faoliyat maqsad va vazifalarini tahlil etishga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari, bolalarni qisqa muddatli guruhlarda maktabga tayyorlash «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi pedagoglar uchun yangi imkoniyatlarni vujudga keltiradi, maktabgacha ta'lim

tashkilotlarida ta'lim jarayonini tashkil etishda qo'llanayotgan eski shakl va uslublarni qayta ko'rib chiqishga undaydi, pedagogik tashabbus, tajriba va ijodga keng yo'l ochadi.

Maktabga aqliy tayyorgarlikni shakllantirishda bo'lajak o'quvchi tafakkur faoliyatining umumiy darajasi muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tashkilotining bolalarni aqliy tarbiyalashga oid olib borayotgan muntazam, maqsadga muvofiq ish sharoitlarida bolalarda (faoliyat) tafakkur faoliyatida narsalarning ko'p tomonlama tahlil qilish qobiliyati, ijtimoiy tarkib topgan sensor etalonlardan fan hamda hodisalar xususiyat va sifatlarini tadqiq qilishda foydalana bilish narsa va hodisalardagi asosiy aloqa, bog'liglik, belgilarni aniqlash asosida oddiy umumlashtirishlar qilish qobiliyati, o'xshashlik va farqlanuvchi belgilarni izchil ajratish asosida narsalarni qiyoslashni amalga oshirish ko'nikmasi tarkib toptiriladi. Bo'lajak o'quvchilarda aqliy faoliyatning elementar mustaqilligi: o'z amaliy faoliyatni mustaqil rejalashtirish va uni reja asosida amalga oshirish ko'nikmasi, oddiy bilish vazifasini qo'yib va uni hal etish ko'nikmasi va shu kabilar rivojlantiriladi. Maktabda aqliy tayyorlik, shuningdek, bolalar tomonidan o'quv faoliyati elementlarining egallab olinishini ham o'z ichiga oladi. Bolalar muntazam ta'lim sharoitlarida maktabgacha bolalik oxiriga kelib, o'quv faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini: tushunarli o'quv vazifasini qabul qilish, tarbiyachining ko'rsatmalarini tushunish va aniq bajarishni ishni kattalar tomonidan ko'rsatilgan usullaridan foydalanib bajarib bir natijaga erishish, o'z faoliyati, xulq-atvori, topshiriqlarni bajarish sifati ustidan nazorat qilish ko'nikmasini, o'zining va boshqa bolalarning ishlariga tanqidiy baho berish qobiliyatini, egallab olishlari kerak.

Bolalarni maktabda o'qitishning samaradorligi ko'p jihatdan ularning tayyorgarlik darajalariga bog'liq bo'ladi. Maktabda o'qishga tayyorgarlik MTT va oilada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaga qo'yadigan talablar orqali aniqlanadi. Maktabga umumiy tayyorgarlik MTT ning maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashga oid davomli, maqsadga muvofiq ta'limtarbiyaviy ishning muhim yakuni sifatida namoyon bo'ladi. Maktabga umumiy tayyorgarlik bolaning maktabga borish vaqtiga kelib aqliy, ma'naviy, estetik va jismoniy rivojlanishda erishgan shunday darajasidirki, u bolaning maktab ta'limining yangi sharoitlariga va o'quv materialining ongli egallashga faol kirib borishlari uchun zarur asosni yaratadi. Umumiy tayyorgarlik bola maktab ta'limiga o'tish davriga kelib erishadigan psixik rivojlanishning muayyan darajasi bilan ifodalanadi. Psixologik tayyorgarlik tushunchasi maktab ta'limi nuqtai-nazaridan 1 sinfga borayotgan bola psixik rivojlanishidagi muhim sifat ko'rsatkichlarini muvoffakiyatli jamlaydi. Maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik bolaning o'qishga intilishi o'quvchi bulish ishtirokida bilish faoliyati va tafakkur operatsiyalarining yetarlicha yuqori darajasi bolaning o'quv faoliyati elementlarini egallashi iroda va ijtimoiy rivojlanishning muayyan darajasida namoyon bo'lishda asoslangan tayyorlikni uz ichiga oladi. Bolani

maktabga psixologik tayyorgarligining barcha komponentlari bolani sinf jamoasiga olib kirish maktabda o'quv materialini ongni faol egallash keng doiradagi maktabga oid majburiyatlarni bajarishni kamrab oladi. Bolani maktabga maxsus ravishda tayyorligi maktabda o'qishga umumiy psixologik tayyorligiga qo'shimchadir. U bolada matematika va ona tili kabi o'quv fanlarini o'rganish uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligiga ko'ra aniqlanadi. MTTda bolalarda eng oddiy matematika tasavvurlarini tarkib toptirish, nutqni o'stirish hamda savodni egallashga tayyorlanish yuzasidan o'tkaziladigan jadal ish bolalarni maktabda o'qishga maxsus tayyorlashning zarur darajasini ta'minlaydi. Maktabga qatnaydigan bola yangi turmush tarziga kishilar bilan o'zaro munosabatning yangi tizimiga, faol aqliy faoliyatga tayyorlanga bo'lishi darkor. U yangi jiddiy majburiyatlarni uddalashi uchun jismoniy rivojlanishda muayyan darajaga erishgan bo'lishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasi. – T.: O'zbekiston. 2012.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. – T.: O'zbekiston, 1997.
3. Ўзбекистон Республикасининг Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. – T.: O'zbekiston, 1997.
4. O'zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi” qonuni O`R.Q-595.16.12.2019 yil.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017-2021-йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2707-сонли Қарори. 2016 йил, 29 декабрь.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Мактабгача таълим муассасалари фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида” ги 528- сонли Қарори. 2017 йил, 19 июль.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5198-сонли Фармони. 2017 йил 30 сентябрь.

## QARIYALARDA YURAK-QON TOMIR TIZIMI KASALLIKLARIDA HAMSHIRALIK PARVARISHI

*Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi  
texnikumi. Hamshiralik ishi kafedrasida*

*o'qituvchilari:*

*Eraliyev Obloqul Botirovich,  
Sayfiyeva Nilufar Asliyevna,  
Razokova Sitara Shavkatovna.*

**Anatatsiya: Yurak-tomir kasalliklari (YTK)** — yurak va qon tomir patologiyalarining umumiy nomlanishi. Hozirgi kunda bu kasalliklar guruhi dunyoda, jumladan, O'zbekistonda ham o'lim va nogironlikning yetakchi sababchisi bo'lib kelmoqda. Qariyalardagi yurak xastaliklarining asosini aterosklerotik o'zgarishlar tashkil etib, u geriatriyaning muhim muammolaridan biri hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Arterial, miokard infarkti, kardiomiopatiya, miokardit, nevrozlar, gipotireoz, insult, nikotin kislotasi, B12, B6, E, P vitaminlar, ishemik kasalliklari, stenokardiya.

Arterial gipertoniya yurak-qon tomir kasalliklari orasida eng keng tarqalgani bo'lib, katta yoshli odamlar orasida ko'p uchraydi. U miokard infarkti, insult, yurak yetishmovchiligi kabi ko'pincha o'lim yoki nogironlikka sabab bo'ladigan asosiy patogenetik omil hisoblanadi.

Arterial gipotoniya (gipotoniya kasalligi) — nisbatan kam uchraydi. U arterial gipotoniya sindromi tarzida ko'pgina yuraktomir tizimi kasalliklarida (miokard infarkti, kardiomiopatiya, miokardit), nevrozlar, gipotireoz, insuldan keyin kuzatiladi.

Ateroskleroz 45–59 yoshlarda boshlanib, organizmning qarishini tezlashtiradi. Aterosklerozni rivojlantiruvchi omillar quyidagilardir:

- Bemorning yoshi, jinsi.
- Qonda xolesterin va lipoproteidlarning oshib ketishi.
- Arterial bosimning oshib ketishi.
- Chekish va spirtli ichimliklar ichish.
- Qandli diabet.
- Ovqat omillari, semizlik.
- Asabiylashish, ko'p hayajonlanish.
- Irsiy omillar.
- Kam harakatlanish.
- Qon ivuvchanligining izdan chiqishi.
- Ateroskleroz rivojlanishidagi asosiy omil giperlipoproteinemiya.

Aterosklerozning ko'p uchraydigan belgilari: aorta sklerozi, kardioskleroz, miya tomirlari sklerozi. Aterosklerozning oldini olish uchun uni keltirib chiqaruvchi omillar



bilan kurashish kerak. 40 yoshdan oshgan barcha bemorlarda xolesterin, triglitserid va lipoproteidlar miqdori tekshiriladi va ateroskleroz aniqlanadi. Bemorlarga xolesteringa boy bo‘lmagan ovqat va turmush tarzini o‘zgartirish buyuriladi.

**Antisklerotik moddalar.** Bu moddalar 3 guruhga bo‘linadi:

1. Xolesterinning ichaklardan so‘rilishiga qarshilik qiluvchi moddalar: diosponin, polisponin, dengiz karami.
2. Xolesterinni parchalovchi moddalar: linetol, araxiden, xolesteramin.
3. Xolesterin hosil bo‘lishiga qarshilik qiluvchi moddalar: klofibrayt, miskleron, atromiden.

Bundan tashqari, o‘t haydovchi vositalar, lipotrop moddalar (xolin, metionin, letsitin), yod preparatlari, askorbin kislotasi ham xolesterin miqdorini kamaytiradi. Nikotin kislotasi, B12, B6, E, P vitaminlari aterosklerozning oldini olish va davolashda qo‘llaniladi.

Qariyalarda yurakning ishemik kasalliklari yurak toj arteriyalarining torayib qolishi va miokard ishemiyasining paydo bo‘lishi – ateroskleroz oqibatida kelib chiqadi.

Aterosklerozni keltirib chiqaruvchi omillar va qarilikdagi o‘ziga xos o‘zgarishlar yurak kasalliklarining ortishiga sabab bo‘ladi. Eng ko‘p uchraydigan yurak ishemik kasalliklari, stenokardiya, miokard infarkti, aterosklerotik kardioskleroz va koronar yetishmovchiligi hisoblanadi.

Stenokardiya, ko‘krak qisish – miokardning qon bilan yetarlicha ta‘minlanmay qolishi bo‘lib, 60 yoshdan oshgan bemorlarda yurakqon aylanish doirasidagi yoshga aloqador, ateroskleroz va organik o‘zgarishlar oqibatida paydo bo‘ladi. Yurak og‘rig‘i bunday bemorlarda tipik holda bo‘lib, atipik ko‘rinishda, masalan, gastralgiik, astmatik, og‘riqsiz tarzda ham namoyon bo‘lishi mumkin.

Og‘riqsiz stenokardiya 60–69 yoshli bemorlarda 25%, 80–89 yoshlilarda esa 45% kuzatiladi. Stenokardiya bilan og‘rish 25–64 yoshlilar o‘rtasida 2–3% uchraydi.

Qariyalarda stenokardiya xuruji boshqacharoq kechadi. Xurujning vegetativ alomatlarini sust kuzatiladi. Og‘riq kuchli bo‘lmaydi, balki og‘irlik, qisilgan holat kuzatiladi, sekinlik bilan rivojlanadi va faqat jag‘larga, bo‘yinga irradiatsiya beradi. Ko‘proq nevrologik simptomlar namoyon bo‘ladi. Bunday bemorlarda xuruj sababchisi ko‘pincha obhavoning o‘zgarishi, ko‘p ovqat iste‘mol qilish bo‘lishi mumkin.

Stenokardiyaning profilaktikasi va davosi og‘riq xurujining qanday sharoitlarda paydo bo‘lishiga bog‘liq. Xurujlar ortiqcha asabiylashishga aloqador bo‘lsa, bemorga tushuntiriladi, turmushda va ishda qulay sharoit yaratish, yetarlicha dam olish, tinchlantiruvchi preparatlar ichib yurish tavsiya qilinadi. Osh tuzi, yog‘lar, uglevodlar cheklab qo‘yiladi.

Xuruj paytida nitroglitserin yoki validol yordam beradi. Agar bemor nitratlarni ko'tara olmasa, 5 mg. dan til ostiga nifedipin va B-adrenoblokatorlar buyuriladi.

**Miokard infarkti** – yurak toj arteriyalarining tromb bilan tiqilib qolishi va miokardning oziqlana olmay qolib nekrozga uchrashidir. Qariyalarda miokard infarkti ko'proq paydo bo'ladi. Bunga sabab, qonning yoshga aloqador biokimyoviy o'zgarishlari hisoblanadi.

1. Qon tomirlarining yoshga aloqador sklerozi.
2. Gemodinamikaning yoshga aloqador o'zgarishlari.

Miokard infarkti klinikasida o'ziga xos farqlar mavjud. Og'riq kuchli bo'lmasligi, irradiatsiyasi va joyi turlicha bo'lishi mumkin. Yosh o'tgan sari infarktning atipik, masalan, abdominal, gastralgik, astmatik, aritmik, serebral shakllari ko'proq kuzatiladi. Yoshi o'tgan bemorlarning 35% da va keksalarning 40% da infarktning og'riqsiz shakli uchraydi. Bunday bemorlarda kasallik yakuni yomon bo'lib, bosh miyada qon aylanishining buzilishi, qayta takrorlanuvchi infarkt bo'lishi mumkin. Yurak yetishmovchiligi va kardiogen shok faqat birinchi kuni emas, keyingi kunlari ham paydo bo'lishi, bunday paytda buyrak yetishmovchiligi bo'lganida ishemik insultga olib kelishi mumkin.

Kasallik asoratlaridan yurak ritmining buzilishi, miokard yorilishi va chap qorincha bilan o'ng qorincha orasidagi to'siq yorilishi, tromboembolik asoratlar, yurak anevrizmasi kasallik oqibatini yomonlashtiradi. Miokard infarktidan o'lgan bemorlarning 60 foizi kasalxonaga yotqizilgungacha 2 soat ichida halok bo'ladi.

Qariyalarda miokard infarktining kechishida o'ziga xos belgilaridan yana biri – mayda o'choqli infarkt, yirik o'choqli infarktga qaraganda ko'proq uchraydi va 60 yoshdan keyin 20–22% holatlarda infarkt qaytalanishi mumkin.

Qariyalarda miokard infarkti atipik shaklda kechganligi sababli uni aniqlashda elektrokardiografiya usuli yordam beradi. T-tishcha manfiy bo'lib qoladi, patologik Q-tishcha paydo bo'ladi, ST kesma izoelektrik chiziqdan yuqoriga yoki past tomonga suriladi.

**Miokard infarktini davolash va parvarish qilish.** Birinchi navbatda, og'riq xurujini to'xtatish kerak. Teri ostiga 1–2 ml morfin va 0,5 ml atropin sulfat yuboriladi. Arterial bosimni ko'tarish maqsadida kofein, mezaton, kordiamin buyuriladi. Yurakning toj tomirlarida tromblar hosil bo'lishini to'xtatish maqsadida geparin 2–3 kun davomida har 6 soatda 5000–10000 TB dan muskul orasiga yuborib turiladi.

Fibrinolitik vositalar bilan davolash keksa yoshdagi bemorlar infarktida yaxshi naf beradi, ammo bu usulni 70 yoshdan keyin qo'llash tavsiya qilinmaydi. Bemor funksional karavotga yotqiziladi va ahvoli muntazam kuzatib boriladi, teri gigiyenasiga katta ahamiyat beriladi, yotoq yaralarining oldi olinadi. Yengil va oson hazm bo'ladigan ovqat tayinlanadi. Birinchi 24–48 soat mobaynida qimirlamay yotish

rejimi, 7–12 kundan keyin esa asta-sekin harakatlanuvchi rejimga o'tish tavsiya qilinadi.

Kasallikning 5–8 haftasida uyga javob berish mumkin. Statsionardan chiqarilgandan keyin doimiy jismoniy harakatlar, piyoda sayr qilish mashqlari tavsiya etiladi, chekish va spirtli ichimliklarni ichish, asabiylashish, og'ir jismoniy mehnat qilish, yugurish taqiqlanadi. Bemor ambulatoriya sharoitida elektrokardiografiya qildirib turishi, B-andenoblokatorlar, aspirin ichib turishi maslahat beriladi. Yurak ritmi buzilishiga qarshi novokainamid, obzidan, aymalin, kaliy tuzlari, kokarboksilaza buyuriladi.

Miokard infarkti bilan og'rigan bemorlar dispanser hisobida bo'lib, doimiy shifokor va hamshira nazoratida turadi. Hamshira va shifokor bemorlarning uyiga borib xabar olib turishlari, bemorning qarindoshlariga uning parvarishi, ovqatlanishi va hayot kechirish tarzi bo'yicha kerakli maslahatlarni berib borishlari kerak.

**Aritmiyalar.** Qariyalarda kardiosklerozning belgilaridan biri aritmiyalardir.

Bunga sabab, yurakda qon aylanishining yetishmovchiligi va miokard ishemiyasidir. Ko'pincha 50 yoshdan o'tgan bemorlarni yurakning organik o'zgarishlari oqibatida ekstrasistoliyalar bezovta qiladi, ya'ni ularda yurakning vaqtdan ilgari qisqarishi kuzatiladi. Bunda bemorga xuddi yurak ishi to'xtab qolgandek bo'lib seziladi. Ekstrasistoliyani davolashda koronar qon tomirlarni kengaytiruvchi, miokardni qon bilan ta'minlaydigan, yurak yetishmovchiligini bartaraf etadigan vositalar tayinlanadi. Buning uchun digitalis preparatlari, strofantin, sedativ moddalar va trankvilizatorlar buyuriladi. Novokainamid muskul orasiga 5–10 ml dan, lidokain 10 ml dan beriladi. Ekstrasistoliyani bosish maqsadida ovqatdan keyin kuniga 3–4 marta 20–30 ml dan 10% li kaliy xlor eritmasi meva suvlari bilan ichib turiladi. Hamshira bunday bemorlarga juda katta e'tibor berib turishi va ularni tinchlantirishi kerak.

**Hamshiralik parvarishi.** Nafas qiyinchiliklari va ularni yengillashtirish. Asosiy azoblanishlar, bu – o'pkalardagi dimlanish sababli yuzaga keladigan nafas olish qiyinchiliklari va hansirashdir. Kislород ingalatsiyasi: gipoksiya holatini kamaytirish uchun o'tkaziladi. Osoyishtalikni ta'minlash: kislородning manual sarflanishini ta'minlash. Jismoniy zo'riqishga ehtiyoj oshadi va nafas olishning qiyinlashishi, hansirash yuzaga keladi. Yurakni ortiqcha zo'riqtiradigan hayotiy omillar ta'sirini kamaytirish (haddan tashqari jismoniy zo'riqish, dorilar qo'llash, ovqatlanish, bo'shalishlar) va mos keladigan instruktaj. Yurakni zo'riqtiradigan omillarga harakatchanlik, dorilarni qabul qilmaslik, osh tuzini ko'p iste'mol qilish, defekatsiya vaqtidagi zo'riqish tufayli qon bosimining oshishi, chekish, haroratning keskin o'zgarishi, infeksiyon kasalliklar va boshqalarni kiritish mumkin.

Ushbu omillar ta'sirini kamaytirish uchun yurak yetishmovchiligining darajasini hisobga olgan holda dam olish va boshqa faoliyatlarni mos holda tanlash. Yurakka

zo'riqishni kamaytirish uchun xonadagi haroratni boshqarish, ko'chaga chiqish uchun mos kiyim tanlash va yuqoridagilarning barchasi bo'yicha bemorga ko'rsatmalar berish kerak. Instruktajda yurakning holati, uning muhimligi bemorga tushunarli so'zlarda tushuntiriladi. Uning hayot tarzini kuzatib borib, har bir harakatidagi noqulay omillarni bartaraf qilish kerak.

Og'iz orqali uzoq vaqt dori qabul qilinganda qo'llab-quvvatlash. Bemor shifokor tavsiya qilgan dorilarni qabul qilayotgani tekshiriladi, bemorga yuragining holatini hisobga olgan holda tushunarli so'zlarda dorining samarasi va uni qabul qilish muhimligini tushuntirish. Ba'zi hollarda jadval tuzib, bemor dori qabul qilayotgani yoki qilmayotganini jadvalda belgilash. Shuning uchun ularning simptomlarini kuzatib borib, ular paydo bo'lganda shifokorga xabar berish kerak. Arterial bosimni tushiradigan dorilar qabul qilinganda o'rnidan turganda kuzatilishi mumkin bo'lgan ortostatik buzilishlarni hisobga olgan holda tananing bir holatdan ikkinchi holatga o'tkazilishini ta'minlash. Ovqatlanish, suyuqlik qabul qilish, arterial bosimni ushlab turish, qabziyatning oldini olish. Bunda ovqat tarkibida tuz 6–10 g ni tashkil qilishi kerak, ovqat yengil hazm bo'ladigan va sifatli, oqsillarga bo'y bo'lishi kerak. Shifokor tavsiya qilgan suyuqlik miqdoridan ko'p ichmaslik kerak. Osh tuzi kam bo'lgan ovqat iste'mol qilinganda bemorda ta'm sezishning o'zgarishi (sho'r ta'mni sezish qobiliyatining buzilishi) muammosi paydo bo'ladi va bemor bunday ovqatni yeyishdan bosh tortishi mumkin. Shuning uchun ovqatni shunday tarkibda tayyorlash kerakki, (ziravorlar, tuz o'rnini bosuvchilar bilan) bemor uni yesin. Kasalxonadan chiqqandan keyin bemorning oila a'zolari ushbu sharoitlarni davom ettirishda yordam berishlari kerak.

### Adabiyotlar

1. M.F. Ziyayeva. «Hamshiralik ishi mutaxassisligi bo'yicha amaliyot standartlari». 2001-y.
2. L.S. Zalikina. «Bemorlarning umumiy parvarishi». «Abu Ali ibn Sino». 1996-y.
3. Yoshiyo Mori. «Bemorlarning jismoniy faolligini tiklash va rivojlantirish bo'yicha hamshiralar parvarishining yangi uslublari». Toshkent. 2001-y.
4. M.F. Ziyayeva, I.P. Primbetova. «Hamshiralik ishi asoslari» texnikasini o'rgatish usullari. 2003-yil. JICA.
5. <http://lex.uz/docs>

## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

*Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi, Gigiyena kafedراسi o‘qituvchilari:*

*Tuxtamisheva Maftuna Shermanovna,  
Bahranova Maftuna Begmamatovna,  
Hamshiralik ishi kafedراسi o‘qituvchisi:  
Toshpo‘latova Oysha O‘ralboy qizi*

**Annotatsiya:** Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarini tayyorlashga zamonaviy, kasbiy kompetentli yondashuv, innovatsion kompetentlilik, pedagogik faoliyat va amaliy-yo‘naltirilgan ta‘lim asosidagi yondashuvlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ta‘lim tizimi, o‘qituvchi, zamonaviy, kompetentli, kasbiy, yondashuv, faoliyat, kompetensiya, kompetentli pedagog.

**Anatation:** The article presents a modern, professionally competent approach to the training of future teachers, based on innovative competence, pedagogical activity and practice-oriented education.

**Key words:** Education system, teacher, modern, competent, professional, approach, activity, competence, competent educator.

Bugungi kunda kasbiy ta‘lim sohasining mazmunini yangilash, rivojlantirish, takomillashtirish jarayonlari olib borilmoqda, buning natijasi ta‘lim standartlarini modernizatsiyalash, ta‘lim jarayonini tashkil etishning yangi shakllarini qo‘llashga qaratilgan. Mamlakat ta‘lim tizimini modernizatsiyalashning bosh maqsadi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga to‘la javob bera oladigan ta‘limning yangi sifatiga erishish belgilangan.

Hozirgi kun o‘qituvchisiga doimiy o‘zgaruvchan sharoitlarda ish olib borishga to‘g‘ri kelmoqda, bu o‘z navbatida uning kasbiy sifatleri takomillashtirilishini talab qiladi. Pedagogik nazariya va metodikalarning doimiy rivojlanishi, pedagogikamaliyotga o‘qitish va tarbiyalashning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ularni joriy qilish hozirgi kun o‘qituvchisining ta‘lim texnologiyalari sohasida qo‘shimcha tayyorgarlikka ega bo‘lishi zarurligini ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimizda ta‘limni rivojlantirishning maqsadli dasturiga muvofiq ta‘lim tizimii modernizatsiyalash, kadrlarni qayta tayyorlash, o‘quv jarayonini axborotlashtirish, axborot makonlarini yaratish kabilarni amalga oshirish zarur. Sanab o‘tilgan talablar yangi milliy ta‘lim tizimining shakllanishiga, inson kapitalining rivojlanishiga, mamlakatimiz iqtisodiyotiing mustahkamlanishiga olib keladi.

Pedagog kadrlarning bilimlarini, kompetensiyalarining doimiy yangilash va butun ta‘lim tizimini takomillashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratish lozim. Ta‘lim

jarayoniga innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishi ta'lim oluvchilarni dolzarb bilimlar bilan ta'minlash uchun o'z kasbiy faoliyatiga yangi yondashuvlarni olib kirish va ularni o'zlashtirishi darajasining ortishiga imkon beradi. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash ta'lim oluvchilarning ham ta'lim olish faoliyatidagi o'zgarishlarniko'rsatadi.

Bugungi kunda kompetentli yondashuvga tayanib, bu yondashuv nafaqat kasbiy faoliyat kometensiyalarining shakllanishini, balki bo'lajak mutaxassisning shaxsiy sifatlari yuzaga chiqarilishini ham ko'zda tutadi. Oliy ta'lim standartida bo'lajak mutaxassisga mehnat bozoridagi raqobatbardoshlik, o'z kasbini erkin egallaganlik va faoliyatning turdosh yo'nalishlarida yo'nalishni topa olish imkoniyatlari haqida talablar qo'yiladi – bularning barchasini kompetentli yondashuv sharoitlaridagina yuzaga chiqarish mumkin.

“Kompetensiya” tushunchasining ta'riflaridan kelib chiqib (bu tushuncha esa o'z navbatida hamma tomonidan bir xilda talqin qilinavermaydi), ko'pchilik mualliflar uni mutaxassisning o'zi olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga tayyorligi, boshqalari esa muammolarni hal qila bilish qobiliyati tarzida ta'riflaydilar.

Lotinchadan tarjima qilinganda “kompetensiya” so'zi kishi biron-bir masala doirasida yaxshi xabardor ekanligini bildiradigan, tajribaga ega ekanligini ko'rsatadigan tushunchani ifodalaydi. Oliy ta'lim bo'yicha DTS ga muvofiq kompetensiya – bu ma'lum bir sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun bilim, mahorat va shaxsiy sifatlarni qo'llash qobilyatidir. Kompetentli yondashuv muammosiga murojaat qilish “kompetensiya” va “kompetentlilik” tushunchalarining bir-biridan ajratilishini talab qiladi, chunki, ularning pedagogik adabiyotlarda. Yetarlicha ko'p ishlatilishigaqaramasdan mazkur tushunchalarni hozirgi vaqtlargacha bir xil ma'noda talqin qilish variantlari mavjud emas.

“Kompetentlilik” tushunchasi (lotincha sompetentia, compete – birgalikda erishaman, uddalayman, mos kelaman, to'g'ri kelaman ma'nolaridagi so'zidan hosil qilingan) lug'atlarda bir xilda talqin qilinmaydi, balki “biron-bir narsa haqida fikr yuritishga imkon beruvchi bilimlarga egalik” va “xabardorlik, vakolatlilik”, “obro'ga egalik, to'la huquqlilik” kabi variantlarda qo'llaniladi.

Kompetentli yondashuv g'oyalari bir qancha xorijiy tadqiqotchi-olimlarning ishlarida ko'rib chiqilgan. Kompetentli yondashuv oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning maqsadi sifatida kompetentlilikning belgilanishiga asoslanadi. Kompetentli yondashuv ta'lim oluvchilar tomonidan har xil hayotiy va kasbiy vaziyatlarda samarali harakat qilishga imkon beruvchi turli hildagi mahoratning o'zlashtirilishini ko'zda tutadi.

Kasbiy kompetentlilik “o'qituvchi tomonidan uning pedagogik faoliyatini, pedagogik muloqotini va o'qituvchi shaxsini ma'lum bir qadriyatlar, g'oyalar va

pedagogik ong tashuvchisi sifatida shakllanganligini belgilovchi bilim, mahorat va ko'nikimalarning zaruriy hajmini egallaganligi" sifatida talqin qilinadi.

Pedagogik faoliyatni yetarlicha yuqori darajada amalga oshira oladigan, o'quvchilarning o'qitilganligi va tarbiyalanganligida yaxshi natijalarga erishadigan hamda shaxs sifatida o'zini yuzaga chiqara oladigan o'qituvchi kasbiy kompetentli bo'lib hisoblanadi.

- kasbiy pedagogik bilimlar bilan;
- kasbiy pedagogik mahorat bilan;
- o'qituvchining ham bilish sohasiga, ham motivatsion sohasiga tegishli bo'lgan kasbiy ahamiyatli sifatleri bilan;
- kasbiy pedagogik pozitsiyasi bilan;
- o'qituvchining xulq-atvorini belgilaydigan (o'quvchilarga, o'ziga, hamkasblarga) barqaror munosabatlari tizimi bilan.

O'qitish jarayonida shakllantiriladigan bilim, mahorat va ko'nikmalar ko'pincha real hayotdagi vaziyatlarda keraksiz bo'lib qoadi. Ularning bunday o'ziga xosligi bo'lajak o'qituvchilarning eng birinchi o'rinda, moslashuvchan, mobil bilimlari va ulardan turli xil, shu jumladan, tipik bo'lmagan vaziyatlarda ham foydalana olish mahoratining shakllantirilishiga qaratiladigan kasbiy hamda metodik tayyorgarligi mazmuniga bo'lgan o'ziga xos talablarni birinchi o'ringa olib chiqadi.

Modernizatsiyalash davrida o'qitishning amaliy-yo'naltirilgan jarayonini shunday tarzda tashkil etish dolzarb bo'lib qoladiki, bunda ta'lim natijasi talabalarda o'qitishning, fikrlashning, tasavvurning, ijodiy qobiliyatlarning, bilishga barqaror qiziqishning o'z ichki motivatsiyasi shakllanishida namoyon bo'lishi kerak. Amaliy-yo'naltirilgan o'qitishning mohiyati ta'lim jarayonining yo'nalishini mazmun komponentlari – umumiy va kasbiy kompetensiyalarning, yangi bilim, mahoratni egallashning va hayotiy muhim vazifa hamda muammolarni hal qilishda ulardan foydalanishning amaliy tajribalarini shakllanishining yaxlitligi asosida tuzishdan iborat bo'ladi. Amaliy- yo'naltirilgan ta'lim asosida fundamental ta'lim va kasbiy-amaliy tayyorgarlikning oqilona uyg'unlashtirilishi yotadi. Amaliy-yo'naltirilgan o'qitish - bu o'qitishning bir turi bo'lib, uning asosiy maqsadi bo'lib ta'lim oluvchilarda bugungi kunlarda ish beruvchilar talabi mavjud bo'lgan amaliy ishning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, shu jumladan, olingan kompetensiyalardan amaliyotda qanday qilib, qaerda va nima uchun foydalanilishi lozimligini tushunishning shakllantirilishi hisoblanadi. O'qitishning kasbiy-yo'naltirilgan texnologiyalarining joriy etilishini eng samarali usuli bu talabalarda ularning kelgusi kasbiy faoliyatlarida ahamiyatli bo'lgan shaxsiy sifatlarining, shu jumladan, tanlab olingan mutaxassislik bo'yicha funksional majburiyatlarning sifatli bajarilishini ta'minlaydigan bilim, mahorat va ko'nikmalarning shakllanishiga yordam beradi. Amaliy-yo'naltirilgan ta'limning yuzaga kelishini kasbiy yo'nalishli va kasbiy yo'nalishga ega bo'lmagan o'quv fanlarini o'rganishning kontekstli imkoniyatlaridan

foydalanish bilan bogʻlanadi. Taʼlim jarayonida amaliy-yoʻnaltirilgan texnologiyalardan foydalanish oʻquv faoliyatidagi urgʻuni oʻzgartiradi, taʼlim oluvchilarni reproduktiv faoliyatning ulushi qisqarishi hisobiga intellektual rivojlanishga undaydi. Amaliy-yoʻnaltirilgan oʻqitish doirasida taʼlim oluvchilarning ichki motivatsiyasi rivojlanadi, chunki muhokama qilinayotgan muammoning hal qilinish usullarini erkin tanlab olish imkoniyati paydo boʻladi; taʼlim oluvchilar oʻz kompetentliklarini his qiladilar; oʻz mustaqilliklarini boshdan kechiradilar. Bilim, mahorat, kasbiy kompetensiyalarni izlab topish, egallash jarayonining intensivlashuvi amaliy-yoʻnaltirilgan oʻqitishning maqsadi boʻlib hisoblanadi. Amaliy faoliyatga oʻzi egallagan kompetensiyalardan foydalana oladigan mutaxassis amaliy-yoʻnaltirilgan yondashuvning natijasi boʻlib hisoblanadi.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, kompetentli yondashuv – bu hozirgi zamon kasbiy taʼlim tizimini mehnat bozorining talab-ehtiyojlari bilan bir qatorga qoʻyishga intilishdir. Mana shunday yondashuv oʻqituvchidan oʻquvchiga bilimlarning translyatsiya qilinishini emas, balki amaliy tajribalar, bilim, mahorat va koʻnikmalar asosida muvaffaqiyatli harakat qilish imkonini beradigan kasbiy kompetentlikni shakllantirishni koʻzda tutadi. Pedagog-xodimlar uchun eng muhim vazifa boʻlib, kompetensiyalarni amaliy jihatdan egallash zarurati sanaladi.

### Adabiyotlar

1. Oʻzbekiston uzluksiz taʼlimining davlat taʼlim standarti. Oliy taʼlim davlat talim standarti 2021-yil 16-iyul.
2. B.Xadjayev, A. Choriyev, Z. Saliyeva. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Toshkent “iqtisodiyot dunyosi” 2018.
4. Haydarov F.I., Xalilova N.I. Psixologiya fanlarini oʻqitish metodikasi. Oʻquv qoʻllanma. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006. B– 18-32.
5. Tolipov Oʻ.Q. oliy pedagogik taʼlim tizimida umummehnat va kasbiy koʻnikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari/ Monografiya. – T.: Fan, 2004.b – 73-80
6. Xusnidinova Gulnoza Zoxidjon qizining Magistrlik dissertatsiyasi «Boʻlajak oʻqituvchilarni kasbiy moslashtirishning pedagogic shart-sharoitlari».



## TUG'RUQDAN KEYINGI DEPRESSIYADA HAMSHIRALIK YORDAM

*Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi  
texnikumi : Hamshiralik ishi kafedrası o'qituvchilari :*

*Mustafayeva Zilola Ulmasovna,  
Abdullayeva Shohsanam Nasrulloevna,  
Najmiddinova Nazira P ardaboyevna.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bemorlarning deyarli to'rt dan uch qismi hatto kasal ekanliklariga shubha ham qilmaydi. Bu juda xavflidir, chunki tug'ruqdan keyingi depressiya hayot uchun xatarli holat bo'lib, ba'zida o'z joniga qasd qilishga olib kelishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** depressiya, stress, tibbiy-sanitariya, rehabilitatsiya, salomatligi va farovonlig, uyqusizlik.

### FIRST AID FOR POSTPARTUM DEPRESSION

**Anatation:** In this article, almost three-quarters of patients do not even suspect that they are sick. This is very dangerous because postpartum depression is a life-threatening condition that can sometimes lead to suicide.

**Keywords:** depression, stress, medical and sanitary, rehabilitation, health and well-being, insomnia.

Tushkunlik tug'ilgandan keyin barcha ayollarda yuzaga keladigan gormonal nomutanosiblikdir. Depressiya beqaror kayfiyat, apatiya, tajovuzkorlik va tashvish bilan birga keladi.

Depressiya, o'zgarishlar bundan mustasno gormonal fon, uy ishlarini og'irlashtiradi, mas'uliyatni oshiradi, charchoq va kundalik hayotning monotonligi. Ba'zi hollarda bu his-tuyg'ular og'ir depressiv holatga aylanadi. Jamiyatda tug'ruqdan keyingi depressiyaga nisbatan noaniq munosabatga qaramay, tibbiyotda bu juda jiddiy kasallik hisoblanadi. Depressiya odatda yangi tug'ilgan chaqaloq tug'ilgandan keyingi birinchi oylarda rivojlanadi.

O'zbekiston Respublikasi jadal rivojlanayotgan davlatlar safi ga kirib, uning barcha jabhalaridakeng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tiziminitakomillashtirish yo'li bilan shahar va qishloqlarda oilaviy poliklinikalar tashkil etildi hamda aholiga qulayliklar yaratildi. Shuni ta'kidlash joizki, «Ona va bola salomatligini muhofaza qilish» davlatimizning ustuvor yo'nalishi bo'lib, bu esa hududlarda qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarni mustahkamlash bilan birga aholiningturmush tarzi va uzoq umr ko'rishi hamda hayot tarzini yaxshiroq yashashga yo'naltirish imkonini yaratadi.

Tibbiyotning asosiy vazifasi inson sog`ligini va yo`qotilgan sog`ligini tiklashdan iborat. Sog`likni saqlash borasida har bir insonning, har bir oilaning o`z maslakdoshi, o`z yordamchisi bo`lishi lozim. Oilaviy shifokor o`zi mas`ul oilaning barcha a`zolarining tibbiyot soxasidagi muammolarini hal etishi maqsadga muvofiqdir. Bular shu oila a`zolarining mukammal o`shishi, kasalliklarning profilaktikasi, reabilitatsiyasi va har bir oilaning uzluksiz tibbiy nazoratini ta`minlash, ularning tibbiy madaniyatini oshirish demakdir. Bu mavzu zamonaviy tibbiyot uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Jahon sog`liqni saqlash tashkiloti ma`lumotlariga ko`ra, tug`ruqdan keyin ayollarning kamida 13 foizi depressiyani boshdan kechiradi. Shu bilan birga, bemorlarning deyarli to`rtidan uch qismi hatto kasal ekanliklariga shubha ham qilmaydi. Bu juda xavflidir, chunki tug`ruqdan keyingi depressiya hayot uchun xatarli holat bo`lib, ba`zida o`z joniga qasd qilishga olib kelishi mumkin. O`z vaqtida choralar ko`rish va shifokor bilan maslahatlashish uchun nafaqat ayolning o`zi, balki uning yaqinlari uchun ham depressiya rivojlanishining alomatlarini bilish juda muhim u holat o`z-o`zidan o`tib ketmaydi.

Hamma onalar bolaning salomatligi va farovonligi haqida qayg`uradi, shuningdek, uning ahvolidan xavotirda bo`ladi. Agar tashvish hissi kuchayib borsa, ayolga kecha-yu kunduz hamrohlik qilsa, iloji boricha tezroq shifokor bilan maslahatlashish kerak. Bu depressiya rivojlanishining belgilaridan biri bo`lishi mumkin. Albatta, uyqusizlik, yangi vazifa, yuqori mas`uliyat, shuningdek, boshqalarning yetarlicha qo`llab-quvvatlamasligi g`azab va asabiylikning paydo bo`lishiga olib kelishi mumkin. Ammo eng kichik muammolarga ham to`satdan kuchli g`azablanish tabiiy javob bo`ladigan bo`lsa, bu ruhiy tushkunlik rivojlanishining belgisidir. Yana bir ogohlantirish belgisi – diqqatni jamlashda qiyinchilik va qaror qabul qila olmaslik. Hatto eng oddiy va tanish vaziyatda ham tanlov qila olmaslik depressiya belgilaridan biri, shu jumladan, bu bola tug`ilgandan keyin rivojlanadi.

Emizikli ona suti yo`qolmasligi va laktatsiya muammosiz davom etishi uchun odatdagi me`yoriga qo`shimcha ravishda kuniga kamida 500 kaloriya kerak. Ammo ayol odatdagidan ko`ra ko`proq ovqat iste`mol qilsa yoki aksincha, deyarli hech narsa yemasa, bu juda jiddiy alomatdir. Va iloji bo`lsa, tezroq shifokorga ko`rinish kerak. Rostini aytganda bola tug`ilgandan keyin uyqu rejimi ham, uning ham sifati muqarrar ravishda o`zgaradi. Ammo ayol qanchalik charchagan bo`lsa ham ayol uxlay olmasa, bu juda jiddiy belgidir. Bunday vaqtda, albatta, shifokor bilan maslahatlashish kerak: davolanish uchun asab tizimini qo`llab-quvvatlaydigan va dam olish qobiliyatini tiklaydigan maxsus dorilar buyurilishi mumkin. Bola tug`gan ayollar har doim ham unga bo`lgan muhabbat va mehrni darhol his qilavermaydi – bu normal holat. Ammo agar ayol chaqaloqqa nisbatan faqat g`azablanish yoki befarqlikni his qilsa, uni doimiy noqulaylik manbayi sifatida qabul qilsa, nima bo`layotganiga ahamiyat bermasa, shoshilinch ravishda onaga yordam kerak.

“Men yomon onaman!” – har bir ona hayotida hech bo‘lmaganda bir marta o‘ziga aytadi. Ammo tug‘ruqdan keyingi depressiyaga duch kelgan ayollar tom ma’noda shu tuyg‘uga g‘arq bo‘ladi: ular hech qachon bolasiga g‘amxo‘rlik qila olmasliklariga, chaqaloq u bilan emas, balki boshqa bilan yaxshiroq bo‘lishiga ishonadi. Yana bir alomat – bu sezgi uzoq vaqt davomida yo‘qolmaydi. Homiladorlik va tug‘ruq kabi jiddiy hissiy tajriba, shuningdek, bu vaqtda yuzaga keladigan gormonal shoklar, nihoyat, uyqusizlik – bularning hammasi ayollarni hayajonlanishga va yig‘lashga moyil qiladi. Ammo tug‘ruqdan ikki hafta o‘tgach ham yig‘lash istagi yo‘qolmasa, bu haqda doktor bilan gaplashish kerak.

Ba’zan ayolning turmush o‘rtog‘i, oilasi yoki do‘stlari uning hayotida nimadir o‘zgarganligi yoki onalikni uddasidan chiqolmayotganligini birinchi bo‘lib sezishlari mumkin. Bunday o‘zgarishlarni sezish va bunday holatlarda nima qilishni bilish juda ham qiyin bo‘lishi mumkin, ayniqsa, ayol ushbu tashvishli holatni muhokama qilishga tayyor bo‘lmasa yoki yordam ko‘rsatilishiga rozi bo‘lmasa. Agar yosh ona nimadir bezovta qilayotganini sezsa, sabab nimadaligini aniqlash uchun eng yaxshisi turmush o‘rtog‘i, oilasi, do‘stlari va tibbiyot xodimlar bilan gaplashgani ma’qul. Ammo shunday ayollar borki, o‘z ruhiyatidagi muammolar va ularning yechimlarini muhokama qilishdan imkon boricha qochadilar. Vaqt o‘tishi bilan bunday ayollar juda og‘ir ahvolga tushishlari va ayni vaqtda ularning o‘z chaqaloqlari, boshqa farzandlari, turmush o‘rtog‘i va oilalari bilan munosabatlari juda ham taranglashishi mumkin. Bu esa ularning turmush o‘rtog‘i, oilalari va do‘stlarini tobora ko‘proq tashvishga tushishlariga sabab bo‘lish mumkin. Agar ularga befarq bo‘lmagan odamlar mazkur holatdan tashvishda ekanliklarini aytadigan bo‘lsalar, ayollar bundan juda achchiqlanishlari va himoyalalanishga o‘tib olishlari mumkin. Ular yordam olish yoki mutasaddi xizmatlarga murojaat qilishdan qaysarlik bilan bosh tortishlari mumkin. Turmush o‘rtog‘i va do‘stlariga ta’siri Agar ayol o‘zidagi tug‘uruqdan keyingi depressiya (TKD) ni tan olishdan bosh tortishda davom etaversa, unda bu holat uning turmush o‘rtog‘i, oilasi va do‘stlariga tobora qimmatga tushadi.

Turmush o‘rtog‘i farzandlariga qarashda yordamlashish va ayolini qo‘llab-quvvatlashi uchun ishxonasidan tez-tez javob olishiga to‘g‘ri kelishi mumkin. Ayolning go‘dagi va boshqa farzandlarining farovonligi hamda xavfsizligi xususidagi tashvishlanish darajasi tobora ortib boradi. Ayol hamma narsada erini, oilasini yoki do‘stlarini ayblashi mumkin. Oqibatda, u o‘z oilasi va do‘stlari bilan aloqalarini uzishi yoki eridan uydan ketishini so‘rashi mumkin. Ayol barcha omadsizliklariga erini sababchi deb bilishi va agar u bo‘lmaganida, ayol o‘zini bunchalik yomon his qilmasligiga ishonib qolishi mumkin. U o‘tmishda ularning munosabatlarida yuz bergan qiyin davrlarni ko‘p eslaydigan bo‘lib qolishi mumkin. Ayol agar eri ketsa, o‘zini yaxshiroq his etaman, deb o‘ylaydi. Bunday vaziyatda erlar qattiq aziyat chekishlari mumkin. Ular rafiqalari yomon ahvolda ekanligini, lekin har qanday

yordamni rad etayotganligini biladilar. Bu esa ularning oilalari butunlay buzilib ketilishining oldini olish uchun rafiqalariga hech qanday ta'sir ko'rsata olmasliklarini anglatadi. Bunday holatda erlariga ham depressiya va sarosimaga tushish tahdid soladi. Natijada, ular o'zlariga bo'lgan ishonchni va vaziyatni to'g'ri baholash qobiliyatidan mahrum bo'lish muammosiga yuz tutadilar.

Yosh oiladagi o'zaro munosabatlarning buzilishi TKD ni tan olmaslik va uni davolash mavjud emasligiga olib keladigan eng katta musibatlardan biridir.

Vaziyatning murakkabligini tan olishdan boshlang. Ayolga o'zining murakkab his-tuyg'ulari to'g'risida gapirib berish imkonini bering. Buning uchun ayollarga ona bo'lish qanchalik mashaqqatli ekanligini, ayniqsa, ushbu ayol yuz tutayotgan qiyinchiliklarni sanab o'tishingiz mumkin. Masalan, quyidagicha so'z boshlash mumkin: «Onalik roliga moslashishga majbur bo'lish — bu ayollarning hayotlarida amalga oshirishlari kerak bo'ladigan eng katta o'zgarishlardan biridir. Lekin biz buning qanchalik qiyin bo'lishi mumkinligi to'g'risida, ko'pincha, gapirmaymiz». Uning qiyinchiliklarini tan oling va uni qo'llab-quvvatlang Unga yordam berish uchun qiladigan harakatlaringizga rafiqangiz e'tibor bermaganga o'xshab tuyulishi mumkin. Uning tuyg'ulari qanchalik haqiqatdan yiroq yoki mulohazasiz bo'lmasin, unga uning hissiyotlari asosli ekanligini ayting. Unga o'zini qanday his qilishi kerakligi to'g'risida so'z ochmaslikka harakat qiling. U yaxshi bajaradigan eng mayda narsalar xususida ham ijobiy gapiring.

Masalan, unga shunday deyishingiz mumkin: «Siz ko'p narsalarni uddasidan chiqishingizga to'g'ri kelyapti (masalan, to'yib uxlamaslik, yetarlicha yordam yo'qligi, begona oilada yashayotganingiz). Sizning o'rningizda kim bo'lsayam qiynalgan bo'lardi». Yoki «Siz hamma narsani yaxshi uddalayapsiz». Uni o'z his-tuyg'ulari bilan o'rtoqlashishga undang Tug'uruqdan keyin o'ziga kelishiga ko'ra to'yib uxlamaslik va halovatsizliklarni bartaraf etib borayotgan bir davrda ayol turli-tuman fikrlar va his-tuyg'ularga berilishi mumkin. Unga ochiq savollar bering va u oddiygina «ha» yoki «yo'q» deyish bilan chegaralanmasin. Buning uchun quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

- Agar o'zingizni shunday his qilayotgan bo'lsangiz hech ham ajablanmagan bo'lardim.
- Qiziq, siz o'zingizni chindan ham shunday his qilyapsizmi?
- Onalikni qanday qabul qildingiz?
- Aslida o'zingizni qanday his qilyapsiz?

Uni tinglang Uni xavotirlantirayotgan narsalar haqida gapirganida gapini bo'lmasdan, fikr yoki maslahatlar bermasdan, qunt bilan tinglashga harakat qiling. Siz unga maslahat berib, u o'zini qanday tutishi lozimligi to'g'risida fikr aytishni xohlashingiz mumkin. Lekin uni diqqat bilan tinglayotganingizni ko'rsatishga harakat qiling. Unga mustaqil ravishda qaror qabul qilish imkonini bering

Ayni vaqtda uni yordam olishga rag‘batlantirishingiz lozim. Uni tinglashgani ayolga o‘z muammolarini anglab olish imkonini beradi. Bu esa mazkur muammolarni yechish yo‘lida qo‘yilgan birinchi qadamdir. Ba‘zan qaror qabul qilish jarayonida sizning ko‘proq ishtirokingiz talab etilishi mumkin.

### Adabiyotlar

1. Atoyev A.Q. Farzandlaringiz barkamol bo‘lsin. – T.: “Ibn Sino”, 1990. – 204 b.
2. .K.Svyatkina, E.V.Belogorskaya, N.P.Kudryavsev. Bolalar kasalliklari fani. –T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1990.
3. J.Eshqobulov; AMahmudov. Bolalar kasalliklari fani. –T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1993.
4. <https://lex.uz/ru/docs/>

## AVTOMOBILLARGA TEXNIK XIMAT KO'RSATISH USULLARI

*Yuldashova Hidoyat Qilichovna*

*Navoiy viloyati Uchquduq tumani kasb-hunar maktabi*

*Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash o'quv amaliyoti*

*Ishlab chiqarish ta'limi ustasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish usullari va vazifalari bo'yicha erishilgan yutuqlari va tahlillar, avtomobillarga avtoservisning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati haqida batafsil bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** texnik xizmat ko'rsatish, avtoservis xizmatlari, texnika, qurilma.

### **Kirish:**

Dunyo bo'ylab avtomobillar eng ko'p yo'lovchilar va yuk hajmi sonini olib yuradi turli ishlab chiqarishni amalga oshiradi ularga maxsus jihozlarni o'rnatish bilan funksiyalar, turmush tarzimizga, madaniyatimizga, dam olishimizga xizmat qiladi, bir so'z bilan aytganda, ajralmas bo'lagiga aylandi zamonaviy sivilizatsiyaning bir qismi desak xato bo'lmaydi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya:**

Avtomobillar, o'z navbatida, tizimli tarzda maxsus kerak xizmatlar, shuningdek tozalash-yuvish, tozalash, yonilg'i quyish, moy va boshqa operatsion materiallar, ularning texnik nazorati holati, paydo bo'lishning oldini olishga qaratilgan bir qator profilaktika va ta'mirlash ishlarini olib borish vaqtidan oldin nosozliklar va nosozliklar, shuningdek tiklanish ularning birliklari, agregatlari, qismlari va tizimlarining yo'qotish ish faoliyatini oldini oladi. Ba'zi oddiy avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish ishlari, masalan tozalash tanani tozalash, kabina, avtomobil yuvish va yonilg'i quyish va boshqa materiallar, shuningdek, tashqi texnik nazorat bo'lishi mumkin avtomobil egalari o'zlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik tizimi, uning asosiy maqsadi ko'rsatmoqda jamoat joylarida avtomobillar uchun hamma turdagi kompleks xizmatlar shakl, mavjud avtomobil xizmati. Avtoullov xizmati tufayli, uning xizmatlaridan muntazam foydalanish, avtomobil egalari ko'p millionli armiyasi, ta'minlash mashinalarining ishlashi, kerakli jihozlar bilan ta'minlangan zarur qismlar va materiallar, ishonchli ma'lumotlarni olish, avtomobillarning texnik ekspluatatsiyasi va savdosiga oid aholi farovonligi oshishining asosiy ijtimoiy omili sanaladi.

### **Natijalar:**

Zamonaviy dunyoda avtoservis xizmatlaridan foydalanilmaydi faqat shaxsiy avtoullovlarning egalari, balki juda ko'p ega bo'lgan firmalar, tashkilotlar, shuningdek avtotransport kompaniyalarida ishlab chiqarish bazasi bo'lmagan yuk mashinalari va

avtobuslarni o'ziga xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi yoki moslashtirmaydi. Avtomobillarga xizmat ko'rsatishning hamma turlarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

- texnik, texnik bo'yicha ishlar majmuasini bajarish avtomobil, uning agregatlari, agregatlari, qismlari va tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash va shuningdek batareyalar, elektr qurilmalar, kuzovlar va shinalar;

- tijorat, avtomobillar, ehtiyot qismlar savdosi, materiallar va avtomobil aksessuarlari, yoqilg'i-moylash materiallari bilan ta'minlash;

- axborot, xizmatlar iste'molchi-mijozlarini ta'minlash kerakli ma'lumotlar, xizmatlarni reklama qilish, doimiy o'rganish mijozlarning talab va taklifini hisobga olgan tarzda avtomobil xizmatlariga ega.

### **Muhokama:**

Avtomobillarga avtoservisning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati O'zbekiston transporti va aholi avtomobillari juda katta, uning xizmatlari hozirda har yili bir milliondan ortiq avtomobil doimiy foydalaniladi. Respublikamiz avtoservisi o'ziga xos takomillanish tarixiga ega va shakllanish istiqbollari borasida amalga oshirilmoqda.

Darhaqiqat, dunyoning avtoservislari ham xuddi shu yoshda avtomobil sanoati va avtomobil transporti rivojlangan ular bilan birga va vaqt bo'yicha o'xshash tarixga egadir. Buni talab qilgan jahon avtomobil bozori, savdoning kerakli sharti sifatida avtomashinalarning mavjudligi zaruriy shart edi avtomobillar - yaxshi tashkil qilingan va yaxshi ishlaydigan avtomobillarga xizmat ko'rsatish tarmog'i mavjud. Chunki rejali davlat bilan sobiq mamlakatimizda iqtisodiyot avtomobil bozori emas edi va u alohida avtomobil xizmatiga bo'lgan ehtiyoji juda katta bo'lgan.

### **Xulosa:**

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, hozirgi zamonda hamma avtoservis va ta'mirlash ustaxonalariga eng oxirgi rusimdagi park-garaj jihozlari olib kelinib avtomobillarni texnik sozligi va rivojlanishiga katta hissa qo'shib kelmoqda. Korxonalar va tashkilot, qishloq xo'jaligi birlashmalariga tegishli avtotransport vositalari tomonidan, o'zlari, tashkil qilgan avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish va avtomobilni kapital ta'mirlash uchun agregatlar va ehtiyot qismlar, shinalarni qayta ishlash, ixtisoslashtirilgan avtotransport vazirligi tarkibidagi ta'mirlash korxonalari, boshqalar va yo'l transporti bo'limlaridan iborat bo'lgan.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mamatov, F. M., Fayzullaev, X., Ergashev, I. T., & Mirzaev, B. S. Nishabli tokchali omochning tortishga chidamliligini aniqlash. Xalqaro qishloq xo'jaligi muhandisligi. 2012 yil.

2. Xusanjonov A., Qobulov M., Abdubannopov A. Avtotransport vositalaridagi shovqin so'ndiruvchi moslamalarda ishlatilgan konstruksiyalar tahlili //Academic research in educational sciences. – 2021.

3. Fayziyev, P. R., Ismadiyorov, A., Jaloldinov, G., & Ganiyev, L. Quyosh innovatsion uy suv isitgichi. Science and Education, 2021.

4. Alimova, Z. X., Ismadiyorov, A. A., & Tojiboev, F. O. "Iqtisodiyot va jamiyat" elektron ilmiy-amaliy davriy nashri xalqaro nashri. 2021.

**TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA**

<b>№</b>	<b>The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi</b>	<b>Page / Страница / Sahifa</b>
1	КОРМЛЕНИЕ ПАЦИЕНТОВ	3
2	ОЦЕНКА ФУНКЦИИ ДЫХАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ.	7
3	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА	9
4	MANTIQIY MASALALAR	16
5	KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'ZLASHTIRAOLMAYDIGAN O'QUVCHILARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	18
6	IJODIY PORTRETGA CHIZGILAR	20
7	О ПЕРЕВОДАХ ТРАГЕДИИ У. ШЕКСПИРА “ГАМЛЕТ” НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК	23
8	OMON MATJON SHE'RLARIDA QUSHLAR TIMSOLI	27
9	СЕСТРИНСКИЙ ПРОЦЕСС.	31
10	TIL O'RGANISH VA O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYANING ROLI	34
11	МАТЕМАТИКА DARSLARIDA KREATIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING MUXIM JIXATLARI	36
12	РУС ТИЛИНИНГ МАКТАБ КУРСИ: ЎҚИТИШНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ	39
13	DISCOURSE AND ITS PRIVILEGE IN TEXT FORMATION	45
14	NATIONAL-CULTURAL AND UNIVERSAL FEATURES OF PROVERBS IN ENGLISH AND UZBEK	47
15	THE USE OF MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH	51
16	LANGUAGE DEVELOPMENT. INTERNAL LAWS OF LANGUAGE DEVELOPMENT	54
17	INGLIZ TILI FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING O'RNI	59
18	ЛАКТАЦИЯ – ВАЖНОСТЬ ГРУДНОГО МОЛОКА.	61
19	ÓSMIRLARDA ÓTISH DAVRIDAGI PSIXOLOGIK O'ZGARISHLARI.	64
20	BOLA TARBIYASIDA SINIF RAHBARINING ROLI.	67
21	PISANI O'RGANISHNI SAMARALI USULLARI.	71
22	XORAZMSHOH – ANUSHTEGINLAR DAVLATI JANG USULLARI VA SAN'ATI TARAQQIYOTI.	74
23	UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINI MATEMATIKA DARSLARIGA QIZIQTIRIB O'TISH YO'NALISHLARI	78
24	SO'ZLARNING TUZILISHIGA KO'RA TURLARINI O'RGATISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH YO'LLARI	85
25	SO'Z TURKUMLARIDA JUFT SO'ZLARNING NAMOYON BO'LISHI	90



26	ONA TILI DARSLARIDA QO‘SHMA VA JUFT SO‘ZLAR IMLOSINI TUSHUNTIRISH VOSITALARI KO‘LAMI	93
27	TEKNOLOGIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNING QO‘LLANILISHI	100
29	PANDEMIYA SHAROITIDA O‘ZBEKISTONDA BYUDJET SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI	104
30	БАХШИЛАР - “БИР АКТЁР ТЕАТРИ” ИЖРО УСЛУБИ АСОСЧИЛАРИ	109
31	DORIVOR O‘SIMLIKLAR, O‘SIMLIKLAR HAYOTIDAGI MUHUM KIMYOVIY ELEMENTLAR, O‘SIMLIKLAR O‘SISHIDAGI SHAMOLNING TEZLIGI	116
32	THEORY OF MODERN EDUCATION IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION	119
33	POSSIBILITIES OF USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH	123
34	JADIDLAR ORZU QILGAN IJTIMOIIY TUZUM	126
35	SHAXSIY KOMPYUTERLARNING TURLARI VA TEXNIK KO‘RSATKICHLARI	130
36	YANGI O‘ZBEKISTONDA YANGICHA MTT DA “MEN” NING YARATILISHI	132
37	QARIYALARDA YURAK-QON TOMIR TIZIMI KASALLIKLARIDA HAMSHIRALIK PARVARISHI	136
38	BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA ZAMONAVIIY YONDASHUVLAR	141
39	TUG‘RUQDAN KEYINGI DEPRESSIYADA HAMSHIRALIK YORDAM	145
40	AVTOMOBILLARGA TEXNIK XIMAT KO‘RSATISH USULLARI	150

***Напоминание!** — Образование наука и инновационные идеи в мире || Авторы несут персональную ответственность за правильность цифр и данных в статьях и планах занятий, включенных в мировой научно-методический журнал, и за правильность приведенных цитат.*


**Главный редактор:  
Семёнов Владимир Львович**

**Помощник редактора:  
Абдурахманов Бобуржон**

**Подготовитель к публикации:  
Халиков Тохирджон Шавкатжонович**

— Образование наука и инновационные идеи в мире всемирный научно-методический журнал, 2022-г.





OPEN  ACCESS

